

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ҚОНУНЧИЛИК ТҮПЛАМИ

33-сон
(1157)
2024 йил
август

Ўзбекистон Республикаси қонунчилик түплами беш бўлимдан иборат:

биринчи бўлимда Ўзбекистон Республикаси қонунлари ва Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг қарорлари эълон қилинади;

иккинчи бўлимда Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармон ва қарорлари эълон қилинади;

учинчи бўлимда Вазирлар Маҳкамасининг қарорлари эълон қилинади;

тўртинчи бўлимда Ўзбекистон Республикаси Конституциявий судининг қарорлари эълон қилинади;

бешинчи бўлимда вазирликлар, давлат қўмиталари ва идораларининг Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлигида давлат рўйхатидан ўtkазилган норматив-хуқуқий ҳужжатлари эълон қилинади.

МУНДАРИЖА

Иккинчи бўлим

285. «Ижтимоий муносабатларни хуқуқий тартибга солишнинг барқарорлигини таъминлаш, сифати ва самарадорлигини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2024 йил 16 августдаги ПФ-111-сон Фармони

Бешинчи бўлим

286. Ўзбекистон Республикаси иқтисодиёт ва молия вазирининг 2024 йил 14 июндаги 141-сон “Ўзбекистон Республикаси бухгалтерия ҳисоби-нинг миллий стандарти (19-сонли БХМС) “Инвентаризацияни ташкил этиш ва ўтказиш”ни тасдиқлаш ҳақида”ги буйруфи (Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 2024 йил 12 августа рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 3548)

287. Ўзбекистон Республикаси Истиқболли лойиҳалар миллий агентлиги директорининг 2024 йил 4 июлдаги 7-сон “Суфурталовчилар томонидан ха-

ражатлар таркиби ва молиявий натижаларни шакллантиришнинг ўзига хос хусусиятлари тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида”ги бўйруғи (Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 2024 йил 13 августда рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 3549)

288. O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash vazirining 2024-yil 2-avgustdagи 29-sон “O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash vaziri tomonidan qabul qilingan ayrim idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”ги buyrug‘i (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2024-yil 13-avgustda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 3550)
 289. O‘zbekiston Respublikasi energetika vazirining 2024-yil 11-iyulдаги 90-сон “O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligining ayrim idoraviy normativ-huquqiy hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”ги buyrug‘i (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2024-yil 14-avgustda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 3551)
 290. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi direktorining 2024-yil 10-iyulдаги 2024/1-сон “Yolg‘iz keksalar va nogironlarni O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tizimidagi Urush va mehnat faxriylari uchun respublika pansionati, “Saxovat” va “Muruvvat” internat uylariga rasmiylashtirish qoidalarini tasdiqlash haqida”ги buyruqqa o‘zgartirishlar va qo‘srimcha kiritish to‘g‘risida”ги buyrug‘i (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2024-yil 14-avgustda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 2785-2)
 291. Ўзбекистон Республикаси иқтисодиёт ва молия вазирининг 2024 йил 15 июлдаги 152-сон “Бюджет таснифини қўллаш бўйича ўйриқномага ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида”ги бўйруғи (Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 2024 йил 15 августда рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 2146-16)
 292. O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi direktorining 2024-yil 19-iyulдаги 01/14-11/32-сон “O‘zbekiston Respublikasining Yagona milliy baholash standartiga o‘zgartirish va qo‘srimcha kiritish to‘g‘risida”ги buyrug‘i (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2024-yil 15-avgustda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 3487-1)
 293. O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2024-yil 13-avgustdagи 18-mh-son “Davlat boshqaruvi tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan ayrim idoraviy normativ-huquqiy hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”ги buyrug‘i (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2024-yil 15-avgustda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 3552)
- Вазирликлар, давлат қўмиталари ва идораларнинг норматив-хукуқий хужжатларини давлат рўйхатидан ўтказиш ҳолати тўғрисидаги маълумот

ИККИНЧИ БЎЛИМ

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ПРЕЗИДЕНТИНИНГ ФАРМОНИ

285 Ижтимоий муносабатларни ҳуқуқий тартибга солишнинг барқарорлигини таъминлаш, сифати ва самарадорлигини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида*

«Ўзбекистон — 2030» стратегияси ижросини самарали таъминлаш, норма ижодкорлиги жараёнида «ақлли тартибга солиш» усулларидан кенг фойдаланиш ҳамда ижтимоий муносабатларни ҳуқуқий тартибга солиш барқарорлигини таъминлаш, шунингдек, норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар лойиҳаларининг тартибга солиш таъсирини баҳолаш ҳамда қонунчилик ҳужжатлари натижадорлигини мониторинг қилишнинг ташкилий-ҳуқуқий механизmlарини ривожлантириш мақсадида:

1. Адлия вазирлиги томонидан манфаатдор вазирлик ва идоралар билан биргаликда 1 860 та қонунчилик ҳужжатлари экспертизадан ўтказилганлиги ва шундан 243 та ҳужжатда 350 та ўз аҳамиятини йўқотган, амалга ошириш механизmlари билан таъминланмаган нормалар ва ҳуқуқий бўшлиқлар аниқланганлиги ҳамда уларни бартараф этиш бўйича тегишли таклифлар ишлаб чиқилганлиги маълумот учун қабул қилинсин.

Куйидагилар:

Ўзбекистон Республикаси Президентининг айрим ҳужжатларига молия, кредит, банк, тадбиркорлик фаолияти, ижтимоий химоя, ташқи иқтисодий алоқалар ҳамда божхона иши соҳаларида қонунчиликни такомиллаштиришга йўналтирилган ўзгартириш ва қўшимчалар 1-иловага мувофиқ;

Қонунчилик ҳужжатларидаги ўз аҳамиятини йўқотган, амалга ошириш механизmlари билан таъминланмаган нормалар ва ҳуқуқий бўшлиқларни бартараф этиш бўйича «йўл ҳаритаси» 2-иловага** мувофиқ тасдиқлансан.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг ва Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг ўз аҳамиятини йўқотган айрим ҳужжатлари 3-иловага мувофиқ ўз кучини йўқотган деб ҳисоблансан.

Вазирлар Маҳкамаси бир ой муддатда қонунчилик ҳужжатларидаги ўз аҳамиятини йўқотган ва амалга ошириш механизmlари билан таъминланмаган нормалар, ҳуқуқий бўшлиқлар ҳамда коррупциявий омилларни бартараф этиш бўйича «йўл ҳаритаси»ни тасдиқласин.

2. 2024 йил 1 октябрдан бошлаб, норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар лойиҳаларини тартибга солиш таъсирини баҳолашнинг (кейинги ўринларда — баҳолаш) соддалаштирилган ва кенгайтирилган тартиби жорий қилинсан. Бунда:

* Ушбу Фармон «Қонунчилик маълумотлари миллий базаси»да 2024 йил 16 августда эълон қилинган.

** 2-илова «Қонунчилик маълумотлари миллий базаси»да эълон қилинган.

а) соддалаштирилган тартибда лойиха ишлаб чиқилишидан олдин қуйидаги тартибга солиш воситалари баҳоланади ва баҳолаш натижалари юзасидан Адлия вазирлигининг дастлабки хулосаси олинади:

жисмоний ва юридик шахсларга мажбурият, талаб, тақиқ, жавобгарлик ёки бошқа чекловларни белгилаш (кейинги ўринларда — талаблар), уларни ўзгартириш ёхуд талабларга риоя қилишни ёки уларни бажаришни таъминлаш билан боғлиқ таъсир чораларини қўллаш;

тадбиркорлик субъектларига тақдим этилаётган имтиёз, преференция ва давлат томонидан қўллаб-қувватлашнинг бошқа турларини жорий қилиш, уларнинг таъсир доирасини кенгайтириш ёки қисқартириш;

б) кенгайтирилган тартибда қуйидаги норматив-хуқуқий хужжатлар лойиҳалари баҳоланади:

соддалаштирилган баҳолаш натижалари бўйича иқтисодий, ижтимоий ва атроф-муҳитга таъсири даражаси юкори деб топилган лойиҳалар;

Олий Мажлис палаталари, Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ва Вазирлар Махкамаси топшириқлари ҳамда баҳолаш соҳасидаги ваколатли органлар, жамоатчилик ва бошқа манфаатдор томонларнинг таклифига кўра кенгайтирилган баҳолашдан ўтказилиши лозим деб топилган лойиҳалар.

Адлия вазирлиги икки ой мuddатда норматив-хуқуқий хужжатлар лойиҳаларини тартибга солиш таъсирини соддалаштирилган ва кенгайтирилган баҳолашдан ўтказиш услугбийтини тасдиқласин.

3. Амалдаги қонунчилик хужжатларини қўллаш самарадорлигини таҳлил қилиш, баҳолаш фаолиятини комплекс ташкил этиш ва бу борада жорий этилган институтларнинг ўзаро боғлиқлиги ҳамда таъсирчанлигини ошириш мақсадида 2025 йилдан бошлаб қуйидагиларни назарда тутувчи тартиб жорий этилсин:

а) ижтимоий муносабатларни тартибга солувчи, хуқуқий нормаларни белгиловчи норматив-хуқуқий хужжат кучга киргандан сўнг:

норматив-хуқуқий хужжатни қабул қилиш мақсадларига эришилишини таҳлил қилиш, унинг ижросини таъминлаш ҳамда баҳолаш учун статистик маълумотларни ўтиш мақсадида ҳар йили масъул давлат органи томонидан мониторинг олиб борилади;

норматив-хуқуқий хужжатни қабул қилиш мақсадларига эришилганлиги ва самарадорлигини аниқлаш мақсадида қонуности ҳужжатлари ҳар уч йилда масъул давлат органи томонидан баҳолашдан ўтказилади;

қабул қилинган норматив-хуқуқий хужжатда унинг мониторинги ва баҳолашдан ўтказилишига масъул бўлган давлат органи кўрсатилади;

қабул қилинган норматив-хуқуқий хужжат мониторинги ва баҳолаш натижалари мажбурий равишда Адлия вазирлигига тақдим этилади ҳамда масъул давлат органининг расмий веб-сайтида эълон қилиб борилади;

б) қонунчилик хужжатларининг хуқуқий мониторинги тартибга солиш таъсирини баҳолаш доирасида ўтказилади;

в) қонунчилик хужжатларининг тартибга солиш таъсирини баҳолаш ҳамда коррупцияга қарши экспертизадан ўтказиш бўйича комплекс режа

(кейинги ўринларда — комплекс режа) хар йили Адлия вазирлиги томонидан ишлаб чиқилади ва Вазирлар Маҳкамаси томонидан тасдиқланади;

г) комплекс режа ижроси бўйича Адлия вазирлиги хисоботи Вазирлар Маҳкамаси ва Президент Администрациясига тақдим этиб борилади.

4. Норматив-хуқуқий ҳужжатлар лойиҳаларининг экспертлар билан кенг муҳокама қилган ҳолда ишлаб чиқилишини таъминлаш мақсадида:

а) норматив-хуқуқий ҳужжатлар лойиҳаларини ишлаб чиқишида, шу жумладан, баҳолашда, маълумот йиғиш (сўров, фокус гурӯҳ муҳокамалари ва бошқа) жараёнларига илмий ташкилотлар ҳамда нодавлат нотижорат ташкилотлари кенг жалб қилинади;

б) 2024 йил 1 октябрдан бошлаб:

давлат органлари томонидан қонун лойиҳалари бўйича ушбу соҳадаги давлат экспертлик илмий-тадқиқот муассасалари хулосалари мажбурий ра-вишда олинади, қонунчилик ҳужжатларини ўзаро мувофиқлаштиришга қа-ратилган ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш ҳамда ўз кучини йўқотган деб топишни назарда тутувчи лойиҳалар бундан мустасно;

давлат экспертлик илмий-тадқиқот муассасалари хулосалари ва муҳокама натижалари бўйича материаллар лойиҳани Адлия вазирлиги ҳамда ҳужжатни қабул қилувчи органларга киритишда мажбурий тартибида илова қилинади.

5. Адлия вазирлиги Қонунчилик ва хуқуқий сиёсат институти билан биргаликда икки ой муддатда норматив-хуқуқий ҳужжатлар лойиҳаларини илмий экспертизадан ўтказиш тартибини Вазирлар Маҳкамасига киритсан.

6. Норматив-хуқуқий ҳужжатлар ва уларнинг лойиҳаларини баҳолаш ва коррупцияга қарши экспертизадан ўтказишида республика ва маҳаллий ижро этувчи ҳокимият органларининг фаолиятини мувофиқлаштириш мақсадида Вазирлар Маҳкамаси ижро этувчи тузилмасида Бош вазир котибияти тар-кибида З та штат бирлигидан иборат Тартибга солиш таъсирини баҳолаш ва коррупцияга қарши экспертиза бўлими (кейинги ўринларда — Бўлим) ташкил этилсин.

Бунда Бўлимнинг штат бирликлари Адлия вазирлиги тизимидан 2 та штат бирлигини ҳамда Рақобатни ривожлантириш ва истеъмолчилар хуқуқларини ҳимоя қилиш қўмитаси тизимидан 1 та штат бирлигини мақбуллаштириш хисобига шакллантирилади.

Куйидагилар Бўлимнинг асосий вазифалари этиб белгилансин:

норматив-хуқуқий ҳужжатлар ва уларнинг лойиҳаларини баҳолаш ва коррупцияга қарши экспертизадан ўтказиш соҳасида республика ва маҳаллий ижро этувчи ҳокимият органлари фаолиятини мувофиқлаштириш;

норматив-хуқуқий ҳужжатлар лойиҳаларининг ҳамда қабул қилинган норматив-хуқуқий ҳужжатларнинг баҳолашдан ўтказилишини ва коррупция-га қарши экспертизасини амалга ошириш;

манфаатдор давлат органлари ва ташкилотлари билан биргаликда қабул қилинган норматив-хуқуқий ҳужжатлар ижро этилиши ҳолатининг танқи-дий таҳлилини амалга ошириш, натижаси бўйича норматив-хуқуқий ҳуж-жатларни такомиллаштириш бўйича таклифлар ишлаб чиқиш;

республика ва маҳаллий ижро этувчи ҳокимият органлари томонидан

норматив-хуқуқий ҳужжатлар лойиҳаларини тайёрлаш ва баҳолашдан ўткашишнинг барча босқичларида жамоатчилик мухокамаси ўтказилиши юзасидан мониторингни амалга ошириш;

қонунчилик ҳужжатларида коррупцияга шароит яратувчи нормаларни аниқлаш ва бартараф этиш тизимининг сифати ҳамда самарадорлигини ошириш бўйича таклифлар ишлаб чиқиш.

7. Адлия вазирлиги ҳузуридаги Қонунчиликни таҳлил қилиш ва тартибга солиш таъсирини баҳолаш институти (кейинги ўринларда — Институт)нинг асосий вазифалари этиб қўйидагилар белгилансин:

ижтимоий муносабатларни тартибга солиш барқарорлигини таъминлаш соҳасида илмий тадқиқотлар ўтказиш, тартибга солиш таъсирини баҳолаш сиёсатини самарали амалга ошириш йўналишларини ишлаб чиқиш;

қонунчилик ҳужжатларини баҳолашдан ўтказиш орқали ижтимоий муносабатларни самарали ва барқарор тартибга солиш ҳамда тартибга солиш юкини камайтиришга қаратилган таклифларни ишлаб чиқиш;

қонунчилик ҳужжатлари ва уларнинг лойиҳаларини баҳолаш, илмий, хуқуқий, коррупцияга қарши ва бошқа турдаги экспертизадан ўтказиш бўйича услубий қўлланмалар ишлаб чиқиш, мазкур йўналишларда ўқув курсларини ташкил этиш;

қонунчиликдаги муаммоларни таҳлил қилиш, хуқуқий нормаларнинг ўзаро боғланиши, комплекслиги ва уйғунлиги мониторингини ўтказиш, қонунчилик ҳужжатларини тизимлаштириш йўналишларини белгилаш;

етакчи хорижий илмий-тадқиқот ташкилотлари билан ҳамкорликни жадаллаштириш, халқаро молия институтлари ва хорижий донорларнинг техник кўмак ва грантларини жалб қилиш;

қонунчилик ҳужжатлари лойиҳаларини ишлаб чиқиш, уларни баҳолаш, илмий, хуқуқий ва коррупцияга қарши экспертизадан ўтказиш бўйича шартнома асосида хизматлар кўрсатиш.

Белгилаб қўйилсинки, Институт ходимлари меҳнатга ҳақ тўлаш ва моддий рафбатлантириш шарт-шароитлари бўйича Адлия вазирлиги марказий аппарати ходимларига тенглаштирилади.

Адлия вазирлиги икки ой муддатда Институт фаолиятини самарали ташкил этишни назарда тутувчи Ҳукумат қарори лойиҳасини Вазирлар Махкамасига киритсин.

8. Вазирлик ва идоралар марказий аппаратларида тузилган стратегик режалаштириш ва методология бўйича таркибий бўлинмалар зиммасига қўйидаги қўшимча вазифалар юклансин:

ташкилотнинг норма ижодкорлиги фаолиятига «ақлли тартибга солиш» воситаларини кенг жорий этиш;

ташкилот томонидан ишлаб чиқилиши режалаштирилаётган қонунчилик ҳужжатлари лойиҳалари бўйича маълумотларни шакллантириш ва уларни Режалаштириш дастурига киритиш;

норматив-хуқуқий ҳужжатлар ва уларнинг лойиҳалари баҳолашдан ўтказилишини таъминлаш, шунингдек, ташкилотнинг норма ижодкорлиги фаолиятига, шу жумладан, баҳолаш юзасидан услубий ёрдам кўрсатиш;

қонунчилик ҳужжатлари ижроси мониторингини ўтказиш, шу жумладан, ҳуқуқни қўллаш амалиётини ўрганиш, таҳлил қилиш, унинг барқарорлигини таъминлаш бўйича таклифларни ишлаб чиқиши.

9. Стратегик режалаштириш ва методология бўйича таркибий бўлинмалар, қоида тариқасида, тегишли соҳа мутахассислари, иқтисодчи, ҳуқуқшунос мутахассислигига эга ходимлар билан жамланади ҳамда уларнинг ҳар икки йилда камида бир марта мажбурий равишда малакасини ошириш тартиби жорий этилади.

Стратегик режалаштириш ва методология бўйича таркибий бўлинмалар ходимлари малакасини оширишни ташкил этиш Адлия вазирлиги томонидан амалга оширилади.

10. Белгилансинки, қўйидаги харажатлар республика ва маҳаллий ижро этувчи ҳокимият органларининг бюджетдан ташқари маблағлари ҳамда қонунчиликда тақиқланмаган бошқа манбалар ҳисобидан амалга оширилади:

норматив-хуқуқий ҳужжатлар лойиҳаларини баҳолашдан ўтказиш жараёнига илмий ташкилотлар, маслаҳат хизматини кўрсатадиган ташкилотлар ва соҳа эксперталарини жалб қилиш билан боғлиқ харажатлар;

республика ва маҳаллий ижро этувчи ҳокимият органларининг баҳолаш учун масъул ходимларининг малакасини ошириб бориш билан боғлиқ харажатлар.

11. Давлат органларининг қонунчилик ҳужжатлари лойиҳаларини баҳолашдан ўтказиш фаолияти самарадорлигини таҳлил қилиш, баҳолаш, ходимларни рағбатлантириш ва камчиликларни бартараф этишга қаратилган қонунчилик ҳужжатлари лойиҳаларини тартибга солиш таъсирини баҳолаш рейтингни (кейинги ўринларда — Рейтинг) жорий этилсин.

Рейтинг ушбу Фармонга 4-иловада келтирилган баҳолаш мезонлари асосида Адлия вазирлиги томонидан тасдиқланадиган Давлат органлари ва ташкилотларининг қонунчилик ҳужжатлари лойиҳаларини баҳолаш рейтингини аниқлаш услубиётига мувофиқ юритилади.

12. Шундай тартиб ўрнатилсинки, унга мувофиқ:

Адлия вазирлиги томонидан ҳар йили йил якунлари бўйича Рейтинг аниқланади ва оммавий ахборот воситаларида эълон қилинади;

Рейтингда дастлабки уч ўринни эгаллаган давлат органларининг баҳолашга масъул ходимлари тегишли давлат органининг бюджетдан ташқари маблағлари ҳисобидан ойлик меҳнат ҳаки фондининг уч бараваридан кам бўлмаган миқдорда бир марталик моддий рағбатлантирилади;

Рейтинги паст давлат органларининг фаолиятини яхшилаш бўйича чора-тадбирлар белгиланади.

13. Адлия вазирлиги (А. Ташкулов):

масъул вазирлик ва идораларга мазкур Фармон талабларининг амалга оширилиши юзасидан амалий ва услубий ёрдам кўрсатиб борсин;

2024 йил 1 ноябрга қадар Норматив-хуқуқий ҳужжатлар лойиҳаларини ишлаб чиқиш ва келишишнинг ягона электрон тизимини ушбу Фармон талаблари асосида такомиллаштирилишини таъминласин;

бир ой муддатда манфаатдор вазирлик ва идоралар билан биргаликда

ушбу Фармонга 2-иловага мувофиқ ўз кучини йўқотган хужжатлар асосида қабул қилинган идоравий норматив-хуқуқий хужжатларни хатловдан ўтказиб, уларни ўз кучини йўқотган деб топиш чораларини кўрсин;

уч ой муддатда қонунчиликка ушбу Фармондан келиб чиқадиган ўзгартириш ва қўшимчалар тўғрисида таклиф киритсин;

ушбу Фармоннинг тартибга солиш таъсирини баҳолаш ва ижроси мониторинг учун масъул этиб белгилансин.

14. Мазкур Фармоннинг ижросини назорат қилиш Ўзбекистон Республикасининг Бош вазири А.Н. Арипов зиммасига юклансин.

**Ўзбекистон Республикаси
Президенти**

Ш. МИРЗИЁЕВ

Тошкент ш.,
2024 йил 16 август,
ПФ-111-сон

Ўзбекистон Республикаси
Президентининг 2024 йил 16 августдаги
ПФ-111-сон Фармонига
1-ИЛОВА

**Ўзбекистон Республикаси Президентининг айrim хужжатлари га
киритилаётган ўзгартиришлар ва қўшимча**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2006 йил 5 январдаги «Йирик саноат корхоналари билан касаначиликни ривожлантириш асосидаги ишлаб чиқариш ва хизматлар ўртасида кооперацияни кенгайтириши рафбатлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПФ-3706-сон Фармони 2-бандининг учинчи хатбоисидаги «мехнат дафтарчаси берилади» сўзлари «электрон меҳнат дафтарчаси шакллантирилади» сўзлари билан алмаштирилсин.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2006 йил 9 январдаги «Мева-сабзавотчилик ва узумчилик соҳасида иқтисодий ислоҳотларни чукурлаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПФ-3709-сон Фармони 4-банди «в» кичик бандидан «, уларда томонларнинг хуқуқ ва мажбуриятлари, жумладан етказиб бериладиган маҳсулотнинг қамида 30 фойзига аванс берилишини ва кейин унинг харид қилинишини таъминлаш аниқ белгилаб қўйилади» сўзлари чиқариб ташлансин.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 19 майдаги «Давлат хуқуқий сиёсатини амалга оширишда адлия органлари ва муассасалари фаолиятини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПФ-5997-сон Фармонининг 11-банди бешинчи хатбоиси «Марказ» сўзидан кейин «ҳамда Адлия вазирлиги ҳузуридаги Конунчиликни таҳлил қилиш ва тартибга солиш таъсирини баҳолаш институти» сўзлари билан тўлдирилсин.

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 22 июндаги

ПФ–6012-сон Фармони билан тасдиқланган Инсон ҳукуқлари бўйича Ўзбекистон Республикасининг Миллий стратегиясини амалга ошириш бўйича «йўл ҳаритаси»нинг 30-позицияси «Масъул ижрочилар» устуни қўйидаги таҳрирда баён этилсин:

«Қонунчилик ва ҳукуқий сиёсат институти, Адлия вазирлиги, Олий суд, Бош прокуратура, Иқтисодиёт ва молия вазирлиги, Тошкент давлат юридик университети, Судьялар олий мактаби, Инсон ҳукуқлари бўйича миллий марказ».

5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 11 мартағи «Бозор тамойиллариға асосланган ипотека кредитларини ажратиш орқали аҳолини уй-жой билан таъминлашга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги ПФ–6186-сон Фармони 7-бандининг учинчи хатбошиси қўйидаги таҳрирда баён этилсин:

«субсидия олиш учун мурожаат қилган ариза берувчининг хоҳишига кўра унинг даромадларига у билан бирга яшамаётган яқин қариндошларининг даромадлари ҳам киритилиши мумкин».

6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 25 январдаги «Республика ижро этувчи ҳокимият органлари фаолиятини самарали йўлга қўйишга доир биринчи навбатдаги ташкилий чора-тадбирлар тўғрисида»ги ПФ–14-сон Фармонига 1-иловада:

а) «17. Адлия вазирлиги» бўлими «Адлия вазирлиги» позициясининг «Жами бошқарув штат бирликлари сони» ва «Давлат бюджети ҳисобидан» устунларидаги «3 842» ва «2 087» рақамлари тегишлича «3 840» ва «2 085» рақамлари билан алмаштирилсин;

б) «19. Рақобатни ривожлантириш ва истеъмолчилар ҳукуқларини ҳимоя қилиш қўмитаси» бўлими «Raқobatni rivojlanterishi va isteъmolchilar huquqlarini himoya qiliishi qumitasasi» pозициясининг «Жами бошқарув штат бирликлари сони» ва «Давлат бюджети ҳисобидан» устунларидаги «342» ва «334» рақамлари тегишлича «341» ва «333» рақамлари билан алмаштирилсин.

7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 16 июндаги «Вазирлар Маҳкамасининг ижро этувчи тузилмасини такомиллаштиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги ПФ–97-сон Фармонининг 1-бандидан «Ахборот-таҳлил ва юридик таъминлаш департаменти» сўzlари чиқариб ташлансин.

8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 августдаги «Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси фаолиятининг самарадорлигини янада ошириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПФ–133-сон Фармонига 1-иловада:

«Худудларда амалга оширилаётган ислоҳотлар натижадорлигини таҳлил қилиш ҳамда таҳлилий материалларни тайёрлаш департаменти» блокида «14» рақами «17» рақами билан алмаштирилсин;

изоҳдаги «217» рақами «220» рақами билан алмаштирилсин.

9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2008 йил 8 октябрдаги «Агробанк» акциядорлик тижорат банкининг инвестициявий фаоллигини

янада ошириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-975-сон қарорининг 1-бандида:

бешинчи хатбоши чиқариб ташлансин;

олтинчи ва еттинчи хатбошилар тегишинча бешинчи ва олтинчи хатбошилар деб ҳисоблансан.

10. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2008 йил 13 ноябрдаги «Асака» давлат-акциядорлик тижорат банкининг инвестициявий фаоллигини янада ошириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-998-сон қарорининг 1-бандида:

олтинчи хатбоши чиқариб ташлансан;

еттинчи — тўққизинчи хатбошилар тегишинча олтинчи — саккизинчи хатбошилар деб ҳисоблансан.

11. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2009 йил 30 мартағи «Агробанк» акциядорлик тижорат банкини ташкил этиш тўғрисида»ги ПҚ-1084-сон қарорининг 2-банди тўртинчи хатбошиси қўйидаги таҳрирда баён этилсан:

«ерларнинг мелиоратив ҳолатини яхшилашга, агросаноат комплекси тармоқларида ишлаб чиқаришни модернизациялаш, техник ва технологик янгилашга, замонавий чет эл технологиялари ва ускуналарини жалб этишга йўналтирилган фаол инвестиция сиёсатини амалга ошириш».

12. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 29 мартағи «2018 — 2022 йилларда Қорақалпоғистон Республикаси, вилоятлар ва Тошкент шаҳрида автомобиль йўллари кўпприкларини, йўл ўтказгичлар ва бошқа сунъий иншоотларни қуриш, реконструкция қилиш ва мукаммал таъмирлаш дастурини тасдиқлаш тўғрисида»ги ПҚ-3632-сон қарори 4-бандининг иккичи ва учинчи хатбошилари қўйидаги таҳрирда баён этилсан:

«умумфойдаланадиган автомобиль йўлларида жойлашган иншоотлар учун — Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлиги ҳузуридаги Автомобиль йўлларини ривожлантириш мақсадли жамғармаси маблағлари;

хўжалик автомобиль йўллари, шаҳар ва бошқа аҳоли пунктлари кўчаларида жойлашган иншоотлар учун, шу жумладан турар-жойлар ва нотурар жой иморатларини бузиш, шунингдек, ер устида пиёдалар ўтадиган йўлкалар қуриш, транспорт иншоотига туташ ҳудудни ободонлаштириш ва кўкаламзорлаштириш, жала сувларини чиқариб ташлаш ва суғориш водопроводларини қуриш қисмидаги харажатларни қоплаш учун — Қорақалпоғистон Республикаси бюджети, вилоятлар ва Тошкент шаҳри маҳаллий бюджетлари ҳамда Қорақалпоғистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлиги, вилоятлар ва Тошкент шаҳри ҳокимликлари иқтисодиёт ва молия бош бошқармалари ҳузуридаги автомобиль йўлларини ривожлантириш ҳудудий мақсадли жамғармаларининг маблағлари белгилаб қўйилсан».

13. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 21 июндаги «Кичик саноат зоналари фаолиятини мувофиқлаштириш ва бошқаришни янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-4363-сон қарори 3-бандининг «г» кичик банди қўйидаги таҳрирда баён этилсан:

«г) кичик саноат зонаси иштирокчиси томонидан инвестиция лойиҳасини

амалга ошириш енгиб бўлмайдиган куч сабабли белгиланган муддатларда якунланмаган бўлса ёхуд худди шу сабабларга кўра охирги 6 ой мобайнида ишлаб чиқариш фаолияти амалга оширилмаган бўлса, Қорақалпоғистон Республикаси, вилоятлар ва Тошкент шаҳридаги давлат муассасаси шаклидаги кичик ва ёшлар саноат зоналарини бошқариш бўйича ягона дирекциялар (кейинги ўринларда — дирекциялар) унга лойиҳа амалга оширилишини тезлаштириш бўйича «Йўл харитаси»ни тасдиқлаган ҳолда қўшимча муддат тақдим этади. «Йўл харитаси»да белгиланган муддатларда инвестиция лойиҳаси якунланмаса ёки ишлаб чиқариш фаолияти бошланмаса, дирекциялар шартномани бекор қиласи.

14. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 15 мартағи «Тартибга солиш таъсирини баҳолаш тизимини янада такомиллаштириш чо-ра-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-5025-сон қарорига илованинг матни қўйидаги таҳрирда баён этилсин:

«Норматив-хуқуқий ҳужжатлар лойиҳаларини ва қабул қилинган норматив-хуқуқий ҳужжатларни тартибга солиш таъсирини баҳолашдан ўтказиш тартиби тўғрисида НИЗОМ

1-боб. Умумий қоидалар

1. Ушбу Низом норматив-хуқуқий ҳужжатлар лойиҳалари ва қабул қилинган норматив-хуқуқий ҳужжатларнинг тартибга солиш таъсирини баҳолаш тартибини белгилайди.

2. Ушбу Низомда қўйидаги асосий тушунчалардан фойдаланилади:

ишлаб чиқувчи — норматив-хуқуқий ҳужжат лойиҳасини ишлаб чиқувчи ёки қабул қилинган норматив-хуқуқий ҳужжатнинг тартибга солиш таъсирини баҳолашни ўтказувчи давлат органи ва ташкилоти;

тартибга солиш таъсирини баҳолаш (кейинги ўринларда — ТСТБ) — лойиҳанинг қабул қилиниши натижасида юзага келиши мумкин бўлган эҳтимолий оқибатларни аниқлаш ва баҳолаш, шунингдек, норматив-хуқуқий ҳужжатнинг тартибга солиш мақсадларига эришилганлигини, самарадорлигини ҳамда тартибга солиш усулини қўллашда юзага келган оқибатларни аниқлашга қаратилган чора-тадбирлар мажмуи;

тартибга солиш воситаси — жисмоний ва юридик шахслар томонидан бажарилиши (риоя этилиши) мажбурий бўлган талаблар ёки бошқа чекловлар ёхуд уларга таъсир кўрсатадиган бошқа чоралар;

манфаатдор томонлар — ўрганилаётган муаммо ёки таклиф этилаётган тартибга солиш доирасига тушадиган жисмоний ва юридик шахслар, давлат органлари ва ташкилотлари, маҳаллий давлат ҳокимияти органлари;

фойда — норматив-хуқуқий ҳужжат лойиҳаси ёки қабул қилинган норматив-хуқуқий ҳужжатда назарда тутилган талабларнинг бажарилиши муносабати билан манфаатдор томонлар олиши мумкин бўлган (келган) ҳар қандай шаклдаги фойда ёки даромад;

харажатлар — норматив-хуқуқий ҳужжат лойиҳаси ёки қабул қилин-

ган норматив-хуқуқий хужжатда назарда тутилган талабларнинг бажарилиши муносабати билан манфаатдор томонларда юзага келиши мумкин бўлган (юзага келган) бевосита ва билвосита харажатлар;

таъсир — норматив-хуқуқий хужжатлар лойиҳасида ҳамда қабул қилинган норматив-хуқуқий хужжатларда белгиланган мажбуриятлар, талаблар, тақиқ ва бошқа чекловларга риоя қилишда манфаатдор томонларда юзага келиши мумкин бўлган бевосита ёки билвосита фойда ва харажатлар;

ТСТБ ҳисоботи — норматив-хуқуқий хужжат лойиҳаси ёки қабул қилинган норматив-хуқуқий хужжат юзасидан ўтказилган ТСТБ якунлари бўйича ишлаб чиқувчи томонидан тайёрланадиган хужжат;

соддалаштирилган ТСТБ ҳисоботи — норматив-хуқуқий хужжат лойиҳаси ишлаб чиқилишидан олдин ўтказилган ТСТБ якунлари бўйича ишлаб чиқувчи томонидан тайёрланадиган хужжат;

кенгайтирилган ТСТБ ҳисоботи — норматив-хуқуқий хужжат лойиҳасини ишлаб чиқиш билан бир вақтда кенгайтирилган тартибда ўтказилган ТСТБ якунлари бўйича ишлаб чиқувчи томонидан тайёрланадиган хужжат;

ТСТБ натижалари бўйича хulosा — ТСТБ ҳисоботини кўриб чиқиш, шунингдек, норматив-хуқуқий хужжат лойиҳаси ёки қабул қилинган норматив-хуқуқий хужжатнинг тегишли соҳага таъсирини баҳолаш якунлари бўйича хulosа берувчи органлар томонидан тайёрланадиган хужжат.

3. ТСТБ муайян соҳада вужудга келган муаммо, келиб чиқсан ижобий ва салбий оқибатлар ҳамда муаммони ҳал қилишга қаратилган ечимлар ва уларнинг афзаллик ва камчиликларини, соҳага давлат аралашувининг заруратини аниқлаш, шунингдек, қабул қилинган норматив-хуқуқий хужжатлар бўйича уларнинг тартибга солиш мақсадларига эришилганлиги ва самарадорлигини аниқлаш мақсадида ўтказилади.

4. Тадбиркорлик фаолиятига, фуқароларнинг хуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларига ҳамда атроф-мухитга таъсир кўрсатувчи норматив-хуқуқий хужжат лойиҳаси ва қабул қилинган норматив-хуқуқий хужжат мажбурий тарзда ТСТБдан ўтказилади.

5. Норматив-хуқуқий хужжатлар лойиҳаларини ТСТБдан ўтказиш икки босқичда лойиҳа ишлаб чиқилишидан олдин соддалаштирилган тартибда ҳамда лойиҳани ишлаб чиқиш билан бир вақтда кенгайтирилган тартибда амалга оширилади.

6. Норматив-хуқуқий хужжат лойиҳаси билан қўйидаги тартибга солиш воситалари жорий этилиши назарда тутилган ҳолларда соддалаштирилган тартибда ТСТБ ўтказилади:

жисмоний ва юридик шахсларга мажбурият, талаб, тақиқ, жавобгарлик ёки бошқа чекловларни белгилаш ёки уларни ўзгартириш;

жисмоний ва юридик шахсларга мажбурият, талаб, тақиқ, жавобгарлик ёки бошқа чекловларга риоя қилиш ёки уларни бажаришни таъминлаш билан боғлиқ таъсир чораларини қўллаш;

тадбиркорлик субъектларига тақдим этилаётган имтиёз, преференция ва давлат томонидан қўллаб-қувватлашнинг бошқа турларини жорий қилиш,

уларнинг таъсир доирасини кенгайтириш ёки қисқартириш ёхуд уларни бекор қилиш.

7. Соддалаштирилган ТСТБ натижасида иқтисодий, ижтимоий ва атроф-муҳитга таъсир даражаси юқори деб топилган норматив-хуқуқий хужжат лойиҳаси кенгайтирилган тартибда ТСТБдан ўтказилади.

Норматив-хуқуқий хужжатлар лойиҳалари Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталари, Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳамда Вазирлар Маҳкамасининг топшириқлари, шунингдек ТСТБ соҳасидаги ваколатли органлар, жамоатчилик ва бошқа манфаатдор томонларнинг таклифларига кўра ҳам кенгайтирилган ТСТБдан ўтказилиши мумкин.

8. Қуйидаги ҳолларда норматив-хуқуқий хужжат лойиҳасини ТСТБдан, шу жумладан, жамоатчилик муҳокамасидан ўтказиш мажбурий ҳисобланмайди:

норматив-хуқуқий хужжат лойиҳаси фавқулодда вазиятларнинг олдини олиш ёки уларнинг оқибатларини бартараф этиш, юқумли ва паразитар қасалликлар тарқалишининг олдини олиш бўйича чекловчи тадбирлар (карантин)ни белгилашга қаратилган бўлса;

Ўзбекистон Республикасининг ҳалқаро шартномаларидан келиб чиқувчи мажбуриятларни бажаришни назарда тутса;

норматив-хуқуқий хужжат лойиҳаси ёки қабул қилинган норматив-хуқуқий хужжатда амалдаги норматив-хуқуқий хужжатларни янги қабул қилинган қонунчилик хужжатларининг талабларига мувофиқлаштиришга қаратилган ўзгартириш ва қўшимчалар назарда тутилса;

норматив-хуқуқий хужжат лойиҳаси ёки қабул қилинган норматив-хуқуқий хужжат ушбу Низомнинг 4-бандида кўрсатилган мезонларга жавоб бермаса.

Ушбу бандда кўрсатилган ҳолларда ишлаб чиқувчи лойиҳанинг тушунтириш хатида ТСТБдан ўтказиш рад этилганлигини асослаши лозим.

Норматив-хуқуқий хужжат лойиҳаси ёки қабул қилинган норматив-хуқуқий хужжат давлат сирларини ёки қонун билан қўриқланадиган бошқа сирни ўз ичига олса, улар жамоатчилик муҳокамасига жойлаштирилмасдан ТСТБдан ўтказилиши мумкин.

9. Қуйидагилар ТСТБдан ўтказиш учун ахборот манбалари ҳисобланади:
расмий статистик маълумотлар;
давлат органлари ва ташкилотларининг маълумотлари;

илмий-таҳлилий материаллар ва нашрлар, илмий-амалий семинарлар, конференциялар ҳамда йиғилишлар материаллари;

ваколатли ташкилотлар ва ишлаб чиқувчи томонидан ўтказилган ижтимоий сўровларнинг натижалари;

оммавий ахборот воситаларида, шу жумладан Интернет жаҳон ахборот тармоғидаги расмий веб-сайтларда эълон қилинган нашрлар;

ТСТБдан ўтказиш доирасида давлат органи ва ташкилоти томонидан, шу жумладан, бевосита жойига чиққан ҳолда ўтказилган ўрганишлар жараёнида олинган (аниқланган) маълумотлар;

қонунчилик хужжатларида тақиқланмаган бошқа манбалар.

10. Норматив-хуқуқий хужжат лойиҳаси ёки қабул қилинган норматив-хуқуқий хужжатни ТСТБдан ўтказиш ушбу Низомга мувофиқ тасдиқланадиган услубиёт асосида амалга оширилади.

ТСТБ натижалари юзасидан Адлия вазирлиги томонидан тасдиқланадиган шаклга мувофиқ ТСТБ ҳисботи тайёрланади ҳамда ишлаб чиқувчининг биринчи раҳбари (истисно ҳолларда — уларнинг биринчи ўринбосарлари) имзоси билан расмийлаштирилади.

11. Давлат органлари ва ташкилотларида норматив-хуқуқий хужжатлар лойиҳалари ва қабул қилинган норматив-хуқуқий хужжатларни ТСТБдан ўтказиш учун соҳа мутахассисларидан иборат ишчи гурух ташкил қилинади.

Давлат органлари ва ташкилотларида норматив-хуқуқий хужжат ёки унинг лойиҳасини ТСТБдан ўтказиш ишларини ташкил этиш ҳамда ТСТБ бўйича ишчи гурух фаолиятини мувофиқлаштириш давлат органи ва ташкилотларининг стратегик режалаштириш ва методология бўлинмаси зиммасига, бундай бўлинма мавжуд бўлмаган ҳолларда қонунчилик хужжатлари лойиҳаларини ишлаб чиқиш ёки методик таъминлаш вазифаси юклатилган таркиби бўлинмалар зиммасига юклатилади.

2-боб. Норматив-хуқуқий хужжатлар лойиҳаларини ишлаб чиқиш ва ТСТБдан ўтказиш тартиби

1-§. Лойиҳани соддалаштирилган тартибда ТСТБдан ўтказиш

12. Ушбу Низомнинг 6-бандида назарда тутилган тартибга солиш воситаларини жорий этишни назарда тутувчи лойиҳалар ишлаб чиқилишидан олдин соддалаштирилган тартибда ТСТБдан ўтказилади.

13. Ишлаб чиқувчи соддалаштирилган ТСТБ натижалари юзасидан ҳисбот тайёрлайди.

14. Соддалаштирилган ТСТБ ҳисботида қўйидаги маълумотлар акс этирилади:

муаммо тавсифи, шу жумладан муаммо таъсир кўрсатаётган объектлар ва субъектлар таҳлили;

давлат аралашувининг зарурати, мақсади ва муаммони ҳал қилиш ёки унинг салбий таъсирини камайтириш билан боғлиқ хатарлар;

муаммони ҳал қилишнинг муқобил усуслари;

муқобил усусларнинг ижобий ва салбий таъсирлари ҳамда муаммони ҳал этишдаги эҳтимолий улуши;

мақбул усульнинг бошқа усусларга нисбатан афзаллиги;

мақбул усул орқали жорий этилиши кутилаётган тартибга солиш воситалари.

2-§. Лойиҳани кенгайтирилган тартибда ТСТБдан ўтказиш

15. Ушбу Низомнинг 7-бандида назарда тутилган ҳолларда лойиҳа юзасидан кенгайтирилган тартибда ТСТБ ўтказилади.

16. Кенгайтирилган ТСТБ ҳисботида қўйидаги маълумотлар акс эттирилади:

тартибга солиниши керак бўлган муаммо таҳлили ва давлат аралашувининг зарурати (сабаблари);

тартибга солиш орқали эришилиши лозим бўлган мақсадлар;

муаммони ҳал қилишда муқобил усувлар, уларнинг афзалликлари ҳамда камчиликлари;

тартибга солиш таъсир қўрсатадиган субъектлар тўғрисида маълумотлар;

ҳар бир муқобил усульнинг миқдорий ва сифат таҳлили, шу жумладан фойда ва харажат таҳлили, тегишли соҳаларга (рақобат, ижтимоий соҳа, атроф-муҳит) таъсирлари ва қўллашда юзага келиши мумкин бўлган салбий оқибатлари хавфи ва қиёсий таҳлил ёрдамида танланган мақбул усуслини жорий этишнинг мақсадга мувофиқлиги;

тартибга солиш мақсадларига эришиш учун зарур чора-тадбирлар ва кутилаётган натижалар;

лойиҳанинг ёки унда белгиланган тартибга солиш воситаларининг амал қилиши таклиф қилинган даврни асослаш (амал қилиш муддати мавжуд бўлганда).

3-§. Лойиҳа ва ТСТБ ҳисботини манфаатдор вазирлик ва идоралар билан келишиш, экспертлар ва жамоатчилик мухокамасидан ўтказиш

17. ТСТБ жараёнида муаммоларни таҳлил қилиш, маълумотлар ва далилларни йиғиш, муқобил усувларни аниқлаш ва тартибга солиш воситалари жорий этилиши мақсадга мувофиқлиги ва заруратини баҳолаш мақсадида манфаатдор томонлар билан маслаҳатлашувлар ўтказилиши, шунингдек, муаммони ҳал қилишнинг муқобил усувлари соҳа мутахассислари (экспертлари) билан мухокама қилиниши (кейинги ўринларда — экспертлар мухокамаси) зарур.

Тадбиркорлик субъектлари зиммасига янги мажбурият, талаб, тақиқ, жавобгарлик ёки бошқа чекловлар юклатилишини назарда тутувчи лойиҳалар ва ТСТБ ҳисботи бевосита тадбиркорлик субъектлари ҳамда уларнинг бирлашмалари иштирокида мухокама қилинади.

Лойиҳаларни ишлаб чиқишида, шу жумладан, ТСТБдан ўтказишида, маълумот йиғиши (сўров, фокус гурух мухокамалари ва бошқа) жараёнларига илмий ташкилотлар ҳамда нодавлат нотижорат ташкилотлар (кейинги ўринларда — илмий ташкилотлар), шунингдек, маслаҳат (консалтинг) хизматини қўрсатадиган ташкилотлар ва соҳа мутахассислари (экспертлари) шартнома асосида кенг жалб қилиниши мумкин.

18. Экспертлар мухокамаси натижалари асосида лойиҳа ва ТСТБ ҳисботи қайта ишланади, тегишли материаллар Адлия вазирлигига ҳамда қарор қабул қилувчи органларга лойиҳа ва ТСТБ ҳисботини киритишида мажбурий тартибда илова қилинади.

19. Лойиҳа ва ТСТБ ҳисоботини манфаатдор вазирликлар ва идоралар билан келишиш Норматив-хуқуқий ҳужжатлар лойиҳаларини ишлаб чиқиши ва келишишнинг ягона электрон тизими орқали амалга оширилади.

20. Лойиҳаларни манфаатдор вазирликлар ва идоралар билан келишиш қонунчилик ҳужжатларида белгиланган тартиб ва муддатларда амалга оширилади.

21. Экспертлар муҳокамаси ҳамда манфаатдор вазирликлар ва идоралар билан келишиш яқунлари асосида қайта ишланган лойиҳа ва ТСТБ ҳисоботи ишлаб чиқувчи томонидан Норматив-хуқуқий ҳужжатлар лойиҳалари муҳокамаси порталига (кейинги ўринларда — Портал) жойлаштирилиши орқали ўзи белгилаган, лекин 15 кундан кам бўлмаган муддатда жамоатчилик муҳокамасидан ўтказилади.

22. Лойиҳа ва ТСТБ ҳисботи бўйича асосланган таклифлар жамоатчилик муҳокамаси иштирокчилари томонидан Порталнинг техник имкониятларидан фойдаланган холда ихтиёрий шаклда тақдим этилади.

23. Жамоатчилик муҳокамаси иштирокчилари ҳамда бошқа ташкилотлар ва фуқаролар томонидан лойиҳанинг тартибга солиш таъсирини муқобил баҳолаш амалга оширилиши ва баҳолаш натижалари бўйича тайёрланган хулосалар лойиҳани ишлаб чиқувчи давлат органига тақдим этилиши мумкин. Жамоатчилик муҳокамаси иштирокчилари томонидан ўтказилган лойиҳанинг тартибга солиш таъсирини муқобил баҳолаш натижалари бўйича тайёрланган хулосалар тегишли давлат органлари томонидан мажбурий тартибда кўриб чиқилади.

24. Ишлаб чиқувчи жамоатчилик муҳокамаси иштирокчилари ҳамда манфаатдор томонлар томонидан тақдим этилган таклифларни умумлаштиради ва уларни қабул қилиш ёки рад этиш тўғрисида Адлия вазирлиги томонидан тасдиқланадиган шаклга мувофиқ асосланган маълумотни ҳамда мазкур таклифлар асосида қайта ишланган лойиҳа ва ТСТБ ҳисботини лойиҳа муҳокамаси муддати яқунлангандан сўнг 5 кундан кам бўлмаган муддатга Порталга жойлаштиради.

Жамоатчилик муҳокамаси иштирокчиларининг таклифларини кўриб чиқиши якунлари бўйича маълумотнома ТСТБ ўтказишнинг барча жараёнларида ТСТБ ҳисботига илова қилинади.

25. Жамоатчилик муҳокамаси асосида лойиҳани қайта ишлашда лойиҳа матни жамоатчилик муҳокамасига киритилганидан тубдан фарқ қилса, хусусан, унинг концептуал қоидалари ўзгартирилган тақдирда, лойиҳа ва ТСТБ ҳисботи жамоатчилик муҳокамасига тақороран жойлаштирилади.

26. Ишлаб чиқувчи ўз ташаббуси билан ёки Адлия вазирлиги талабига мувофиқ жамоатчилик муҳокамаси давомида оммавий ахборот воситалари ва ижтимоий тармоқларда кенг муҳокамаларга сабаб бўлган ёки аҳолининг асосли эътирозларини келтириб чиқарган лойиҳа ва ТСТБ ҳисботи юзасидан оммавий ахборот воситалари вакиллари, журналистлар, фуқаролар ва тадбиркорлик субъектлари учун ушбу лойиҳанинг мақсади, мазмун-моҳияти ва аҳамиятини тушунтириш бўйича матбуот анжуманлари ва брифингларни ўтказади.

4-§. Лойиҳа ва ТСТБ ҳисоботини хulosаси берувчи органлар билан келишиш

27. Лойиҳа ва кенгайтирилган ТСТБ ҳисоботи, шунингдек, ТСТБ юзасидан хulosаси бериш учун зарур бўлган бошқа маълумотлар лойиҳанинг тегишли соҳага таъсирини ўрганиш учун хulosаси берувчи органларга Норматив-хуқуқий хужжатлар лойиҳаларини ишлаб чиқиш ва келишишнинг ягона электрон тизими орқали идоралароро келишув билан бир вақтда тақдим этилади.

28. Норматив-хуқуқий хужжат лойиҳаси ва кенгайтирилган ТСТБ ҳисоботи:

Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлиги томонидан тадбиркорлик фаолиятига таъсири жиҳатидан;

Ўзбекистон Республикаси Рақобатни ривожлантириш ва истеъмолчилар хуқуқларини химоя қилиш қўмитаси томонидан рақобатга таъсири жиҳатидан;

Ўзбекистон Республикаси Экология, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва иқлим ўзгариши вазирлиги томонидан атроф-муҳитга таъсири жиҳатидан ўрганилади.

Норматив-хуқуқий хужжат лойиҳасининг фуқароларнинг хуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларига таъсирини ўрганиш тегишли соҳада давлат сиёсатини юритишга масъул бўлган давлат органлари ва ташкилотлари томонидан келишиш жараённида амалга оширилади.

Хulosаси берувчи органлар заруратга кўра, лойиҳа ва кенгайтирилган ТСТБ ҳисоботини ўзаро муҳокама қилиш орқали биргаликда келишилган хulosаси тайёрлашлари мумкин.

29. Хulosаси берувчи органлар кенгайтирилган ТСТБ ҳисоботини ўрганиш жараённида ишлаб чиқувчидан қўшимча маълумотларни сўраб олиш хуқуқига эга.

30. Кенгайтирилган ТСТБ натижалари бўйича хulosаси берувчи органлар томонидан 10 иш куни мобайнинида лойиҳанинг мақсадга мувофиқлиги, қайта кўриб чиқиш лозимлиги ёки мақсадга мувофиқ эмаслиги тўғрисида хulosаси расмийлаштирилади ва хulosаси берувчи органларнинг биринчи раҳбари (истисно ҳолларда — уларнинг биринчи ўринбосарлари) томонидан имзоланган ҳолда ишлаб чиқувчига тақдим этилади.

5-§. Соддалаштирилган ТСТБ ҳисоботини дастлабки хulosаси олиш учун Адлия вазирлигига киритиши

31. Ишлаб чиқувчи соддалаштирилган ТСТБ ҳисоботини ушбу Низомда белгиланган маълумотлар билан биргаликда, ўтказилган ТСТБнинг сифати ҳамда лойиҳа бўйича кенгайтирилган ТСТБ ўтказиш заруратини аниқлаш юзасидан дастлабки хulosаси олиш учун Адлия вазирлигига киритади.

32. Адлия вазирлиги ишлаб чиқувчи томонидан ТСТБ ўтказиш жараёнларида ушбу Низом талабларига риоя этилганлигини, давлат аралашувининг

зарурати, муаммони танланган тартибга солиш усули билан ҳал этиш асосилигини ҳамда лойиҳани кенгайтирилган ТСТБдан ўтказиш зарурати мавжудлигини ўрганади.

33. Адлия вазирлиги соддалаштирилган ТСТБ ҳисботини ўрганиш жарайёнида ишлаб чиқувчидан қўшимча маълумотларни сўраб олиш хукуқига эга.

34. Адлия вазирлиги томонидан 10 иш куни мобайнида соддалаштирилган ТСТБ ҳисботи қўриб чиқилади ҳамда баҳолаш натижалари юзасидан қўйидаги хulosалардан бири тақдим этилади:

ложиҳа соддалаштирилган ТСТБ ҳисботи асосида ишлаб чиқилиши мумкинлиги;

ложиҳа иқтисодий, ижтимоий соҳага ёки атроф-муҳитга таъсири даражаси юқори деб топилганлиги боис кенгайтирилган тартибда ТСТБдан ўтказилган ҳолда ишлаб чиқилиши зарурлиги ҳақида.

Адлия вазирлиги ишлаб чиқувчи томонидан ТСТБ жараёнлари ушбу Низом талабларига риоя этилмаган ҳолда ўтказилганлигини аниқлаган тақдирда, ТСТБдан ўтказиш жараёнларида йўл қўйилган камчиликларни бартараф этиш, шунингдек, қўшимча ўрганишларни амалга ошириш учун аниқ муддатни белгилаган ҳолда соддалаштирилган ТСТБ ҳисботини ишлаб чиқувчига қайтаради.

6-§. Лойиҳа ва ТСТБ ҳисботини Адлия вазирлигига киритиш

35. Соддалаштирилган ТСТБдан, идоралараро келишувдан, эксперталар ва жамоатчилик мухокамасидан ўтказилгандан сўнг қайта ишланган лойиҳа ва ТСТБ ҳисботи, шунингдек, кенгайтирилган ТСТБдан ўтказилган лойиҳалар юзасидан хуоса берувчи органларнинг ТСТБ натижалари бўйича хуосаси ва ушбу Низомда қўрсатилган бошқа зарур материаллар, уларни белгилangan тартибда хукукий экспертизадан ўтказиш ҳамда амалга оширилган ТСТБ сифатини ўрганиш учун ишлаб чиқувчи томонидан Адлия вазирлигига киритилади.

36. Лойиҳа ва кенгайтирилган ТСТБ ҳисботи хуоса берувчи органларнинг ТСТБ натижалари бўйича хуосалари мавжуд бўлгандагина Адлия вазирлигига киритилади.

37. Адлия вазирлиги ишлаб чиқувчи томонидан лойиҳани ТСТБдан ўтказиш жараёнларида ушбу Низом талабларига риоя этилганлигини, лойиҳада манфаатдор томонлар учун асоссиз харажатлар, ортиқча мажбуриятлар, тақиқ, жавобгарлик чоралари ва чекловлар мавжуд ёки мавжуд эмаслиги, муаммо таклиф этилаётган тартибга солиш усули билан ҳал этилишининг асослигини ўрганади.

38. Адлия вазирлиги ишлаб чиқувчи томонидан ТСТБ жараёнлари ушбу Низом талабларига риоя этилмаган ҳолда ўтказилганлигини аниқлаган тақдирда, ТСТБдан ўтказиш жараёнларида йўл қўйилган камчиликларни бартараф этиш, шунингдек, қўшимча ўрганишларни амалга ошириш учун аниқ

муддатни белгилаган ҳолда лойиҳа, ТСТБ хисоботи ва ТСТБ натижалари бўйича хulosаларни ишлаб чиқувчига қайтаради.

39. Ишлаб чиқувчи томонидан ТСТБ ўтказиш жараёнлари ушбу Низом талабларига тўлиқ риоя этилган ҳолда ўтказилган тақдирда, Адлия вазирлиги томонидан лойиҳада манфаатдор томонлар учун асоссиз харажатлар, ортиқча мажбуриятлар, тақиқ ва чекловлар мавжуд ёки мавжуд эмаслиги, муаммо таклиф этилаётган тартибга солиш усули билан ҳал этилишининг асосли ёки асосли эмаслигини назарда тутувчи лойиҳани қабул қилишнинг мақсадга мувофиқлиги ёки мувофиқ эмаслиги тўғрисида хulosса берилади.

40. Ишлаб чиқувчи томонидан лойиҳани Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарига, Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрациясига ва Вазирлар Махкамасига киритишда унга ТСТБ хисоботи, экспертилар ва жамоатчилик мухокамаси натижаси бўйича маълумот, хulosса берувчи органлар ва Адлия вазирлигининг хulosалари илова қилинади.

3-боб. Норматив-хуқуқий ҳужжатлар ижросини мониторингдан ўтказиш

41. ТСТБ доирасига тушадиган норматив-хуқуқий ҳужжатлар, шу жумладан, кенгайтирилган тартибда ТСТБдан ўтказилган норматив-хуқуқий ҳужжатларнинг ижроси мажбурий равишида улар кучга киргандан сўнг ҳар йили мониторингдан ўтказилади.

Бунда:

норматив-хуқуқий ҳужжатлар лойиҳаларини ишлаб чиқиша ишлаб чиқувчи томонидан белгиланган шаклдаги норматив-хуқуқий ҳужжатлар ижросини мониторингдан ўтказиш режаси (кейинги ўринларда — мониторинг режаси) тайёрланади ва лойиҳа қабул қилингунига қадар бўлган барча босқичларда унга илова қилинади;

мониторинг режаси норматив-хуқуқий ҳужжатлар лойиҳаларини ТСТБдан ўтказиш жараёнида ваколатли органлар томонидан кўриб чиқилади;

норматив-хуқуқий ҳужжатнинг мониторинги мониторинг режасига мувофиқ амалга оширилади.

42. Қўйидагилар мониторингнинг асосий вазифалари хисобланади:

норматив-хуқуқий ҳужжатни қабул қилиш мақсадларига эришилишини таҳлил қилиш, унинг ижроси ва натижаларини мунтазам ҳамда тизимли равишида кузатиб бориш;

ТСТБдан ўтказиш учун статистик маълумотларни тўплаш;

хуқуқни қўллаш амалиётининг норматив-хуқуқий ҳужжатларни қабул қилиш мақсадларига мувофиқлигини ўрганиш;

норматив-хуқуқий ҳужжатлар ижросига тўсқинлик қилувчи ҳолатларни аниқлаш;

норматив-хуқуқий ҳужжат ижроси бўйича хуқуқни қўллаш амалиётини ўрганиш.

43. Мониторинг норматив-хуқуқий ҳужжатда унинг мониторинги ўтказилишига бевосита масъул этиб белгиланган давлат органи томонидан,

масъул орган белгиланмаган ҳолларда тегишли соҳада давлат сиёсатини амалга оширувчи вазирлик ва идоралар томонидан амалга оширилади.

Мониторинг режасининг шакли ва мониторинг ўтказиш услубиёти Адлия вазирлиги томонидан тасдиқланади.

44. Мониторинг Норматив-хукуқий хужжатлар лойиҳаларини ишлаб чиқиш ва келишишнинг ягона электрон тизими орқали амалга оширилади.

Давлат органлари ҳар йили 1 февралга қадар ўтказилган мониторинг натижалари тўғрисидаги маълумотларни мажбурий равишда ўзларининг расмий веб-сайтида эълон қиласи ҳамда Адлия вазирлигига тақдим этади.

4-боб. Норматив-хукуқий хужжатларни ТСТБдан ўтказиш тартиби

1-§. Норматив-хукуқий хужжатларни ТСТБдан ўтказиш режасини ишлаб чиқиш ва тасдиқлаш

45. Қуйидаги норматив-хукуқий хужжатлар ТСТБдан ўтказилади:
ложиҳаси ишлаб чиқилишида ТСТБдан ўтказилган норматив-хукуқий хужжатлар;

ушбу Низомнинг 4-бандида кўрсатилган ҳолатларни назарда тутувчи норматив-хукуқий хужжатлар.

Норматив-хукуқий хужжатнинг самарадорлиги, мақсади ва кутилган натижаларга эришилганлигини аниқлаш мақсадида:

қонун кучга кирган кундан бошлаб беш йил ўтиб, кейинчалик ҳар беш йилда масъул давлат органи ва Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг қўмиталари томонидан;

қонуности хужжатлари кучга кирган кундан бошлаб уч йил ўтиб, кейинчалик ҳар уч йилда масъул давлат органи томонидан ТСТБдан ўтказилади.

46. Норматив-хукуқий хужжатларни ТСТБдан ўтказиш ишлаб чиқувчи ёки давлат органлари ва ташкилотлари томонидан ўз ваколатлари доирасида Вазирлар Маҳкамасининг қарори билан тасдиқланадиган норматив-хукуқий хужжатларни ТСТБдан ўтказиш режасига (кейинги ўринларда — ТСТБдан ўтказиш режаси) мувофиқ амалга оширилади.

47. Давлат органлари ва ташкилотлари ҳар йили 1 февралга қадар Адлия вазирлиги томонидан тасдиқланадиган шаклга мувофиқ ТСТБдан ўтказиш режаси лойиҳасига таклифларни шакллантиради ва биринчи раҳбари (истисно ҳолларда — уларнинг биринчи ўринбосарлари) имзоси билан Адлия вазирлигига тақдим этади.

48. Адлия вазирлиги ҳар йили 10 февралга қадар давлат органлари ва ташкилотлари таклифлари асосида ТСТБдан ўтказиш режаси лойиҳасини ишлаб чиқади ҳамда жамоатчилик муҳокамасини ўтказиш учун 15 кундан кам бўлмаган муддатда Порталга жойлаштиради.

49. Адлия вазирлиги жамоатчилик муҳокамаси иштирокчилари томонидан тақдим этилган таклифларни умумлаштиради ва уларни қабул қилиш ёки рад этиш тўғрисида асосланган маълумотни ҳамда мазкур таклифлар

асосида қайта ишланган ТСТБдан ўтказиш режасини ҳар йили 1 марта қадар тасдиқлаш учун Вазирлар Маҳкамасига кирилади.

50. ТСТБдан ўтказиш режаси ҳар йили 20 марта қадар Вазирлар Маҳкамаси томонидан қарор шаклида тасдиқланади.

Адлия вазирлиги Вазирлар Маҳкамаси қарори билан тасдиқланган ТСТБдан ўтказиш режасини Порталга жойлаштириш ва оммавий ахборот воситаларида эълон қилиш орқали кенг жамоатчиликка етказилишини таъминлайди.

51. Давлат бошқаруви органлари ва бошқа ташкилотлар томонидан норматив-хуқуқий хужжатлар ижроси мониторинги доирасида аниқланган маълумотлар норматив-хуқуқий хужжатларни ТСТБдан ўтказишда инобатга олинади.

2-§. Норматив-хуқуқий хужжатларни ТСТБдан ва жамоатчилик муҳокамасидан ўтказиш

52. Ишлаб чиқувчи ТСТБдан ўтказиш режасига мувофиқ норматив-хуқуқий хужжатларни ТСТБдан ўтказади ва натижаси бўйича Адлия вазирлиги томонидан тасдиқланадиган шаклга мувофиқ ТСТБ ҳисботларини тайёрлайди ҳамда ишлаб чиқувчининг биринчи раҳбари (истисно ҳолларда — уларнинг биринчи ўринбосарлари) имзоси билан расмийлаштиради.

53. ТСТБ жараёнида маълумотлар ва далилларни йиғиш, тартибга солиш воситасининг самарадорлиги, шу жумладан унинг натижадорлиги, мақсадларига эришилганлиги ҳамда унинг қўлланилиши натижасида юзага келган ижобий ва салбий оқибатларни аниқлаш мақсадида манфаатдор томонлар билан маслаҳатлашувлар ўтказилиши, шунингдек, соҳа мутахассислари (экспертлари) билан муҳокамалар амалга оширилиши зарур.

54. ТСТБ ҳисботида қўйидаги маълумотлар акс эттирилиши шарт:

норматив-хуқуқий хужжатнинг тури, номи ва реквизитлари;

норматив-хуқуқий хужжатнинг лойиҳаси ишлаб чиқилганда тайёрланган ТСТБ ҳисботи ва ТСТБ натижалари бўйича хulosалар (мавжуд бўлса);

норматив-хуқуқий хужжат манфаатларига таъсир кўрсатган субъектлар тўғрисида маълумотлар;

тартибга солишининг мақсадларига эришилганлиги ва самарадорлиги тўғрисида маълумотлар;

норматив-хуқуқий хужжатдаги тартибга солиш усулини қўллашда юзага келган ижобий ва салбий оқибатлар таҳлили;

манфаатдор томонлар учун норматив-хуқуқий хужжатнинг амал қилиши муносабати билан келтирилган фойда ва (ёки) юзага келган харажатларнинг таҳлили ва таққослаш натижалари;

ижтимоий муносабатларни хуқуқий тартибга солишининг тўлиқлиги, норматив-хуқуқий хужжатлар ўртасида қарама-қаршиликлар мавжудлиги, улардаги бир-бирини такрорловчи ва коллизион нормалар, норматив-хуқуқий хужжатларни қўллашнинг ягона амалиёти мавжудлиги (йўқлиги)га оид маълумотлар;

мурожаатлар сони ва мазмуни (таклифлар, аризалар, шикоятлар), норматив-хуқуқий ҳужжатнинг амал қилиш соҳасидаги қайд этилган хуқуқбузарликларнинг сони ва характеристи, шунингдек, айбор шахсларни жавобгарликка тортиш ҳолатларига оид маълумотлар;

норматив-хуқуқий ҳужжатдаги тартибга солиш усулларининг амал қилиши мақсадга мувофиқлиги ёки уларни бекор қилиш зарурлиги тўғрисида хulos;

бошқа маълумотлар.

55. ТСТБ ҳисботида норматив-хуқуқий ҳужжатнинг амал қилиши муносабати билан келиб чиқсан оқибатнинг ижобий, салбий таъсири ёки таъсири мавжуд эмаслигининг аниқ тавсифи акс эттирилади.

56. ТСТБ ҳисботи ишлаб чиқувчи томонидан Порталга жойлаштирилиши орқали 10 кун муддатда мажбурий тартибда жамоатчилик муҳокамасидан ўтказилади.

57. Жамоатчилик муҳокамаси иштирокчилари томонидан норматив-хуқуқий ҳужжатнинг тартибга солиш таъсирини муқобил баҳолаш амалга оширилиши мумкин. Жамоатчилик муҳокамаси иштирокчилари томонидан ўтказилган норматив-хуқуқий ҳужжатнинг тартибга солиш таъсирини муқобил баҳолаш натижалари бўйича тайёрланган хulosалар тегишли давлат органлари томонидан мажбурий тартибда кўриб чиқилади.

58. Ишлаб чиқувчи жамоатчилик муҳокамаси иштирокчилари ва манфаатдор томонлар томонидан тақдим этилган таклифларни умумлаштиради ва уларни қабул қилиш ёки рад этиш тўғрисида асосланган маълумотни ҳамда мазкур таклифлар асосида қайта ишланган ТСТБ ҳисботини жамоатчилик муҳокамаси муддати якунлангандан сўнг 5 кундан кўп бўлмаган муддатда Порталга жойлаштиради.

Жамоатчилик муҳокамаси иштирокчиларининг таклифларини кўриб чиқиш якунлари бўйича маълумотнома ТСТБ ўтказиш барча жараёнларида ТСТБ ҳисботига илова қилинади.

3-§. ТСТБ ҳисботини хulosса берувчи органлар билан келишиш

59. Жамоатчилик муҳокамаси якунлари бўйича қайта ишланган ТСТБ ҳисботи тегишли соҳага таъсирини ўрганиш учун хulosса берувчи органларга тақдим этилади.

60. ТСТБ ҳисботи:

Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлиги томонидан тадбиркорлик фаолиятига таъсири жиҳатидан;

Ўзбекистон Республикаси Рақобатни ривожлантириш ва истеъмолчилар хуқуқларини ҳимоя қилиш қўмитаси томонидан рақобат муҳитига таъсири жиҳатидан;

Ўзбекистон Республикаси Экология, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва иқлим ўзгариши вазирлиги томонидан атроф-муҳитга таъсири жиҳатидан;

тегишли соҳада давлат сиёсатини юритишга масъул бўлган давлат орган-

лари ва ташкилотлари томонидан фуқароларнинг ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларига таъсири жиҳатидан ўрганилади.

Хулоса берувчи органлар заруратга кўра, ТСТБ ҳисоботини ўзаро муҳокама қилиш орқали биргаликда келишилган хулоса тайёрлашлари мумкин.

61. Хулоса берувчи органлар ТСТБ ҳисоботини ўрганиш жараённида ишлаб чиқувчидан қўшимча маълумотларни сўраб олиш ҳуқуқига эга.

62. ТСТБ натижалари бўйича хулоса берувчи органлар томонидан 10 иш куни мобайнинда ТСТБ натижалари тўғрисида хулосалар расмийлаштирилади ва хулоса берувчи органларнинг биринчи раҳбари (истисно ҳолларда — уларнинг биринчи ўринбосарлари) томонидан имзоланган ҳолда ишлаб чиқувчига тақдим этилади.

4-§. ТСТБ ҳисоботини Адлия вазирлигига киритиш

63. Жамоатчилик муҳокамаси ўтказилгандан ва ТСТБ натижалари бўйича хулосалар олингандан сўнг қайта ишланган ТСТБ ҳисоботи ТСТБ сифатини ўрганиш учун Адлия вазирлигига киритилади.

64. Адлия вазирлиги ишлаб чиқувчи томонидан ушбу Низом талабларига риоя этилганлигини, тартибга солиш мақсадларига эришилганлигини, норматив-хуқуқий ҳужжатдаги тартибга солиш усулини қўллашда юзага келган ижобий ва салбий оқибатларни, манфаатдор томонлар учун асоссиз харажатлар, ортиқча мажбуриятлар, тақиқ ва чекловлар юзага келганлиги (келмаганлиги)ни ўрганади.

65. Адлия вазирлиги ишлаб чиқувчи томонидан ТСТБ жараёнлари ушбу Низом талабларига риоя этилмаган ҳолда ўтказилганлигини аниқлаган тақдирда, ТСТБдан ўтказиш жараёнларида йўл қўйилган камчиликларни бартараф этиш, шунингдек, қўшимча ўрганишларни амалга ошириш учун аниқ муддатни белгилаган ҳолда ТСТБ ҳисоботи ва хулосаларни ишлаб чиқувчига қайтаради.

66. Ишлаб чиқувчи томонидан ТСТБ ҳисоботи ушбу Низом талабларига тўлиқ риоя этилган ҳолда тайёрланган тақдирда, Адлия вазирлиги 10 иш куни мобайнинда тартибга солиш мақсадларига эришилганлиги, норматив-хуқуқий ҳужжатдаги тартибга солиш усулини қўллашда юзага келган ижобий ва салбий оқибатлар, манфаатдор томонлар учун асоссиз харажатлар, ортиқча мажбуриятлар, тақиқ ва чекловлар юзага келганлиги (келмаганлиги) тўғрисида хулоса тайёрлайди ва ишлаб чиқувчига тақдим этади.

5-§. ТСТБ натижалари бўйича якуний маълумотни Вазирлар Маҳкамасига киритиш

67. Адлия вазирлиги ТСТБдан ўтказиш режасига мувофиқ, қоида тарикасида, ҳар чоракда норматив-хуқуқий ҳужжатларнинг ТСТБдан ўтказилиши ҳолатини таҳлил қиласиди ва унинг натижалари бўйича ТСТБдан ўтказиш режасининг бажарилиши ҳолати, ТСТБ ҳисоботларининг умумлашмаси ҳамда қонунчиликни такомиллаштиришга қаратилган таклифларни (мавжуд

бўлса) назарда тутувчи ахборот-таҳлилий маълумотни Вазирлар Маҳкамаси га киритади.

68. Вазирлар Маҳкамаси ахборот-таҳлилий маълумотни кўриб чиқиш якунлари бўйича норматив-хуқуқий ҳужжатларни ТСТБдан ўтказиш натижаларини амалга оширишга қаратилган «йўл харитаси»ни тасдиқлайди ёки тегишли норматив-хуқуқий ҳужжатлар лойиҳаларини ишлаб чиқиш ва белгиланган тартибда Ҳукуматга киритиш юзасидан ваколатли давлат органлари ва ташкилотларига топшириқ беради.

5-боб. ТСТБ ва мониторинг ўтказилишини назорат қилиш

69. ТСТБ ушбу Низом талабларига риоя этилган ҳолда ўтказилиши Адлия вазирлиги томонидан назорат қилинади.

70. Адлия вазирлиги тартибга солиш таъсирини баҳолаш, шу жумладан, мониторинг соҳасидаги фаолиятни мувофиқлаштириш бўйича маҳсус ваколатли орган сифатида қўйидаги вазифаларни амалга оширади:

давлат бошқаруви органлари, маҳаллий ижро этувчи ҳокимият органлари ва бошқа ташкилотларнинг тартибга солиш таъсирини баҳолаш ва мониторинг соҳасидаги фаолиятини мувофиқлаштиради ва уларга услубий ёрдам кўрсатади;

давлат органлари ва ташкилотларининг норматив-хуқуқий ҳужжатлар мониторингини олиб бориш бўйича фаолиятини таҳлил қилиб боради;

давлат органлари ва ташкилотлари томонидан норматив-хуқуқий ҳужжатларни ТСТБ ўтказиш ва мониторинг олиб боришда иштирок этади, шунингдек, даврийлигидан қатъи назар норматив-хуқуқий ҳужжатларни ТСТБ ва мониторингдан ўтказиш ташаббуси билан чиқади;

давлат органлари ва ташкилотларининг тартибга солиш таъсирини баҳолаш ҳамда норматив-хуқуқий ҳужжатлар лойиҳаларини жамоатчилик мухокамасидан ўтказиш бўйича фаолияти мониторингини олиб боради;

жамоатчилик мухокамаси жараёнида норматив-хуқуқий ҳужжатлар лойиҳалари ва қабул қилинган норматив-хуқуқий ҳужжатлар бўйича келиб тушган, асосли деб топилган таклифларга жавоб қайтарилмаган ҳолларда (кўрмасдан қолдирилган) мазкур камчиликларни бартараф этиш тўғрисида давлат органлари ва ташкилотларига бажарилиши мажбурий бўлган тақдимномалар киритади;

давлат органлари ва ташкилотлари томонидан норматив-хуқуқий ҳужжатлар мониторингини олиб бориш якунлари бўйича ўз вақтида тақдим этилмаган, нотўғри, ишончсиз ёки тўлиқ бўлмаган ахборот тақдим этилган тақдирда, уларга мониторингни ўтказишдаги қоидабузарликларни бартараф этиш тўғрисида бажарилиши мажбурий бўлган тақдимномалар киритади;

давлат органлари ва ташкилотларининг тартибга солиш таъсирини баҳолаш учун масъул ходимлари рўйхатини шакллантиради, уларнинг малака ва кўнікмаларини ошириб бориш, шу жумладан улар учун ўқув тадбирларини хорижда ташкил этиш юзасидан таклифлар киритиб боради.

71. Адлия вазирлиги ҳар йили мамлакатда ТСТБ тизимининг ҳолати тўғрисида ахборот тайёрлаб, уни оммавий ахборот воситаларида эълон қила-

ди ҳамда Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ва Вазирлар Махкамасига киритади.

6-боб. Якунловчи қоидалар

72. ТСТБдан ўтказиш жараёнларига илмий-таълим муассасалари мутахассислари, нодавлат нотижорат ташкилотлар ва фуқаролик жамиятининг бошқа институтлари вакиллари, чет эллик мутахассислар, шунингдек, амалиётчи-мутахассислар жалб этилиши мумкин.

Ушбу бандда назарда тутилган чора-тадбирларни молиялаштириш қонунчилик ҳужжатларида тақиқланмаган маблағлар хисобидан амалга оширилади.

73. ТСТБдан ўтказаётган давлат органлари ва ташкилотларининг раҳбарлари ва ТСТБга масъул ходимлари амалга оширилган ҳисоб-китоблар ҳамда тақдим этилган маълумот, хисбот ва хуносаларнинг асосланганлиги ва сифати учун жавобгар ҳисобланади.

74. Мазкур Низом талаблари бузилишида айбдор бўлган шахслар қонунчилик ҳужжатларида белгиланган тартибда жавоб берадилар».

15. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 27 мартағи «Оилавий тадбиркорликни ривожлантириш даструрлари доирасида амалга ошириладиган қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги ПҚ-5041-сон қарори 3-бандининг бешинчи хатбоюси қўйидаги таҳрирда баён этилсин:

«фуқароларга ўзини ўзи банд қиласиган шахслар учун фаолият (ишлар, хизматлар) турлари рўйхатига киритилган фаолиятни амалга ошириш (зарур хомашё, эҳтиёт қисм ҳамда қурилиш молларини сотиб олиш) мақсадида 5 млн сўмгача миқдорида кредит маблағлари нақд пул кўринишида берилади».

Ўзбекистон Республикаси
Президентининг 2024 йил 16 августдаги
ПФ-111-сон Фармонига
3-ИЛОВА

Ўзбекистон Республикаси Президентининг ва Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг ўз кучини ўқотган деб эътироф этилаётган айрим ҳужжатлари РЎЙХАТИ

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 1995 йил 5 январдаги «Хусусий тадбиркорликда ташаббус кўрсатиш ва уни рағбатлантириш тўғрисида»ги ПФ-1030-сон Фармони.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 1997 йил 11 мартағи «Қишлоқ ҳўжалигида ҳисоб-китоблар тизимини такомиллаштиришга оид туб чора-тадбирлар тўғрисида»ги ПФ-1734-сон Фармонининг 4-банди.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 1998 йил 19 ноябрдаги «Хўжалик юритувчи субъектларни текширишни ташкил қилишни тартибга солиш тўғрисида»ги ПФ-2114-сон Фармони.

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2001 йил 14 майдаги «Ўзбекистон Республикаси Президентининг баъзи Фармонларини ўз кучини йўқотган деб хисоблаш тўғрисида»ги ПФ-2841-сон Фармони.

5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2001 йил 19 июндаги «Ўзбекистон Республикаси Президентининг баъзи Фармонларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида»ги ПФ-2886-сон Фармони.

6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2003 йил 24 январдаги «Ўзбекистон иқтисодиётида хусусий секторнинг улуши ва аҳамиятини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПФ-3202-сон Фармонининг 4-банди.

7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2004 йил 21 июлдаги «Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Хусусий тадбиркорликда ташаббус кўрсатиш ва уни рағбатлантириш тўғрисида»ги 1995 йил 5 январдаги ПФ-1030-сон Фармонини айrim қоидаларини ўз кучини йўқотган деб хисоблаш тўғрисида»ги ПФ-3466-сон Фармони.

8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2006 йил 5 майдаги «Микрокредитбанк» акциядорлик тижорат банкини ташкил этиш тўғрисида»ги ПФ-3750-сон Фармонининг 4-банди.

9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2008 йил 24 октябрдаги «Ўзбекистон Республикаси Президентининг баъзи ҳужжатларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш, шунингдек айримларини ўз кучини йўқотган деб хисоблаш тўғрисида»ги ПФ-4045-сон Фармонининг 2-банди иккинчи хатбоси.

10. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2011 йил 4 апрелдаги «Тадбиркорлик субъектларини текширишларни янада қисқартириш ва улар фаолиятини назорат қилишни ташкил этиш тизимини такомиллаштириш борасидаги қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги ПФ-4296-сон Фармони.

11. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2013 йил 28 августдаги «Ўзбекистон Республикаси Президентининг айrim ҳужжатларига қўшимча ва ўзгартишлар киритиш, шунингдек айримларини ўз кучини йўқотган деб хисоблаш тўғрисида»ги ПФ-4561-сон Фармонига 1-илованинг 1 ва 26-бандлари ҳамда 2-илованинг 9-банди.

12. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2013 йил 30 октябрдаги «Ўзбекистон Республикаси Президентининг айrim ҳужжатларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида»ги ПФ-4578-сон Фармонига илованинг 6-банди.

13. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2014 йил 7 апрелдаги «Ўзбекистон Республикасида инвестиция иқлими ва ишбилармонлик муҳитини янада такомиллаштиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги ПФ-4609-сон Фармонига 3-илованинг 4-банди.

14. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2016 йил 31 декабрдаги «Ўзбекистон Республикаси Президентининг баъзи ҳужжатларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш, шунингдек айримларини ўз кучини йўқотган деб хисоблаш тўғрисида»ги ПФ-4910-сон Фармонига 1-илованинг 7-банди.

15. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 27 июндаги

«Ўзбекистон Республикаси Президентининг айрим хужжатларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш, шунингдек баъзиларини ўз кучини йўқотган деб ҳисоблаш тўғрисида»ги ПФ-5097-сон Фармонига 1-илованинг 8-банди.

16. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 11 сентябрдаги «Ўзбекистон Республикаси Президентининг айрим хужжатларига ўзгартишлар киритиш, баъзиларини эса ўз кучини йўқотган, деб ҳисоблаш тўғрисида»ги ПФ-5187-сон Фармонига 1-илованинг 1 ва 4-бандлари.

17. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 18 декабрдаги «Ўзбекистон Республикаси Президентининг айрим хужжатларига ўзгартишлар ва қўшимча киритиш тўғрисида»ги ПФ-5287-сон Фармонига 1-илованинг 3-банди ҳамда 2-илованинг 3-банди.

18. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 5 июндаги «Ўзбекистон Республикаси Президентининг айрим хужжатларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш, шунингдек, баъзиларини ўз кучини йўқотган деб ҳисоблаш тўғрисида»ги ПФ-5456-сон Фармонига 1-илованинг 8-банди.

19. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 27 июлдаги «Тадбиркорлик субъектларининг хукуқлари ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПФ-5490-сон Фармонига 4-илованинг 3 ва 8-бандлари.

20. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 22 февралдаги «Ўзбекистон Республикаси Президентининг айрим хужжатларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш, шунингдек, баъзиларини ўз кучини йўқотган деб ҳисоблаш тўғрисида»ги ПФ-5668-сон Фармонига 2-илованинг 2 ва 3-бандлари.

21. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 ноябрдаги «Ўзбекистон Республикаси Президентининг айрим хужжатларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш, шунингдек, баъзиларини ўз кучини йўқотган деб ҳисоблаш тўғрисида»ги ПФ-5870-сон Фармонига 1-илованинг 8-банди.

22. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 10 декабрдаги «Ўзбекистон Республикаси Президентининг айрим хужжатларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш, шунингдек, баъзиларини ўз кучини йўқотган деб ҳисоблаш тўғрисида»ги ПФ-5892-сон Фармонига 1-илованинг 2-банди.

23. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 12 декабрдаги «Ўзбекистон Республикаси Президенти ва Ҳукуматининг айрим хужжатларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш, шунингдек, баъзиларини ўз кучини йўқотган деб ҳисоблаш тўғрисида»ги ПФ-5893-сон Фармонига 2-илованинг 4-банди.

24. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 27 сентябрдаги «Ўз аҳамиятини йўқотган қонунчилик хужжатларини қайта кўриб чиқиш тизимини жорий этиш орқали мамлакатда ишбилармонлик мухитини яхшилаш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПФ-6075-сон Фармонига 1-илованинг 139-банди.

25. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 17 мартағи ПФ-89-сон «Фуқароларнинг хукуқ ва эркинликларини таъминлаш ҳамда хукуқий хизмат кўрсатишда адлия органлари ва муассасалари фаолияти

самарадорлигини янада ошириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Фармонига 2-илованинг 27-банди.

26. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 30 январдаги «Ўзбекистон Республикаси Президентининг айрим ҳужжатларига ўзгартиришлар киритиш тўғрисида»ги ПФ-15-сон Фармонига илованинг 11-банди.

27. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2005 йил 14 мартағи «2005-2006 йилларда корхоналарни давлат тасарруфидан чиқариш ва хусусийлаштириш дастури тўғрисида»ги ПҚ-29-сон қарорига 4-илованинг 1-банди.

28. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2005 йил 28 июндан «Жамғарib бориладиган пенсия тизимини такомиллаштириш ва техника билан жиҳозлаш борасидаги қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги ПҚ-110-сон қарори.

29. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2005 йил 27 декабрдаги «Ўзбекистон Республикасининг 2006 йилги асосий макроиқтисодий кўрсаткичлари прогнози ва давлат бюджети параметрлари тўғрисида»ги ПҚ-244-сон қарорига 30-илованинг 5-банди.

30. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2006 йил 28 февралдаги «Тошкент шахри ва Тошкент вилоятида йўловчилар ташиш хавфсизлигини таъминлашга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги ПҚ-294-сон қарори.

31. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2006 йил 21 июндан «Баъзи Республика комиссиялари ва кенгашлари таркиблари ҳамда уларнинг фаолиятини ташкил этиш масалалари тўғрисида»ги ПҚ-423-сон қарорига 5-илованинг 6-банди.

32. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2006 йил 31 августдаги «Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги ҳузуридаги Суд қарорларини ижро этиш, судлар фаолиятини моддий-техника жиҳатидан ва молиявий таъминлаш департаменти фаолиятини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-458-сон қарорининг 9-банди учинчи хатбошиси.

33. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2007 йил 12 декабрдаги «Ўзбекистон Республикасининг 2008 йилги асосий макроиқтисодий кўрсаткичлари ва давлат бюджети параметрлари тўғрисида»ги ПҚ-744-сон қарорига 30-илованинг 2-банди.

34. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2009 йил 28 январдаги «Махаллий ноозик-овқат истеъмол товарлари ишлаб чиқариш кенгайтирилишини рағбатлантириш борасидаги қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги ПҚ-1050-сон қарори.

35. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2010 йил 2 мартағи «Ўзбекистон Республикаси Монополиядан чиқариш ва рақобатни ривожлантириш давлат қўмитасининг фаолиятини ташкил этиш тўғрисида»ги ПҚ-1293-сон қарори.

36. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2011 йил 30 декабрдаги «Ўзбекистон Республикасининг 2012 йилги асосий макроиқтисодий кўрсаткичлари прогнози ва Давлат бюджети параметрлари тўғрисида»ги ПҚ-1675-

сон қарорига 27-илованинг 5-банди, 32-илованинг 7-банди хамда 33-илованинг 9-банди.

37. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2012 йил 25 декабрдаги «Ўзбекистон Республикасининг 2013 йилги асосий макроиқтисодий кўрсаткичлари прогнози ва Давлат бюджети параметрлари тўғрисида»ги ПҚ-1887-сон қарорига 35-илованинг 5-банди.

38. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2013 йил 23 майдаги «Қишлоқ хўжалиги техника ва технологиялари синаш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-1972-сон қарорига 3-илованинг 1-банди.

39. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2013 йил 25 декабрдаги «Ўзбекистон Республикасининг 2014 йилги асосий макроиқтисодий кўрсаткичлари прогнози ва Давлат бюджети параметрлари тўғрисида»ги ПҚ-2099-сон қарорига 34-илованинг 1-банди учинчи хатбошиси хамда 36-илованинг 10-банди.

40. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2014 йил 4 декабрдаги «Ўзбекистон Республикасининг 2015 йилги асосий макроиқтисодий кўрсаткичлари прогнози ва Давлат бюджети параметрлари тўғрисида»ги ПҚ-2270-сон қарорига 36-илованинг 16-банди.

41. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2015 йил 22 декабрдаги «Ўзбекистон Республикасининг 2016 йилги асосий макроиқтисодий кўрсаткичлари прогнози ва Давлат бюджети параметрлари тўғрисида»ги ПҚ-2455-сон қарорига 36-илованинг 4-банди.

42. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2016 йил 19 сентябрдаги «Мева-сабзавот, узум ва полиз маҳсулотларини экспорт қилишни рафбатлантиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги ПҚ-2603-сон қарори.

43. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2016 йил 21 декабрдаги «2017 — 2019 йилларда тўқимачилик ва тикув-трикотаж саноатини янада ривожлантириш чора-тадбирлари дастури тўғрисида»ги ПҚ-2687-сон қарорига 8-илованинг 3-банди.

44. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2016 йил 23 декабрдаги «Ўзбекистон Республикасининг 2017 йилги Инвестиция дастури тўғрисида»ги ПҚ-2697-сон қарори.

45. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 18 марта ги «Молия органлари фаолиятини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-2847-сон қарорига 8-илованинг 10, 14 ва 16-бандлари.

46. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 апрелдаги «2017 йилда ижтимоий обьектларни қуриш, реконструкция қилиш ва капитал таъмиrlашни ташкил этиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги ПҚ-2873-сон қарорининг 11-банди иккинчи хатбошиси.

47. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 23 августдаги «Судлар ва адлия органлари фаолиятини моддий-техник ва молиявий таъминлаш тартибини такомиллаштириш тўғрисида»ги ПҚ-3240-сон қарорига 2-илованинг 6 ва 19-бандлари.

48. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 21 июндаги

«Халқаро молия институтлари ва донер мамлакатлар иштирокидаги инвестиция лойиҳаларини бошқариш механизмини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-3796-сон қарори.

49. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 18 сентябрдаги «Ўзбекхиммаш заводи» АЖ негизида янги қуюв цехи қуриш билан қуюв ишлаб чиқаришини модернизациялаш» инвестиция лойиҳасини амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-3944-сон қарори.

50. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 2 ноябрдаги «Хукуқий мониторингнинг замонавий механизмлари асосида қонун хужжатлари ижросининг самарадорлигини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-4505-сон қарори.

51. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 15 апрелдаги «Коронавирус пандемияси даврида Ўзбекистон Республикаси Давлат бюджети барқарорлигини таъминлаш ва биринчи навбатдаги тадбирларни ўз вақтида молиялаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-4679-сон қарори.

52. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 26 августдаги «Аҳолини ижтимоий қўллаб-қувватлашга қаратилган қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-4815-сон қарори.

53. Вазирлар Маҳкамасининг 1993 йил 15 мартағи «Республика чорвачилигига иқтисодий ислоҳотни чукурлаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 137-сон қарори.

54. Вазирлар Маҳкамасининг 1993 йил 17 июнданги «Ўзбекистон фармацевтика саноати («Ўзфармсаноат») давлат-акционерлик концернини ташкил қилиш ва унинг фаолияти масалалари тўғрисида»ги 290-сон қарори.

55. Вазирлар Маҳкамасининг 1994 йил 29 апрелдаги «Республика кўчмас мулк биржасининг самарали фаолиятни кўрсатишини таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 228-сон қарори.

56. Вазирлар Маҳкамасининг 1995 йил 8 апрелдаги «Қимматбаҳо металлар, қимматбаҳо тошлар ва валюта бойликлари сақланиши таъминланмаганлиги ва улардан тўғри фойдаланилмаганлиги учун юридик ва жисмоний шахсларнинг жавобгарлигини кучайтириш тўғрисида»ги 124-сон қарори.

57. Вазирлар Маҳкамасининг 1995 йил 19 апрелдаги «Супермаркетлар шоҳобчаларини ташкил этиш ва кенгайтириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 135-сон қарори.

58. Вазирлар Маҳкамасининг 1995 йил 25 майдаги «Доривор воситалар, тиббий буюмлар ва даволаш-профилактика озиқ-овқатлари сифати устидан давлат назоратини ташкил этиш тўғрисида»ги 181-сон қарори.

59. Вазирлар Маҳкамасининг 1995 йил 12 октябрдаги «Аҳолига майший хизмат кўрсатиш корхоналари фаолиятини барқарорлаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 399-сон қарорининг 3, 4, 5, 7, 9 ва 10-бандлари ҳамда 3-4-иловалари.

60. Вазирлар Маҳкамасининг 1996 йил 10 декабрдаги «Болали оиласларни ижтимоий қўллаб-қувватлашни кучайтириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 437-сон қарори.

61. Вазирлар Маҳкамасининг 1998 йил 3 февралдаги «Ўзбекистон Республикаси қонунчилик тўплами, 2024 й.

ликаси Ҳукуматининг қарорларини ўз кучини тўлиқ ва қисман йўқотган деб ҳисоблаш ҳамда айрим қарорларига ўзгартиришлар ва қўшимчалар киритиш тўғрисида»ги 55-сон қарорига 1-илованинг 9-банди.

62. Вазирлар Маҳкамасининг 1998 йил 27 майдаги «Кичик тадбиркорликни ривожлантиришни рафбатлантириш механизмини такомиллаштириш тўғрисида»ги 232-сон қарорининг 1, 4, 5, 8, 9 ва 10-бандлари ҳамда 1-иловаси.

63. Вазирлар Маҳкамасининг 1998 йил 30 июндаги «Давлат тасарруфидан чиқариш ва хусусийлаштириш жараёнида ташкил этилган акциядорлик жамиятлари устав жамғармасидаги давлат улуши тўғрисида»ги 272-сон қарорига 2-илованинг 13-банди.

64. Вазирлар Маҳкамасининг 1998 йил 4 сентябрдаги «Бозорларда сифатсиз озиқ-овқат товарлари сотилишини бартараф этиш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 378-сон қарори.

65. Вазирлар Маҳкамасининг 1999 йил 9 апрелдаги «Хорижий инвестициялар иштирокида устувор инвестиция лойиҳаларини амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 165-сон қарори.

66. Вазирлар Маҳкамасининг 2000 йил 4 мартағи «Фермерларни, хусусий тадбиркорларни ҳамда кичик бизнес бошқа субъектларини қўллаб-куватлаш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 75-сон қарори.

67. Вазирлар Маҳкамасининг 2001 йил 22 июндаги «Валюта бозорини янада эркинлаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 263-сон қарори.

68. Вазирлар Маҳкамасининг 2001 йил 27 июндаги «Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг айрим қарорларига ўзгартиришлар ва қўшимчалар киритиш тўғрисида»ги 276-сон қарорига илованинг 15-банди.

69. Вазирлар Маҳкамасининг 2001 йил 10 сентябрдаги «Кичик корхоналар, дехқон ва фермер хўжаликларини маблағ билан таъминлаш, моддий-техник таъминлаш, уларга божхона имтиёzlари бериш, банк хизматлари ва бошқа хизматлар кўрсатиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги 366-сон қарори.

70. Вазирлар Маҳкамасининг 2002 йил 5 январдаги «Қишлоқ хўжалиги корхоналарини фермер хўжаликларига айлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 8-сон қарори.

71. Вазирлар Маҳкамасининг 2002 йил 26 мартағи «Давлат тасарруфидан чиқариш ва хусусийлаштириш дастурлари амалга оширилишини, хорижий инвестицияларни жалб этиш фаоллаштирилишини таъминлашга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги 97-сон қарори.

72. Вазирлар Маҳкамасининг 2002 йил 4 декабрдаги «Банкларнинг кредитлари бўйича қарздорлик ўз вақтида қайтарилмаган тақдирда ундирувни қарздорларнинг ликвидли мол-мулкига қаратиш тартибини тасдиқлаш тўғрисида»ги 422-сон қарори.

73. Вазирлар Маҳкамасининг 2002 йил 4 декабрдаги «Дон тайёрлаш ва нон маҳсулотлари ишлаб чиқариш тизимида харажатларни қисқартириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 424-сон қарори.

74. Вазирлар Маҳкамасининг 2003 йил 4 февралдаги «Пул-кредит кўр-

саткичларини тартибга солиш механизмини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 63-сон қарори.

75. Вазирлар Маҳкамасининг 2003 йил 16 июлдаги «Лотереялар ташкил этиш фаолиятини лицензиялаш тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида»ги 314-сон қарори.

76. Вазирлар Маҳкамасининг 2003 йил 5 августдаги «Электр ва иссиқлик энергияси учун ҳисоб-китоб қилиш интизомини кучайтириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 341-сон қарори.

77. Вазирлар Маҳкамасининг 2003 йил 21 августдаги «Транспорт соҳасидаги фаолиятнинг айрим турларини лицензиялаш тўғрисидаги низомларни тасдиқлаш ҳақида»ги 360-сон қарори.

78. Вазирлар Маҳкамасининг 2003 йил 1 октябрдаги «Валюта операцияларини янада эркинлаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 420-сон қарорига илованинг 6-банди.

79. Вазирлар Маҳкамасининг 2003 йил 2 октябрдаги «Республика газ таъминотини бошқариш тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 421-сон қарори.

80. Вазирлар Маҳкамасининг 2003 йил 23 октябрдаги «Капитал қурилишда ижара ва лизинг хизматлари тизимини жорий этиш тўғрисида»ги 462-сон қарори.

81. Вазирлар Маҳкамасининг 2003 йил 24 октябрдаги «Капитал қурилишда нархларни шакллантиришнинг смета-норматив базасини такомиллаштириш ва янгилаш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 463-сон қарори.

82. Вазирлар Маҳкамасининг 2004 йил 8 январдаги «Ўзбекистон-Турция «Бурсел-Тошкент текстил» қўшма корхонаси фаолиятини ташкил этиш тўғрисида»ги 8-сон қарори.

83. Вазирлар Маҳкамасининг 2004 йил 15 январдаги «Спирт ва алкоголи маҳсулотлар ишлаб чиқариш ва сотиш устидан давлат назоратини кучайтиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги 24-сон қарори.

84. Вазирлар Маҳкамасининг 2004 йил 17 январдаги «Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг айрим қарорларига ўзгартиришлар киритиш тўғрисида»ги 28-сон қарорига илованинг 13 ва 25-бандлари.

85. Вазирлар Маҳкамасининг 2004 йил 12 марта «Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг айрим қарорларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида»ги 121-сон қарорига илованинг 6-банди.

86. Вазирлар Маҳкамасининг 2004 йил 10 июлдаги «Саноатда, кончиликда ва коммунал-маиший секторда ишларнинг бехатар олиб борилишини назорат қилиш давлат инспекцияси фаолиятини ташкил этиш тўғрисида»ги 323-сон қарори.

87. Вазирлар Маҳкамасининг 2004 йил 6 августдаги «Ўзданмаҳсулот» давлат-акциядорлик корпорациясини «Ўзданмаҳсулот» акциядорлик компаниясига айлантириш тўғрисида»ги 376-сон қарорига 5-илованинг 3-банди.

88. Вазирлар Маҳкамасининг 2004 йил 16 августдаги «Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг айрим қарорларига ўзгартиришлар киритиш тўғрисида»ги 397-сон қарорига илованинг 2-банди.

89. Вазирлар Маҳкамасининг 2004 йил 23 августдаги «Автомобиль саноатини бошқариш тузилмасини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 405-сон қарори.

90. Вазирлар Маҳкамасининг 2004 йил 1 ноябрдаги «Электр энергияси сотилиши ҳамда ундан фойдаланилишини ҳисобга олиш ва назорат қилиш тизимини мустаҳкамлаш юзасидан қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги 512-сон қарори.

91. Вазирлар Маҳкамасининг 2004 йил 24 декабрдаги «2005 — 2007 йилларда фермер хўжаликларини жадал ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 607-сон қарорига 5-илованинг 1-банди.

92. Вазирлар Маҳкамасининг 2005 йил 22 январдаги «Ўзбекистон Республикаси ҳукуматининг айрим қарорларига ўзгартиришлар киритиш тўғрисида»ги 28-сон қарорига илованинг 6-банди.

93. Вазирлар Маҳкамасининг 2005 йил 2 марта даги «Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг айрим қарорларини ўз кучини йўқотган деб ҳисоблаш ва баъзиларига ўзгартиришлар киритиш тўғрисида»ги 79-сон қарорига илованинг 1-банди.

94. Вазирлар Маҳкамасининг 2006 йил 6 майдаги «Микрокредитбанк» акциядорлик-тижорат банки фаолиятини ташкил этиш ва унинг моддий-техника базасини мустаҳкамлаш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 78-сон қарори.

95. Вазирлар Маҳкамасининг 2006 йил 9 октябрдаги «Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг айрим қарорларига ўзгартиришлар киритиш тўғрисида (Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон «Ўзкоммунхизмат» агентлиги фаолиятини такомиллаштириш ва коммунал хўжалик корхоналарини молиявий соғломлаштириш чора-тадбирлари тўғрисида» 2006 йил 17 августдаги ПҚ-445-сон қарори)»ги 213-сон қарорига илованинг 7 ва 11-бандлари.

96. Вазирлар Маҳкамасининг 2006 йил 10 ноябрдаги «Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг айрим қарорларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш, шунингдек баъзиларини ўз кучини йўқотган деб ҳисоблаш тўғрисида («Тадбиркорлик субъектларини ҳуқуқий ҳимоя қилиш тизими такомиллаштирилганлиги ҳамда уларнинг молиявий жавобгарлиги эркинлаштирилганлиги муносабати билан Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун хужжатларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида» Ўзбекистон Республикасининг 2006 йил 10 октябрдаги ЎРҚ-59-сон Қонуни)»ги 235-сон қарорига 1-илованинг 44-банди.

97. Вазирлар Маҳкамасининг 2007 йил 8 майдаги «Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Аҳоли бандлигини ошириш ҳамда меҳнат ва аҳолини ижтимоий муҳофаза қилиш органлари фаолиятини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида» 2007 йил 6 апрелдаги ПҚ-616-сон қарорини амалга ошириш чора-тадбирлари ҳақида»ги 95-сон қарорига 2-илованинг 5-банди.

98. Вазирлар Маҳкамасининг 2008 йил 17 декабрдаги «Вазирлар Маҳкамасининг «Микрокредитбанк» акциядорлик-тижорат банки фаолиятини ташкил этиш ва унинг моддий-техника базасини мустаҳкамлаш чора-тадбирлари тўғрисида» 2006 йил 6 майдаги 78-сон қарорига ўзгартириш ва қўшимчачи

лар киритиш хақида (Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Микрокредитбанк» акциядорлик-тижорат банкининг тадбиркорлик субъектларини қўллаб-қувватлаш борасидаги фаолиятини янада кенгайтириш чора-тадбирлари тўғрисида» 2008 йил 10 ноябрдаги ПФ-4051-сон Фармони)»ги 273-сон қарори.

99. Вазирлар Маҳкамасининг 2008 йил 31 декабрдаги «Экспорт қилувчи корхоналарни молиявий ва кредит йўли билан қўллаб-қувватлашга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги 290-сон қарори.

100. Вазирлар Маҳкамасининг 2009 йил 20 майдаги «Ўзбекистон Республикаси ҳукуматининг айрим қарорларига ўзгартиришлар киритиш, шунингдек баъзиларини ўз кучини йўқотган деб ҳисоблаш тўғрисида»ги 142-сон қарорига 1-илованинг 11-банди.

101. Вазирлар Маҳкамасининг 2009 йил 23 декабрдаги «Алкоголли махсулотлар учун энг кам улгуржи-сотиш ва чакана нархларни жорий этиш тўғрисида»ги 327-сон қарори.

102. Вазирлар Маҳкамасининг 2010 йил 7 апрелдаги «Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг айрим қарорларига ўзгартиришлар киритиш тўғрисида (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг «Электр ва иссиқлик энергиясидан фойдаланиш қоидаларини тасдиқлаш тўғрисида» 2009 йил 22 августдаги 245-сон қарори)»ги 66-сон қарорига илованинг 1-банди.

103. Вазирлар Маҳкамасининг 2010 йил 5 июндаги «Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг вазирликлар, давлат қўмиталари ва идоралар тўғрисидаги низомларни тасдиқлаш бўйича айрим қарорларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш хақида»ги 108-сон қарорига илованинг 4-банди.

104. Вазирлар Маҳкамасининг 2010 йил 16 августдаги «Республиканинг олий таълим муассасаларини молиялаштириш тартибини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 178-сон қарори.

105. Вазирлар Маҳкамасининг 2010 йил 3 декабрдаги «Автомототранспорт воситалари учун рўйхатдан ўтказиш давлат рақами белгиларининг янги намуналарини босқичма-босқич жорий этиш муддатларини узайтириш тўғрисида»ги 284-сон қарори.

106. Вазирлар Маҳкамасининг 2011 йил 18 февралдаги «Ўзбекистон Республикаси ҳукуматининг айрим қарорларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида («Қишлоқ ва сув хўжалигида иқтисодий ислоҳотлар чукурлаштирилганлиги муносабати билан Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун хужжатларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида» Ўзбекистон Республикасининг 2009 йил 25 декабрдаги ЎРҚ-240-сон Қонуни)»ги 40-сон қарорига илованинг 2-банди.

107. Вазирлар Маҳкамасининг 2012 йил 1 февралдаги «Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг айрим қарорларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида (Ўзбекистон Республикасининг «Фаолиятнинг айрим турларини лицензиялаш тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Қонунига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш хақида» 2011 йил 7 сентябрдаги ЎРҚ-292-сон Қонуни)»ги 26-сон қарорига илованинг 9-банди.

108. Вазирлар Маҳкамасининг 2012 йил 16 марта «Чет элда кўргаз-

ма-ярмарка фаолиятини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»-ги 73-сон қарори.

109. Вазирлар Маҳкамасининг 2012 йил 29 майдаги «Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг айрим қарорларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш, шунингдек баъзиларини ўз кучини йўқотган деб ҳисоблаш тўғрисида»ги 148-сон қарорига илованинг 1-банди.

110. Вазирлар Маҳкамасининг 2012 йил 28 августдаги «Бозорлар ва савдо комплекслари фаолиятини тартибга солишга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги 253-сон қарорига 3-илованинг 1-банди.

111. Вазирлар Маҳкамасининг 2012 йил 1 ноябрдаги «Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг айрим қарорларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш, шунингдек баъзиларини ўз кучини йўқотган деб ҳисоблаш тўғрисида (Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Статистик, солиқ ва молиявий ҳисботларни, лицензияланадиган фаолият турларини ва рухсат бериш тартиб-таомилларини тубдан қисқартириш чора-тадбирлари тўғрисида» 2012 йил 16 июлдаги ПФ-4453-сон Фармони)»ги 313-сон қарорига 1-илованинг 38-банди ва 2-илованинг 13-банди.

112. Вазирлар Маҳкамасининг 2012 йил 29 декабрдаги «Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг айрим қарорларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш, шунингдек баъзиларини ўз кучини йўқотган деб ҳисоблаш тўғрисида (Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистонда фермерлик фаолиятини ташкил қилишни янада такомиллаштириш ва уни ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида» 2012 йил 22 октябрдаги ПФ-4478-сон Фармони)»ги 369-сон қарорига 1-илованинг 4-банди.

113. Вазирлар Маҳкамасининг 2013 йил 7 мартағи «Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг айрим қарорларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш, шунингдек баъзиларини ўз кучини йўқотган деб ҳисоблаш тўғрисида»-ги 69-сон қарори.

114. Вазирлар Маҳкамасининг 2013 йил 31 декабрдаги «Четдан олиб киришда божхона тўловларидан (божхонада расмийлаштириш йиғимларидан ташқари) озод қилинадиган янги тиббий техника, тиббий техникага бутловчи буюмлар, эҳтиёт қисмлар ва сарфлаш материаллари рўйхатини тасдиқлаш тўғрисида»ги 356-сон қарори.

115. Вазирлар Маҳкамасининг 2014 йил 27 мартағи «Тижорат банкларининг инвестиция фаолиятини рағбатлантиришга ва банклар томонидан корхоналарни янги инвесторларга сотишни жадаллаштиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги 71-сон қарори.

116. Вазирлар Маҳкамасининг 2014 йил 6 октябрдаги «Давлат мулки обьектларини хусусийлаштириш тартиби тўғрисидаги низомларни тасдиқлаш ҳақида»ги 279-сон қарорига 8-илованинг 2-банди.

117. Вазирлар Маҳкамасининг 2014 йил 4 декабрдаги «Ўзбекистон Республикаси Саноат хавфсизлиги давлат қўмитасининг ҳарбийлаштирилган кон-қутқарув қисми тўғрисида»ги ва «Ўзбекнефтгаз» миллий холдинг компаниясининг очиқ нефть ва газ фаввораларининг олдини олиш ҳамда уларни бартараф этиш бўйича Ўзбекистон ҳарбийлаштирилган

қисми тўғрисида»ги низомларни тасдиқлаш хақида»ги 332-сон қарорига 3-илованинг 3-банди.

118. Вазирлар Маҳкамасининг 2016 йил 27 февралдаги «Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг айрим қарорларига ўзгартиришлар киритиш, шунингдек баъзиларини ўз кучини йўқотган деб ҳисоблаш тўғрисида (Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикаси Ташки иқтисодий алоқалар, инвестициялар ва савдо вазирлигининг тузилмасини мақбуллаштириш ва унинг фаолияти самарадорлигини янада ошириш чора-тадбирлари тўғрисида» 2015 йил 31 декабрдаги ПҚ-2463-сон қарори)»ги 57-сон қарорига илованинг 10-банди.

119. Вазирлар Маҳкамасининг 2016 йил 12 апрелдаги «Ўзбекистон Республикасига олиб кирилаётганда божхона тўловларидан озод қилинадиган наслли маҳсулотлар, технологик ва ёрдамчи асбоб-ускуналар, комбикорм ва қўшимча ем ишлаб чиқариш учун компонентлар, шунингдек пайвандтаг, қўчатлар ва томчилатиб сугориш тизими учун асбоб-ускуналар рўйхатини тасдиқлаш тўғрисида»ги 110-сон қарори.

120. Вазирлар Маҳкамасининг 2016 йил 26 апрелдаги «Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг айрим қарорларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш, шунингдек баъзиларини ўз кучини йўқотган деб ҳисоблаш тўғрисида (Ўзбекистон Республикасининг «Ўзбекистон Республикасининг Бюджет кодексини тасдиқлаш тўғрисида» 2013 йил 26 декабрдаги ЎРҚ-360-сон ҳамда «Солиқ ва бюджет сиёсатининг 2016 йилга мўлжалланган асосий йўналишлари қабул қилинганлиги муносабати билан Ўзбекистон Республикасининг Солиқ кодексига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида» 2015 йил 31 декабрдағи ЎРҚ-398-сон қонунлари)»ги 122-сон қарорига 1-илованинг 56-банди.

121. Вазирлар Маҳкамасининг 2016 йил 15 июндаги «Янги мева-сабзавот маҳсулотлари, картошка, полиз маҳсулотлари ва узум харид қилиш юзасидан давлат буюртмаси тўғрисидаги низомни тасдиқлаш хақида»ги 206-сон қарори.

122. Вазирлар Маҳкамасининг 2016 йил 20 июндаги «Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг айрим қарорларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш, шунингдек баъзиларини ўз кучини йўқотган деб ҳисоблаш тўғрисида (Ўзбекистон Республикасининг «Ўзбекистон Республикасининг Божхона кодексини тасдиқлаш тўғрисида» 2016 йил 20 январдаги ЎРҚ-400-сон ҳамда «Ўзбекистон Республикасининг Божхона кодекси қабул қилиниши муносабати билан Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига ўзгартишлар киритиш, шунингдек баъзиларини ўз кучини йўқотган деб топиш тўғрисида» 2016 йил 20 январдаги ЎРҚ-401-сон қонунлари)»ги 211-сон қарорига 1-илованинг 7 ва 8-бандлари.

123. Вазирлар Маҳкамасининг 2016 йил 15 сентябрдаги «Сурхондарё вилоятида бўш турган давлат мулки обьектларидан келгусида янада самарали фойдаланиш, уларга салоҳиятли инвесторларни жалб этиш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 300-сон қарори.

124. Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 13 мартағи «Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг айрим қарорларига ўзгартириш ва қўшимчалар

киритиши тўғрисида (Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Аҳолининг ҳожатманд қатламларини ижтимоий қўллаб-қувватлаш ҳамда тиббий-ижтимоий ёрдам кўрсатиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида» 2016 йил 22 февралдаги ПФ-4782-сон Фармони ҳамда Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикаси Мехнат вазирлиги фаолиятини ташкил этишини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида» 2016 йил 24 февралдаги ПҚ-2498-сон қарори)»ги 130-сон қарорига 1-илованинг 4-банди.

125. Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 5 апрелдаги «2017-2018 йилларда Сурхондарё вилоятида саноат, қишлоқ хўжалиги ва хизмат кўрсатиш лойиҳаларининг кўрсаткичларини тасдиқлаш тўғрисида»ги 182-сон қарорининг 11-банди.

126. Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 6 апрелдаги «Дори воситалари ва фармацевтика фаолияти тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Қонунига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиши ҳақида» 2016 йил 4 январдаги ЎРҚ-399-сон Ўзбекистон Республикаси Қонунини амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 185-сон қарорига 4-илованинг 11-банди.

127. Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 13 апрелдаги «Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг айrim қарорларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиши, шунингдек баъзиларини ўз кучини йўқотган деб ҳисоблаш тўғрисида (Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикасининг туризм соҳасини жадал ривожлантиришни таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида» 2016 йил 2 декабрдаги ПФ-4861-сон Фармони ва Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикаси Туризмни ривожлантириш давлат қўмитаси фаолиятини ташкил этиш тўғрисида» 2016 йил 2 декабрдаги ПҚ-2666-сон қарори)»ги 207-сон қарорига 1-илованинг 5-банди.

128. Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 28 июндаги «Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг айrim қарорларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиши, шунингдек баъзиларини ўз кучини йўқотган деб ҳисоблаш тўғрисида (Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзгартотехсаноатхолдинг» акциядорлик жамиятини ташкил этиш тўғрисида» 2016 йил 17 ноябрдаги ПФ-4857-сон Фармони, Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзгартотехсаноатхолдинг» акциядорлик жамияти фаолиятини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида» 2016 йил 16 ноябрдаги ПҚ-2658-сон қарори)»ги 442-сон қарорига илованинг 3-банди.

129. Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 17 июлдаги «Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг айrim қарорларига ўзгартиришлар киритиши тўғрисида»ги 504-сон қарорига илованинг 1-банди.

130. Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 16 августдаги «Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг айrim қарорларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиши, шунингдек баъзиларини ўз кучини йўқотган деб ҳисоблаш тўғрисида (Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикаси Хусусийлаштирилган корхоналарга қўмаклашиш ва рақобатни ривожлантириш давлат қўмитасини ташкил этиш тўғрисида» 2017 йил 18 апрелдаги ПФ-5016-сон Фармони)»ги 638-сон қарорига 1-илованинг 43-банди.

131. Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 22 августдаги «Кичик тадбиркорлик субъектларига микромолиявий ёрдам кўрсатиш, янги иш ўринлари ташкил этиш ва кам таъминланган оиласаларга микромолиявий хизматлар кўрсатиши нazarда тутадиган лойиҳаларни молиялаштиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги 655-сон қарорининг 8-банди ва қарорга З-илова.

132. Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 8 сентябрдаги «Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг айрим қарорларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида (Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Бандлик соҳасида давлат сиёсатини янада такомиллаштириш ва меҳнат органлари фаолияти самарадорлигини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида» 2017 йил 24 майдаги ПФ-5052-сон Фармони, Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикаси Бандлик ва меҳнат муносабатлари вазирлиги фаолиятини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида» 2017 йил 24 майдаги ПҚ-3001-сон қарори)»ги 703-сон қарорига илованинг 9-банди.

133. Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 26 декабрдаги «Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг айрим қарорларига ўзгартиришлар киритиш тўғрисида (Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Фермер, дехқон хўжаликлари ва томорқа ер эгаларининг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш, қишлоқ хўжалиги экин майдонларидан самарали фойдаланиш тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида» 2017 йил 9 октябрдаги ПФ-5199-сон Фармони)»ги 1021-сон қарорига илованинг 4 ва 5-бандлари.

134. Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 8 январдаги «Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг айрим қарорларига ўзгартиришлар киритиш, шунингдек баъзиларини ўз кучини йўқотган деб ҳисоблаш тўғрисида (Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Валюта сиёсатини либераллаштириш бўйича биринчи навбатдаги чора-тадбирлар тўғрисида» 2017 йил 2 сентябрдаги ПФ-5177-сон Фармони ҳамда Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Республика банк тизимини янада ривожлантириш ва барқарорлигини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида» 2017 йил 12 сентябрдаги ПҚ-3270-сон қарори)»ги 16-сон қарорига 1-илованинг 5-банди.

135. Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 19 январдаги «Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг айрим қарорларига ўзгартиришлар киритиш, шунингдек, баъзиларини ўз кучини йўқотган деб ҳисоблаш тўғрисида («Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш, шунингдек, айрим қонун ҳужжатларини ўз кучини йўқотган деб топиш тўғрисида» 2017 йил 14 сентябрдаги ЎРҚ-446-сон Ўзбекистон Республикасининг Қонуни)»ги 34-сон қарорига 1-илованинг 7 ва 13-бандлари.

136. Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 26 январдаги «Вазирлар Маҳкамасининг «Ўзбекистон Республикасига олиб кирилаётганда божхона божларидан озод қилинадиган наслли маҳсулотлар, технологик ва ёрдамчи асбобускуналар, комбикорм ва қўшимча ем ишлаб чиқариш учун компонентлар, шунингдек пайвандтаг, кўчатлар ва томчилатиб суфориш тизими учун асбобускуналар рўйхатини тасдиқлаш тўғрисида» 2016 йил 12 апрелдаги 110-сон қарорига ўзгартиришлар киритиш хақида»ги 60-сон қарори.

137. Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 30 январдаги «Жисмоний шахслар томонидан Ўзбекистон Республикаси нақд валютаси ва нақд чет эл валютасини Ўзбекистон Республикасининг божхона чегараси орқали олиб кириш ва олиб чиқиб кетиш қоидаларини тасдиқлаш хақида»ги 66-сон қарорига 2-илованинг 3-банди.

138. Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 9 февралдаги «Ўзбекистон Республикаси Ташқи иқтисодий фаолият миллий банки корхоналари ва мулкини сотишни жадаллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 104-сон қарорининг 4-банди.

139. Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 26 апрелдаги «Вазирлар Маҳкамасининг «Болали оиласларни ижтимоий қўллаб-қувватлашни кучайтириш чора-тадбирлари тўғрисида» 1996 йил 10 декабрдаги 437-сон қарорининг 2-бандига ўзгартириш киритиш хақида»ги 306-сон қарори.

140. Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 3 майдаги «Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг айрим қарорларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш, шунингдек, баъзиларини ўз кучини йўқотган деб хисоблаш тўғрисида (Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ички ишлар органларининг фаолияти самарадорлигини тубдан ошириш, жамоат тартибини, фуқаролар ҳукуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларини ишончли ҳимоя қилишни таъминлашда уларнинг масъулиятини кучайтириш чора-тадбирлари тўғрисида» 2017 йил 10 апрелдаги ПФ-5005-сон Фармони)»ги 321-сон қарорига 1-илованинг 5-банди.

141. Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 22 майдаги «Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг айрим қарорларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш, шунингдек, баъзиларини ўз кучини йўқотган деб хисоблаш тўғрисида (Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикасининг 2018 йилги асосий макроқтисодий қўрсаткичлари прогнози ва Давлат бюджети параметрлари тўғрисида» 2017 йил 29 декабрдаги ПҚ-3454-сон қарори)»ги 384-сон қарорига 1-илованинг 5-банди.

142. Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 12 июндаги «Нефть-газ тармоғида лицензиялаш тартиботларини қисқартириш ва соддалаштириш, шунингдек, бизнесни юритишни яхшилаш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 444-сон қарорига 7-илованинг 4-банди.

143. Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 3 июлдаги «Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг айрим қарорларига ўзгартишлар киритиш, шунингдек, баъзиларини ўз кучини йўқотган деб хисоблаш тўғрисида (Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикаси Марказий банкининг фаолиятини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида» 2018 йил 9 январдаги ПФ-5296-сон Фармони)»ги 499-сон қарорига 1-илованинг 5-банди.

144. Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 16 июлдаги «Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг айрим қарорларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида (Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Тадбиркорлик фаолияти соҳасидаги лицензиялаш ва рухсат бериш тартиб-таомилларини янада қисқартириш ва соддалаштириш, шунингдек, бизнес юритиш шарт-шароитларини яхшилаш чора-тадбирлари тўғрисида» 2018 йил 11 апрелдаги

ПФ-5409-сон Фармони ҳамда «Виночилик соҳасини ва алкоголли маҳсулотларни реализация қилиши тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида» 2018 йил 28 февралдаги ПҚ-3573-сон қарори)»ги 539-сон қарорига илованинг 20-банди.

145. Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 29 октябрдаги «Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг айрим қарорларига ўзгартиришлар ва қўшимчалар киритиш тўғрисида («Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида» Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 18 апрелдаги ЎРҚ-429-сон Қонуни ва Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Тадбиркорлик фаолияти соҳасидаги лицензиялаш ва рухсат бериш тартиб-таомилларини янада қисқартириш ва соддалаштириш, шунингдек, бизнес юритиш шарт-шароитларини яхшилаш чора-тадбирлари тўғрисида» 2018 йил 11 апрелдаги ПФ-5409-сон Фармони)»ги 884-сон қарорига илованинг 7-банди.

146. Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 7 декабрдаги «Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг айрим қарорларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида (Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Қишлоқ ва сув хўжалиги давлат бошқаруви тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида» 2018 йил 17 апрелдаги ПФ-5418-сон Фармони, Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикаси Қишлоқ хўжалиги вазирлиги фаолиятини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида» 2018 йил 17 апрелдаги ПҚ-3671-сон қарори, «Ўзбекистон Республикаси Сув хўжалиги вазирлиги фаолиятини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида» 2018 йил 17 апрелдаги ПҚ-3672-сон қарори)»ги 995-сон қарорига 1-илованинг 20, 25, 43 ва 107-бандлари.

147. Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 15 декабрдаги «Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг баъзи қарорларини ўз кучини йўқотган деб ҳисоблаш тўғрисида (Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Тадбиркорлик фаолияти соҳасидаги лицензиялаш ва рухсат бериш тартиб-таомилларини янада қисқартириш ва соддалаштириш, шунингдек, бизнес юритиш шарт-шароитларини яхшилаш чора-тадбирлари тўғрисида» 2018 йил 11 апрелдаги ПФ-5409-сон Фармони)»ги 1023-сон қарорига илованинг 1-банди.

148. Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 27 декабрдаги «Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг айрим қарорларига ўзгартиришлар киритиш тўғрисида (Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Тошкент шаҳрида бошқарувнинг алоҳида тартибини жорий этиш бўйича хуқуқий эксперимент тўғрисида» 2018 йил 17 августдаги ПФ-5515-сон Фармони)»ги 1053-сон қарорига илованинг 6-банди.

149. Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 23 февралдаги «Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг айрим қарорларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш, шунингдек, баъзиларини ўз кучини йўқотган деб ҳисоблаш тўғрисида (Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Идораларо коллегиал органларни тубдан қисқартириш ва янада оптималлаштириш чора-тадбирлари тўғрисида» 2018 йил 28 августдаги ПФ-5527-сон Фармони)»ги 161-сон қарорига 2-илованинг 21-банди.

150. Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 6 мартағи «Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг айрим қарорларига киритилаётган ўзгартириш ва қўшимчалар (Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Саноат, радиация ва ядро хавфсизлиги соҳасида давлат бошқаруви ва назорати тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида» 2018 йил 12 декабрдаги ПФ-5594-сон Фармони ва Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикаси Саноат хавфсизлиги давлат қўмитаси фаолиятини ташкил этиш тўғрисида» 2018 йил 12 декабрдаги ПҚ-4058-сон қарори)»ги 195-сон қарорига илованинг 10-банди.

151. Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 11 апрелдаги «Ёғоч қириндили плиталар ва уларнинг муқобил турларини ишлаб чиқаришни янада ривожлантириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги 297-сон қарорининг 8-банди.

152. Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 7 майдаги «Курилиш соҳасида айрим фаолият турларини лицензиялаш ва аккредитация қилиш тўғрисида»ги 381-сон қарорининг 4-банди ва қарорга 3-илова.

153. Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 3 июндаги «Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг айрим қарорларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш, шунингдек, баъзиларини ўз кучини йўқотган деб хисоблаш тўғрисида (Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ахборот соҳаси ва оммавий коммуникацияларни янада ривожлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида» 2019 йил 2 февралдаги ПФ-5653-сон Фармони ва Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси хузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги фаолиятини ташкил этиш тўғрисида» 2019 йил 2 февралдаги ПҚ-4151-сон қарори)»ги 457-сон қарорига 1-илованинг 7-банди.

154. Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 14 июндаги «Курилиш соҳасида давлат бошқаруви тизимининг тубдан такомиллаштирилиши муносабати билан Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг айрим қарорларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш, баъзиларини ўз кучини йўқотган деб хисоблаш тўғрисида»ги 498-сон қарорига 1-илованинг 6-банди.

155. Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 24 июндаги «Ўзбекистон Республикаси Энергетика вазирлиги хузуридаги Нефть маҳсулотлари ва газдан фойдаланишни назорат қилиш инспекцияси фаолиятини ва Ўзбекистон Республикаси Энергетика вазирлиги хузуридаги Электр энергетикада назорат инспекцияси фаолиятини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 520-сон қарорига 8-илованинг 1-банди.

156. Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 2 июлдаги «Хорижий инвесторлар билан ишлашни янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 547-сон қарори.

157. Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 10 авгуstdаги «Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг айрим қарорларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида (Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Жаҳон банки ва Халқаро молия корпорациясининг «Бизнес юритиш» йиллик ҳисоботида Ўзбекистон Республикасининг рейтингини яхшилашга доир қўшимча чо-

ра-тадбирлар тўғрисида» 2019 йил 5 февралдаги ПҚ-4160-сон қарори)»ги 661-сон қарорига илованинг 6-банди.

158. Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 13 августдаги «2019-2021 йилларда «Наманган» эркин иқтисодий зонаси худудида муҳандислик-коммуникация ҳамда ишлаб чиқариш инфратузилмасини жадал ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 670-сон қарори.

159. Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 23 августдаги «Истеъмол ва техник этил спирти, алкоголь маҳсулотлари ишлаб чиқариш фаолиятини лицензиялаш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида»ги 707-сон қарори.

160. Вазирлар Маҳкамасининг «Электр энергиясини харид қилиш ва етказиб беришда ҳисоб-китоблар тартибини соддалаштириш тўғрисида» 2019 йил 4 сентябрдаги 728-сон қарорининг 3-банди ва қарорга илова.

161. Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 25 сентябрдаги «Binokor-M» ва «Shoxjahon-qurilish» масъулияти чекланган жамиятлари томонидан олиб келинадиган оғир юқ ташишга мўлжалланган транспорт воситалари ва Тиркамалар рўйхатини тасдиқлаш тўғрисида»ги 808-сон қарори.

162. Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 30 сентябрдаги «Донни қайта ишлаш корхоналари ва қолипли нон ишлаб чиқарувчиларни янада қўллаб-қувватлаш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 829-сон қарорига 1-илованинг 2-банди.

163. Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 19 декабрдаги «Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг айрим қарорларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш, шунингдек, баъзиларини ўз кучини йўқотган деб ҳисоблаш тўғрисида (Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикаси Монополияга қарши курашиб қўмитаси фаолиятини ташкил этиш тўғрисида» 2019 йил 24 январдаги ПҚ-4126-сон қарори)»ги 1014-сон қарорига илованинг 11, 24 ва 25-бандлари.

164. Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 28 декабрдаги «Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг айрим қарорларига ўзгартиришлар киритиш тўғрисида (Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Мехнатга ҳақ тўлаш, пенсиялар ва бошқа тўловлар миқдорларини аниқлаш тартибини такомиллаштириш тўғрисида» 2019 йил 21 майдаги ПФ-5723-сон Фармони)»ги 1046-сон қарорига илованинг 28 ва 88-бандлари.

165. Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 16 январдаги «Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг айрим қарорларига ўзгартиришлар киритиш, шунингдек, баъзиларини ўз кучини йўқотган деб ҳисоблаш тўғрисида (Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Тижорат банкларининг молиявий барқарорлигини таъминлаш, фаолияти самараదорлигини ошириш ва кредит сиёсатини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида» 2018 йил 21 декабрдаги ПҚ-4071-сон қарори)»ги 30-сон қарорига 1-илованинг 5-банди.

166. Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 20 февралдаги «Тошкент вилоятининг Бўстонлик туманида тажриба тариқасида солиқ солиш обьектларини ҳисобга олиш ва солиқ маъмуриятчилигининг алоҳида тартибини жорий этиш тўғрисида»ги 107-сон қарори.

167. Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 14 апрелдаги «Ўзбекистон Рес-

публикаси Ҳукуматининг айрим қарорларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш шунингдек, баъзиларини ўз кучини йўқотган деб ҳисоблаш тўғрисида (Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Давлат активларини бошқариш, монополияга қарши курашибни тартибга солиш тизимини ва капитал бозорини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида» 2019 йил 14 январдаги ПФ-5630-сон ва «2017 — 2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини «Фаол инвестициялар ва ижтимоий ривожланиш йили»да амалга оширишга оид Давлат дастури тўғрисида» 2019 йил 17 январдаги ПФ-5635-сон Фармонлари)»ги 217-сон қарорига 1-илованинг 14 ва 20-бандлари хамда 2-илованинг 17-банди.

168. Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 16 июндаги «Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг айрим қарорларига ўзгартиришлар киритиш, шунингдек, баъзиларини ўз кучини йўқотган деб ҳисоблаш тўғрисида («Давлат божи тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Қонуни)»ги 384-сон қарорига 1-илованинг 9-банди хамда 2-илованинг 14 ва 16-бандлари.

169. Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 10 авгуустдаги «Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг айрим қарорларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш, шунингдек, баъзиларини ўз кучини йўқотган деб ҳисоблаш тўғрисида (Ўзбекистон Республикасининг «Валютани тартибга солиш тўғрисида»-ги Ўзбекистон Республикаси Қонунига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш хақида» 2019 йил 22 октябрдаги ЎРҚ-573-сон ва «Банклар ва банк фаолияти тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Қонунига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш хақида» 2019 йил 5 ноябрдаги ЎРҚ-580-сон қонунлари)»ги 472-сон қарорига 2-илованинг 4-банди.

170. Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 30 ноябрдаги «Ўзбекистон Республикаси Алкоголь ва тамаки бозорини тартибга солиш хамда виночиликни ривожлантириш агентлиги фаолиятига оид норматив-ҳукуқий ҳужжатларни тасдиқлаш тўғрисида»ги 753-сон қарорига 4-илованинг 5-банди.

171. Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 14 декабрдаги «Иқтисодиётни ривожлантириш ва камбағалликни қисқартиришга оид давлат сиёсати тубдан такомиллаштирилиши муносабати билан Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг айрим қарорларига ўзгартиришлар киритиш, шунингдек, баъзиларини ўз кучини йўқотган деб ҳисоблаш тўғрисида»ги 777-сон қарорига 2-илованинг 6-банди.

172. Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 22 февралдаги «Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг ўз аҳамиятини йўқотган айрим қарорларини ўз кучини йўқотган деб ҳисоблаш тўғрисида (Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўз аҳамиятини йўқотган қонунчилик ҳужжатларини қайта кўриб чиқиш тизимини жорий этиш орқали мамлакатда ишбилармонлик муҳитини яхшилаш чора-тадбирлари тўғрисида» 2020 йил 27 сентябрдаги ПФ-6075-сон Фармони)»ги 87-сон қарорига илованинг 430, 940, 1118, 1272 ва 1880-бандлари.

173. Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 10 июндаги «Шоли экиш учун сотиб олинган замонавий уруф сеялкалари ва кўчатлаб экиш ускуналари қий-

матининг бир қисмини қоплаб бериш тартиби тўғрисидаги вактингчалик низомни тасдиқлаш ҳақида»ги 362-сон қарори.

174. Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 25 июндаги «Инвестиция ва ташки савдо соҳасида бошқарув тизими тубдан такомиллаштирилиши муносабати билан Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг айрим қарорларига ўзгартиришлар киритиш, шунингдек, баъзиларини ўз кучини йўқотган деб хисоблаш тўғрисида»ги 393-сон қарорига 1-илованинг 17-банди.

175. Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 29 июндаги «Жиноий фаолиятдан олинган даромадларни легаллаштиришга, терроризмни молиялаштиришга ва оммавий қирғин қуролини тарқатишни молиялаштиришга қарши курашиб тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Қонунини амалга оширишга доир қўшимча чора-тадбирлар ҳақида»ги 402-сон қарорига 4-илованинг 4 ва 6-бандлари.

176. Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 7 октябрдаги «Аҳолини асосий турдаги озиқ-овқат маҳсулотлари билан кафолатли таъминлаш ва ички бозорда нархлар барқарорлигини сақлашга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги 627-сон қарори.

177. Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 21 декабрдаги «Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг айрим қарорларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида (Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Республика озиқ-овқат саноатини жадал ривожлантириш ҳамда аҳолини сифатли озиқ-овқат маҳсулотлари билан тўлақонли таъминлашга доир чора-тадбирлар тўғрисида» 2020 йил 9 сентябрдаги ПҚ-4821-сон қарори)»ги 766-сон қарорига 1-илованинг 2-банди.

178. Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 21 февралдаги «Махсус электрон тизим орқали айрим фаолият турларини лицензиялаш тартиби тўғрисидаги ягона низомни тасдиқлаш ҳақида»ги 80-сон қарорига 4-илованинг 6-банди.

179. Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 25 февралдаги «Фаолиятни бошлиш ёки тутатиш учун ваколатли органни хабардор қилиш тартиби тўғрисидаги ягона низомни тасдиқлаш ҳақида»ги 88-сон қарорига 4-илованинг 98-банди.

180. Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 4 апрелдаги «Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг айрим қарорларига ўзгартиришлар киритиш тўғрисида (Ўзбекистон Республикасининг «Норматив-хуқуқий ҳужжатлар тўғрисида» 2021 йил 20 апрелдаги ЎРҚ-682-сон Қонуни)»ги 153-сон қарорига илованинг 78, 88, 101, 103, 114, 205, 223, 387 ва 653-бандлари.

181. Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 19 апрелдаги «Ўзбекистон Республикаси Иқтисодий тараққиёт ва камбағалликни қисқартириш вазирлиги ҳузуридаги Маҳаллабай ишлаш ва тадбиркорликни ривожлантириш агентлиги фаолиятини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 195-сон қарорига 7-илованинг 1-банди.

182. Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 5 августдаги «Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги ҳузуридаги Давлат молиявий назорати инспекцияси фаолиятини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 431-сон қарорига 3-илованинг 12, 21 ва 71-бандлари.

183. Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 24 октябрдаги «Ўзбекистон

Республикасининг «Нобанк кредит ташкилотлари ва микромолиялаштириш фаолияти тўғрисида»ги Қонуни қабул қилингандиги муносабати билан Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг айrim қарорларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш, шунингдек, баъзиларини ўз кучини йўқотган деб ҳисоблаш тўғрисида»ги 615-сон қарорига 2-илованинг 1-банди.

Ўзбекистон Республикаси
Президентининг 2024 йил 16 августдаги
ПФ-111-сон Фармонига
4-ИЛОВА

**Давлат органлари ва ташкилотларининг қонунчилик
хужжатлари лойиҳаларини тартибга солиш таъсирини
баҳолашдан ўтказиш фаолиятини баҳолаш
МЕЗОНЛАРИ**

T/р	Баҳолаш мезонлари	Балл
1.	Норматив-хуқуқий хужжатлар лойиҳасининг регламент талабларига мувофиқлиги	20
	Норматив-хуқуқий хужжатлар лойиҳаларининг соддалаштирилган тартибда баҳолашдан ўтказилганлиги	
	Норматив-хуқуқий хужжатлар лойиҳаларини тартибга солиш таъсирини баҳолашдан ўтказиш талабларига риоя қилингандиги	
2.	Норматив-хуқуқий хужжатлар лойиҳалари билан белгиланаётган тартибга солиш воситаларининг самарадорлиги	50
	Амалдаги ҳолат ва муаммолар тўғри аниқланганлиги ҳамда етарли даражада ўрганилганлиги	
	Тартибга солиш воситаларининг белгиланган мақсадларга мутаносиблиги	
3.	Муқобил усуллар кўриб чиқилганлиги ҳамда ҳар бир усул бўйича фойда ва харажат таҳлили ўтказилганлиги, ижро этиш хатарлари ўрганилганлиги ҳамда натижада энг самарали муқобил усул танланганлиги	30
	Норматив-хуқуқий хужжатлар лойиҳалари далилларга асосланганлиги	
	Тартибга солиш таъсирини баҳолаш бўйича ҳисботнинг статистик маълумотлар билан батафсил асослантирилганлиги	
	Манфаатдор томонлар билан муҳокамалар ўтказилганлиги ва жойларга чиқкан ҳолда ўрганишлар амалга оширилганлиги	

Изоҳ. давлат органлари ва ташкилотларининг қонунчилик ҳужжатлари лойиҳаларини тартибга солиш таъсирини баҳолаш рейтингини аниқлаши услубиётида асосий баҳолаш мезонларининг қўшиимча субинди-каторлари ва баҳолаш тартиби белгиланиши мумкин.

БЕШИНЧИ БЎЛИМ

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ИҚТИСОДИЁТ ВА МОЛИЯ ВАЗИРИНИНГ
БҮЙРУФИ

286 Ўзбекистон Республикаси бухгалтерия ҳисобининг мил-
лий стандарти (19-сонли БҲМС) «Инвентаризацияни
ташкил этиш ва ўтказиш»ни тасдиқлаш ҳақида*

*Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 2024 йил
12 августда рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 3548*

Ўзбекистон Республикасининг «Бухгалтерия ҳисоби тўғрисида»ги Кону-
нига мувофиқ **буюраман:**

1. Ўзбекистон Республикаси бухгалтерия ҳисобининг миллий стандарти
(19-сонли БҲМС) «Инвентаризацияни ташкил этиш ва ўтказиш» 1-иловага
мувофиқ тасдиқлансан.

2. Айрим идоравий норматив-хукуқий хужжатлар 2-иловага мувофиқ ўз
кучини ўйқотган деб топилсан.

3. Мазкур буйруқ расмий эълон қилинган кундан эътиборан кучга
киради.

Вазир

Д. КУЧКАРОВ

Тошкент ш.,
2024 йил 14 июнь,
141-сон

* Ушбу буйруқ «Конунчилик маълумотлари миллий базаси»да 2024 йил 12 августда эълон қилинган.

Ўзбекистон Республикаси
иқтисодиёт ва молия вазирининг 2024 йил
14 июндаги 141-сон бўйруғига
1-ИЛОВА

**Ўзбекистон Республикаси бухгалтерия ҳисобининг
миллий стандарти (19-сонли БХМС) «Инвентаризацияни
ташкил этиш ва ўтказиш»**

1-боб. Умумий қоидалар

1. Мазкур Бухгалтерия ҳисобининг миллий стандарти (бундан буён матнда БХМС деб юритилади) Ўзбекистон Республикасининг «Бухгалтерия ҳисоби тўғрисида»ги Қонунига мувофиқ ишлаб чиқилган ва Ўзбекистон Республикасида бухгалтерия ҳисобини норматив тартибга солиш элементи бўлиб ҳисобланади.

2. Мазкур БХМС хўжалик юритувчи субъектлар ва асосий фаолияти бюджет маблағлари ҳисобидан молиялаштириладиган ташкилотларда (бундан буён матнда ташкилотлар деб юритилади) активлар ва мажбуриятларни инвентаризациядан ўтказиш ҳамда унинг натижаларини расмийлаштириш тартибини белгилайди.

3. Қўйидагилар инвентаризациянинг асосий мақсадлари ҳисобланади:
мол-мулкнинг ҳақиқатда мавжудлигини аниқлаш;
ҳақиқатда мавжуд мол-мулкни бухгалтерия ҳисоби маълумотлари билан солиштириш;
мажбуриятлар бухгалтерия ҳисобида тўғри акс эттирилганлигини текшириш.

4. Ташкилотнинг жойлашган жойидан қатъи назар барча активлари ва мажбуриятлари инвентаризация қилинади.

Ишлаб чиқариш захиралари ва ташкилотга қарашли бўлмаган, лекин бухгалтерия ҳисобида қайд этилган бошқа турдаги мол-мулклар (масъул сақлашда бўлган, ижарага олинган, қайта ишлаш учун олинган), шунингдек бирор-бир сабабга кўра ҳисобга олинмаган мол-мулк инвентаризация қилиниши керак.

Мол-мулкни инвентаризациядан ўтказиш унинг жойлашган жойи ва моддий жавобгар шахс бўйича ўтказилади.

5. Қўйидаги ҳолларда инвентаризациядан ўтказиш мажбурий ҳисобланади:

мол-мулк ижарага берилганда, сотиб олинганда, сотилганда, шунингдек қонунчилик хужжатларида назарда тутилган ҳолларда давлат корхонасини ўзgartиришда (давлат тасарруфидан чиқарилганда);

йиллик молиявий ҳисботни тузиши олдидан, бундан ҳисбот йилининг 1 октябридан кейин инвентаризациядан ўтказилган мол-мулк мустасно.

Товар-моддий захиралар бир йилда камидан бир марта инвентаризациядан ўтказилади.

Асосий воситалар икки йилда камидан бир марта, кутубхона фондлари эса беш йилда бир марта инвентаризациядан ўтказилади.

Пул маблағлари, пул хужжатлари, қийматликлари ва қатъий хисобдаги бланклари ойда бир марта, ёнилғи-мойлаш материаллари ва озиқ-овқат маҳсулотлари хар чоракда, қимматбаҳо металлар қонунчилик хужжатларида белгиланган муддатларда инвентаризациядан ўтказилади.

Ишлаб чиқариш захиралари қўйидаги ҳолларда инвентаризациядан ўтказилади:

асосий воситалар ва товар-моддий захиралар қайта баҳолангандан;

моддий жавобгар шахслар алмашганда (ишларни қабул қилиш — топшириш кунида);

ўғирлик ёки суиистеъмол қилиш, шунингдек қийматликларни бузилиши фактлари аниқлангандан;

табиий оғатлар, ёнғинлар, фалокатлар ёки ғайритабиий шароитлар юзага келтирган бошқа фавқулодда вазиятлар юз берганда;

ташкилот тугатилганда (қайта ташкил этилганда) тугатиш (ажратиш) балансини тузиш олдидан ва қонунчилик хужжатларда назарда тутилган бошқа ҳолларда.

6. Умумий (жамоавий) моддий жавобгарлик шароитида жамоа раҳбари ўзгарганда, жамоадан унинг эллик фоиздан ортиқ аъзолари чиқиб кетганда, шунингдек жамоанинг битта ёки бир нечта аъзолари талаби билан инвентаризация ўтказилади.

2-боб. Инвентаризацияни ўтказишнинг асосий қоидалари

7. Ҳисобот йилидаги инвентаризациялар сони, уларни ўтказиш санаси, активлар ва мажбуриятлар рўйхати ташкилот раҳбари томонидан белгиланади, бундан мазкур БХМСнинг 5 ва 6-бандларида назарда тутилган ҳоллар мустасно.

8. Инвентаризацияни ўтказиш учун ташкилотларда қўйидаги таркибда доимий ишлайдиган инвентаризация комиссиялари тузилади:

ташкилот раҳбари ёки унинг ўринбосари (комиссия раиси);

бухгалтерия ҳисоби хизмати раҳбарлари (бундан буён матнда бош бухгалтер деб юритилади).

Инвентаризация комиссияси таркибига ташкилотнинг ички аудит хизмати вакиллари киритилиши мумкин.

Ишлар ҳажми катта бўлганда, активлар ва мажбуриятларни бир вақтда инвентаризациядан ўтказиш учун қўйидаги таркибда ишчи инвентаризация комиссиялари тузилади:

инвентаризацияни тайинлаган ташкилот раҳбарининг вакили (комиссия раиси);

мутахассислар (товаршунос, муҳандис, технолог, механик, иш юритувчи, иқтисодчи ва бошқалар);

бухгалтерия ҳисоби хизмати (бундан буён матнда бухгалтерия хизмати деб юритилади) ходими.

Комиссия таркибига инвентаризация қилинаётган қийматликлар, нархлар ва бошланғич ҳисобни яхши биладиган тажрибали ходимлар киритилиши керак.

Айни бир ходимни айни бир шахслар моддий жавобгар бўлган активларни инвентаризациядан ўтказиш бўйича кетма-кет икки марта ишчи инвентаризация комиссиясининг раиси қилиб тайинлаш тақиқланади.

Ташкилот раҳбари доимий ишлайдиган ва ишчи инвентаризация комиссияларининг шахсий таркибини мазкур БХМСнинг 1-иловасига* мувофиқ шаклда тасдиқлайди.

Инвентаризацияни ўтказишда инвентаризация комиссиясининг аъзоси (аъзолари) иштирок этмаса, мазкур ҳолат инвентаризация натижаларини хақиқий эмас деб топиш учун асос бўлиб хизмат қиласди.

9. Доимий ишлайдиган инвентаризация комиссиялари:

қийматликлар сақланишини таъминлашга доир профилактика ишларини ўтказади, зарурат бўлгандан ўз мажлисларида қийматликларнинг сақланиши масалалари бўйича цех, бўлим, шуъбалар раҳбарларининг маълумотларини тинглайди;

инвентаризация ўтказилишини ташкил этади ва ишчи инвентаризация комиссиялари аъзоларига кўрсатмалар беришни амалга оширади;

инвентаризация тўғри ўтказилганлиги бўйича назорат тариқасида текширувларни амалга оширади, шунингдек инвентаризациялар орасидаги даврда сақлаш ва қайта ишлаш жойларидағи товар-моддий захираларни танлаб инвентаризациядан ўтказади;

инвентаризация натижалари тўғрилигини, базалар, омборлар, омборхоналар, цехлар, қурилиш участкалари ва бошқа сақлаш жойларидағи қийматликларни қайта таснифлаш бўйича ўзаро ҳисобга олиш таклифлари асосли эканлигини текширади;

зарур ҳолларда (инвентаризация ўтказиш қоидалари жиддий бузилганлиги аниқланган ва бошқа ҳолларда) ташкилот раҳбарининг топшириғига биноан такорий ялпи инвентаризацияларни ўтказади;

қийматликлар камомади ёки уларни бузилишига, шунингдек бошқа бузилишларга йўл қўйган шахслардан олинган тушунтиришларни кўриб чиқади ва аниқланган камомадлар ҳамда қийматликларни бузилишидан кўрилган йўқолишларни тартибга солиш бўйича таклиф берадилар.

10. Ишчи инвентаризация комиссиялари:

сақлаш ва ишлаб чиқариш жойларида қийматликлар ва пул маблағлари ни инвентаризациядан ўтказади;

ташкилотнинг бухгалтерия хизмати билан биргаликда инвентаризация натижаларини аниқлашда иштирок этади ва камомадлар ҳамда қайта навларга ажратишдаги ортиқча чиқишлиарни бир бирини қоплашга олиб бориш, шунингдек табиий йўқолиш меъёрлари доирасида камомадларни ҳисобдан ўчириш бўйича таклифлар ишлаб чиқади;

товар-моддий захираларни қабул қилиш, сақлаш ва беришни тартибга солиш, ҳисобга олиш ва улар сақланишини назорат қилишни яхшилаш, шунингдек меъёрдан ортиқча ва ишлатилмайдиган моддий қийматликларни солиш масалалари бўйича таклифлар киритади;

қуйидаги ҳолатлар учун жавобгар бўлади:

* 1-илова «Қонунчилик маълумотлари миллий базаси»да эълон қилинган.

- а) ташкилот раҳбарининг буйруғига мувофиқ инвентаризацияни ўз вақтида ўтказиш ва уни ўтказиш тартибига риоя қилиш;
- б) текширилаётган асосий воситалар, товар-моддий захиралар, пул маблағлари ва тўлов воситаларининг ҳақиқатдаги қолдиқлари тўғрисидаги маълумотларни рўйхатга тўлиқ ва аниқ қайд этиш;
- в) товар-моддий захираларнинг улар нархи белгиланадиган фарқловчи белгиларини (тури, нави, русуми, хажми, прейскурант бўйича тартиб рақами, артикули ва бошқалар) рўйхатда тўғри кўрсатиш;
- г) белгиланган тартибига мувофиқ инвентаризация материалларини тўғри ва ўз вақтида расмийлаштириш.

Мол-мулкнинг ҳақиқатдаги мавжудлигини текширишни бошлашдан олдин инвентаризация комиссияси инвентаризация пайтидаги энг сўнгги кирим-чиқим ҳужжатларини ёки моддий воситалар ва пул маблағлари характеристики тўғрисидаги ҳисоботларни олиши керак.

Инвентаризация комиссиясининг раиси ҳисоботларга илова қилинган барча кирим-чиқим ҳужжатларига «инвентаризациягача ...да (сана)» деб кўрсатган ҳолда виза қўяди, бу эса бухгалтерия хизматига ҳисоб маълумотлари бўйича инвентаризацияни бошлаш пайтида мол-мулк қолдиқларини аниqlаш учун асос бўлиб хизмат қилиши керак.

Моддий жавобгар шахслар инвентаризация бошланишига қадар мол-мулкка доир барча кирим-чиқим ҳужжатлари бухгалтерия хизмати ёки комиссияга топширилганлиги ва улар жавобгарлигига келиб тушган барча қийматликлар кирим қилинганлиги, чиқиб кетганлари эса ҳисобдан ўчирилганлиги тўғрисида тилхат берадилар. Мол-мулкни харид қилиш учун пул маблағлари берилган ёки уларни олиш учун ишончномалари бўлган шахслар ҳам шундай мазмунда тилхат берадилар.

11. Инвентаризацияни ўтказиш олдидан ишчи инвентаризация комиссиялари аъзоларига инвентаризацияни ўтказиш бўйича буйрук, комиссия раисларига эса пломбир топширилади (инвентаризация комиссиясининг барча иш даври давомида пломбир комиссия раисида сақланади). Буйрукда инвентаризацияни ўтказиш бўйича ишни бошлаш ва тугатиш муддатлари белгиланади.

Агар мол-мулкни инвентаризация қилиш бир неча кун мобайнида ўтказилса, моддий қийматликлар сақланаётган хона инвентаризация комиссияси кетаётганида муҳрланиши керак. Инвентаризация комиссиялари ишида танаффус бўлганда (тушлик вақти, тунда, бошқа сабабларга кўра), рўйхатлар инвентаризация ўтказилаётган ёпиқ хонадаги яшикда (жавон, сейфда) сақланиши шарт.

Буйруклар бухгалтерия хизмати томонидан мазкур БХМСнинг 2-илова-сидаги* шаклга мувофиқ юритиладиган Инвентаризацияни ўтказиш тўғрисидаги буйруклар бажарилишини назорат қилиш китобида рўйхатга олинади.

12. Товар-моддий захираларнинг ҳақиқатда мавжудлигини текширишга киришишдан олдин ишчи инвентаризация комиссияси қўйидагиларни амалга оширади:

* 2-илова «Қонунчилик маълумотлари миллӣй базаси»да эълон қилинган.

ёрдамчи бинолар, ертўлалар ва қийматликлар сақланадиган, алоҳида кириш-чиқиши эшиклари бўлган бошқа жойларни пломбалаш;

офирикни ўлчайдиган барча асбоблар созланганини текшириш ва уларни тамғалашнинг белгиланган муддатларига риоя қилиш.

13. Кутилмаганда ўтказиладиган инвентаризацияларда барча товар-моддий захиралар инвентаризация комиссияси иштирокида тайёрланади, қолган ҳолларда эса олдиндан тайёрлаб қўйилади. Қийматликлар гурухларга бўлиниши, навларга ажратилиши ва уларнинг сонини санаш учун қулай бўлган маълум тартибда номлари, навлари, ҳажмлари бўйича жойлаштирилиши керак.

14. Асосий воситалар, хом ашё, материаллар, тайёр маҳсулот, товарлар, пул маблағлари ва бошқа қийматликларни инвентаризациядан ўтказиш уларнинг ҳар бир жойлашган жойи ва ана шу қийматликларни сақлаётган жавобгар шахс бўйича амалга оширилади.

Ҳақиқатдаги қолдикларни текшириш моддий жавобгар шахсларнинг (кассирлар, хўжалик, савдо ташкилоти, омборхона, тайёрлов пункти мудирлари ва бошқа моддий жавобгар шахслар) мажбурий иштирок этиши билан амалга оширилади.

Инвентаризация пайтида қийматликларнинг мавжудлиги мажбурий санаш, тарозида тортиш, ўлчаш йўли билан аниқланади.

Мол етказиб берувчининг очилмаган ўрамида сақланаётган материаллар ва товарлар бўйича ушбу қийматликлар миқдори истисно тариқасида ҳужжатлар асосида ушбу қийматликлар бир қисмини натурада (танлаб олиб) мажбурий текшириш билан аниқланиши мумкин. Идишсиз уюлган маҳсулотлар оғирлигини (ёки ҳажмини) ўлчаш ва техник ҳисоб-китоблар асосида аниқлашга йўл қўйилади, шунингдек ўлчаш далолатномалари ва ҳисоб-китоблар рўйхатга илова қилинади. Тарозида тортиладиган кўп миқдордаги товарлар инвентаризация қилинганда, тарозида тортиш қайдномаларини ишчи инвентаризация комиссиясининг аъзоларидан бири ва моддий жавобгар шахс юритади. Иш куни охирида (ёки тарозида тортиш тугагач) ана шу қайдномалар маълумотлари солиширилади ва чиқарилган якун инвентаризация рўйхатига қайд этилади. Тарозида тортиш қайдномалари рўйхатга иловава қилинади.

15. Инвентаризация қилинадиган қийматликлар ва объектларнинг номлари ва уларнинг миқдори рўйхатларда номенклатура бўйича ва ҳисобда қабул қилинган ўлчов бирликларида кўрсатилади.

16. Рўйхатлар ишчи инвентаризация комиссиясининг барча аъзолари ва моддий жавобгар шахслар томонидан имзоланади. Рўйхат охирида моддий жавобгар шахслар комиссия қийматликларни уларнинг иштирокида текширганини, комиссия аъзоларига нисбатан ҳеч қандай даъволар йўқлиги ва рўйхатда келтирилган қийматликлар масъул сақлашга қабул қилинганини тасдиқлайдиган тилхат беради.

Қийматликларнинг ҳақиқатда мавжудлигини текширишда моддий жавобгар шахслар ўзгарган ҳолда инвентаризация рўйхатларини қийматликларни қабул қилган шахс уларни олганлиги, топширган шахслар эса уларни топширганлиги хусусида имзолайдилар.

Ташкилотга тегишли бўлмаган, бироқ унда сақланаётган қийматликларга алоҳида рўйхатлар тузилади.

17. Инвентаризацияда мазкур БХМСнинг 3 — 16-иловаларидағи* бошланғич ҳисоб ҳужжатларининг намунавий шакллари кўлланилади. Инвентаризацияда инвентаризация бўйича бошланғич ҳисоб ҳужжатларига активлар ва мажбуриятлар хусусиятларидан келиб чиқиб аниқланадиган қўшимча реквизитлар киритилиши мумкин.

Ишчи ва маҳсулдор ҳайвонлар, парранда ва асалари оиласлари, кўп йиллик ўсимликлар, кўчатзорлар инвентаризация қилинганда, қишлоқ хўжалиги корхоналари томонидан тасдиқланган рўйхат шакллари кўлланилади.

18. Инвентаризация рўйхатлари техника воситалари, ахборот тизими ва ахборот технологияларидан фойдаланган ҳолда ёки қофозда шаклда тўлдирилиши мумкин.

Қофоз шаклда тузиладиган инвентаризация рўйхатлари аниқ ва тушунарли қилиб тўлдирилади. Ҳеч қандай бўяш ва ўчиришларга йўл қўйилмайди.

Инвентаризация рўйхатининг ҳар бир саҳифасида сўз билан товар-моддий захиралар тартиб рақамлари сони ва ушбу қийматликлар қандай ўлчов бирликларида қўрсатилганидан қатъи назар мазкур саҳифада ёзилган барча қийматликлар миқдорининг умумий якуни қўрсатилади.

Рўйхатларнинг барча нусхаларида хатоларни тузатиш нотўғри ёзувлар устига чизиш ва чизилганини устига тўғри ёзувларни қўйиш йўли билан амалга оширилиши керак. Тузатишлар изоҳ берилган ва инвентаризация комиссиясининг барча аъзолари ва моддий жавобгар шахслар томонидан имзоланган бўлиши керак.

Инвентаризация рўйхатларида тўлдирилмаган сатрларни қолдиришга йўл қўйилмайди. Рўйхатларнинг охирги варакларида тўлдирилмаган сатрлар устига чизиб қўйилади.

19. Моддий жавобгар шахслар инвентаризациядан кейин инвентаризация рўйхатларида хатоларни аниқлаган ҳолларда, улар тезда (омбор, омборхона, шуъба ва бошқалар очилгунига қадар) буни ишчи инвентаризация комиссиясига маълум қилишлари керак. Моддий жавобгар шахсларнинг қийматликларнинг камомади ёки ортиқча чиқиши товар-моддий захиралар номидаги хато, ўтказиб юбориш, янгилиши ва бошқалар туфайли юз берганлиги ҳақидаги тушунтиришлари омбор, омборхона, шуъба очилгунига қадар қабул қилинади. Ишчи инвентаризация комиссияси қўрсатилган фактларни текширишни амалга оширади ва улар тасдиқланган ҳолда аниқланган хатоларни белгиланган тартибда тузатади.

20. Ташкилотлар раҳбарлари товар-моддий захиралар ва пул маблағлари тўғри ҳамда ўз вақтида инвентаризациядан ўтказилиши ва уларнинг кутилмаганда инвентаризациядан ўтказилишини таъминлаш учун жавобгардир. Ташкилотлар раҳбарлари ишчи инвентаризация комиссиясига қийматликларнинг ҳақиқатда мавжудлигини қисқа муддатларда тўлиқ ва аниқ текширишни таъминлайдиган шароитларни яратиб беришлари шарт.

Бош бухгалтер тегишли бўлинмалар ва хизматлар раҳбарлари билан бир-

* 3 — 16-иловалар «Қонунчилик маълумотлари миллий базаси»да эълон қилинган.

галикда инвентаризация ўтказишнинг белгиланган қоидаларига риоя этилишини синчилаб назорат қилишга мажбур.

21. Товар-моддий захираларни инвентаризациядан ўтказиш билан бир вактда ташкилотнинг бухгалтерия хизмати барча тегишли ҳисобвараклар бўйича ёзувларни корреспонденцияланувчи ҳисобвараклар билан қиёслаган ҳолда текшириши керак. Масалан, асосий воситалар бўйича (капитал қўйилмаларнинг тегишли ҳисобвараклари билан қиёслаган ҳолда) фойдаланишга қабул қилинган барча объектлар ҳисобга олинганлиги, товар-моддий захиралар бўйича барча келиб тушган қийматликлар кирим қилинганлиги ва ҳисобда акс эттирилганлиги, чиқиб кетганлари эса ҳисобдан чиқарилганлиги, тугалланмаган ишлаб чиқариш бўйича барча харажатлар ишлаб чиқарилган маҳсулотга ҳисобдан чиқарилганлиги ва бошқалар аниқланиши зарур.

22. Инвентаризация тугаганидан кейин инвентаризация тўғри ўтказилганини назорат тариқасида текшириш ўтказилиши мумкин. Уларни инвентаризация комиссиялари аъзолари ва моддий жавобгар шахслар иштирокида албатта инвентаризация ўтказилган омбор, омборхона, шуъба ва бошқалар очилишига қадар ўтказиш керак. Инвентаризациялар тўғри ўтказилганлигини назорат тариқасида текшириш натижалари мазкур БҲМСнинг 17-иловасида* келтирилган шаклдаги далолатнома билан расмийлаштирилади ва мазкур БҲМСнинг 18-иловасида* келтирилган шаклдаги инвентаризация тўғри ўтказилганлигини назорат тариқасида текширишларни ҳисобга олиш китобида рўйхатга олинади.

3-боб. Алоҳида турлардаги активлар ва мажбуриятларни инвентаризациядан ўтказиш

1-§. Асосий воситаларни инвентаризациядан ўтказиш

23. Инвентаризацияни бошлашга қадар қўйидагиларни текшириш зарур: инвентарь карточкалари, инвентарь китоблари ёки рўйхатларининг мавжудлиги ва ҳолати;

техник паспортлар ёки бошқа техник хужжатларнинг мавжудлиги ва ҳолати;

ташкилот томонидан ижарага, сақлашга ва вақтинча фойдаланишга топширилган ёки қабул қилинган асосий воситалар хужжатларининг мавжудлиги. Мазкур хужжатлар мавжуд бўлмаса, уларнинг олиниши ёки расмийлаштирилишини таъминлаш зарур.

Бухгалтерия ҳисоби регистрлари ёки техник хужжатларда тафовутлар ёхуд ноаниқликлар топилган тақдирда, уларга тегишли тузатишлар ва аниқликлар киритилиши керак.

24. Асосий воситалар инвентаризациядан ўтказилаётганда, инвентаризация комиссияси мажбурий тартибда объектларни натурада кўздан кечиради ва инвентаризация рўйхатларига уларнинг тўлиқ номи, вазифаси, инвентарь рақамлари ва асосий техник ёки фойдаланиш кўрсаткичларини қайд этади.

* 17-18-иловалар «Қонунчилик маълумотлари миллий базаси»да эълон қилинган.

Ҳисобга қабул қилинмаган обьектлар, шунингдек ҳисоб регистрларида уларни тавсифлайдиган маълумотлар бўлмаган ёки нотўғри маълумотлар кўрсатилган обьектлар аниқланганда, инвентаризация комиссияси инвентаризация рўйхатига ана шу обьектлар бўйича етишмайдиган ёки тўғри маълумотларни ва техник кўрсаткичларни киритиши керак. Масалан:

бинолар бўйича уларнинг вазифаси, улар қурилган асосий материаллар, хажми (ташқи ёки ички томондан ўлчаб), майдони (умумий фойдали майдони), қаватлар сони (ертўла, ярим ертўла ва бошқаларсиз), қурилган йили ва бошқалар;

каналлар бўйича узунлиги, чуқурлиги ва эни (туби ва юзаси бўйича), сунъий иншоотлар, туби ва ёнларини маҳкамлаш материаллари;

кўпприклар бўйича жойлашган ери, материаллар тури ва асосий ўлчамлари, йўллар бўйича йўл тури (тош йўл, профилли йўл), узунлиги, қоплаш материаллари ҳамда машина қатнайдиган эни ва бошқалар кўрсатилиши керак.

Инвентаризация натижасида аниқланган ҳисобга олинмаган обьектларни баҳолаш жорий қиймат бўйича амалга оширилиши, эскириш эса обьектларнинг ҳақиқий техник ҳолати бўйича белгиланиши, бунда баҳолаш ва эскириш тўғрисидаги маълумотлар тегишли далолатномалар билан расмийлаштирилиши керак.

Инвентаризация комиссияси инвентаризация вақтида аниқланган ҳисобга олинмаган обьектлар қачон ва кимнинг фармойиши билан барпо этилганини, уларни барпо этиш харажатлари қаерга ҳисобдан чиқарилганини аниқлаши ва буни баённомада акс эттириши керак.

Асосий воситалар рўйхатга обьектнинг асосий вазифасига мувофиқ номлари бўйича қайд этилади. Агар обьект қайта тикланган, реконструкция қилинган, кенгайтирилган ёки қайта жиҳозланган ва бунинг натижасида унинг асосий вазифаси ўзгарган бўлса, у рўйхатга янги вазифасига мувофиқ келадиган ном билан киритилади.

Агар инвентаризация комиссияси капитал тусда қилинган ишлар (қават қуриш, янги хоналар қуриш ва бошқалар) ёки иморат ва иншоотларни қисман тугатиш (айрим конструктив элементларни бузиш) бухгалтерия ҳисобида акс эттирилмаган деб топса, у тегишли хужжатлар бўйича обьект бошланғич қийматининг кўпайиш ёки камайиш суммасини аниқлаши ва рўйхатда қилинган ўзгаришлар тўғрисидаги маълумотларни келтириши керак.

Инвентаризация комиссияси тегишли обьектларни конструктив ўзгартириш ҳисоб регистрларида акс эттирилмаганлигининг сабабларини аниқлаши шарт.

25. Машиналар ва ускуналар инвентаризация рўйхатларига якка тартибда, инвентарь раками, тайёрлаган заводи, чиқарилган йили, вазифаси, қувватлари ва бошқалар кўрсатилган ҳолда киритилади.

Бир вақтда бир цех ёки бўлимга келиб тушган ва гуруҳ ҳисобининг намунавий инвентарь карточкасида қайд этиладиган бир хил қийматдаги хўжалик инвентарлари, асбоблар, дастгоҳлар ва бошқа бир турдаги буюмлар инвентаризация рўйхатларида мазкур буюмлар миқдори кўрсатилиб номлари бўйича келтирилади.

Асосий воситаларнинг инвентарь объектларига берилган рақамлар, коида тариқасида, ўзгармаслиги керак. Объектлар ўзларининг техник-ишлаб чиқарыш вазифасига кўра киритилиши керак бўлган асосий воситалар гуруҳидан бошқа гурухга хато равишда киритилган ҳолларда, шунингдек нотўғри рақам қўйилганлиги аниқланган ҳолларда рақамлар ўзгартирилиши мумкин.

26. Инвентаризация пайтида ташкилотдан ташқарида бўлган асосий воситалар объектлари (узоқ рейсларда бўлган денгиз ва дарё кемалари, темир йўл ҳаракатдаги таркиби, автомашиналар, капитал таъмирлашга юборилган машина ва ускуналар ва бошқа) доимий ишлайдиган ёки ишчи комиссия томонидан улар хўжаликдан вақтинча чиқиб кетиши пайтига қадар инвентаризация қилиниши керак.

27. Фойдаланишга яроқсиз ва қайта тиклаб бўлмайдиган асосий воситалар инвентаризация рўйхатига киритилмайди. Бундай объектларга инвентаризация комиссияси алоҳида рўйхат тузиб, уларни фойдаланишга топшириш вақти ва ушбу объектларни яроқсиз ҳолга келтирган сабаблар (бузулиши, тўлиқ эскириш ва бошқалар) кўрсатилади. Бундай объектларни ҳисобдан чиқариш умумий белгиланган тартибда амалга оширилади.

28. Ташкилотга тегишли асосий воситаларни инвентаризация қилиш билан бир вақтда ижарага олинган ва масъул сақлашда бўлган асосий воситалар ҳам текширилади.

Кўрсатилган объектлар бўйича алоҳида рўйхат тузилади, унда мазкур объектлар масъул сақлаш ёки ижарага қабул қилинганлигини тасдиқлайдиган ҳужжатларга ҳавола берилади.

2-§. Номоддий активларни инвентаризациядан ўтказиш

29. Номоддий активлар инвентаризациядан ўтказилганда, қўйидагилар текширилиши зарур:

ташкилотнинг улардан фойдаланишга доир ҳукуқларини тасдиқлайдиган ҳужжатларнинг мавжудлиги;

номоддий активлар балансда тўғри ва ўз вақтида акс эттирилганлиги.

3-§. Молиявий инвестицияларни инвентаризациядан ўтказиш

30. Молиявий инвестициялар инвентаризациядан ўтказилганда, қимматли қофозлар ва бошқа ташкилотларнинг устав капиталлари, шунингдек бошқа ташкилотларга берилган қарзларга қилинган ҳақиқатдаги харажатлар текширилади.

31. Қимматли қофозларнинг ҳақиқатда мавжудлиги текширилганда қўйидагилар аниқланади:

қимматли қофозлар тўғри расмийлаштирилганлиги;

қимматли қофозлар сақланиши (ҳақиқатда мавжудлигини бухгалтерия ҳисоби маълумотлари билан таққослаш орқали);

қимматли қофозлар бўйича олинган даромадларнинг бухгалтерия ҳисобида ўз вақтида ва тўлиқ акс эттирилиши.

32. Қимматли қофозлар ташкилотда сақланганда, уларни инвентаризациядан ўтказиш кассадаги пул маблағларини инвентаризациядан ўтказиш билан бир вақтда амалга оширилади.

33. Қимматли қофозлар алоҳида эмитентлар бўйича инвентаризациядан ўтказилиб, инвентаризация далолатномасида қимматли қофозларнинг номи, серияси, рақами, номинал ва ҳақиқий қиймати, узиш муддатлари ва умумий суммаси кўрсатилади.

Ҳар бир қимматли қофозларнинг реквизитлари ташкилот рўйхатлари (реестрлари, китоблари) маълумотлари билан таққосланади.

34. Махсус ташкилотларга (қимматли қофозларни сақлайдиган депозитарий, инвестиция воситачиси ва бошқалар) сақлаш учун топширилган қимматли қофозларни инвентаризациядан ўтказиш ташкилот бухгалтерия ҳисобининг тегишли ҳисобварақларида қайд этилган суммалар қолдиқларини ушбу махсус ташкилотлар кўчирмалари маълумотлари билан солишиниришдан иборат бўлади.

35. Бошқа ташкилотларнинг устав капиталларига молиявий инвестициялар, шунингдек бошқа ташкилотларга берилган қарзлар инвентаризацияда хужжатлар билан тасдиқланиши керак.

4-§. Товар-моддий захираларни инвентаризациядан ўтказиш

36. Товар-моддий захиралар, қоида тариқасида, объектнинг ҳар бир хонасидаги қийматликларнинг жойлашиш тартиби бўйича инвентаризациядан ўтказилиши керак. Инвентаризация вақтида бир турдаги товар-моддий захиралардан бошқасига тартибсиз ўтишга йўл қўйиб бўлмайди.

Товар-моддий захиралар турли алоҳида хоналарда битта моддий жавобгар шахсада сақланганда, инвентаризация сақлаш жойлари бўйича кетма-кетликда ўтказилади. Қийматликлар текширилганидан кейин хона эшиги пломбаланади ва комиссия ишлаш учун кейинги хонага ўтади.

37. Товар-моддий захиралар инвентаризация рўйхатига номенклатура рақами, тури, гурухи, артикули, нави ва миқдори кўрсатилган ҳолда ҳар бир ном бўйича киритилади.

38. Ишчи инвентаризация комиссияси раиси ёки унинг топшириғига кўра комиссия аъзолари омбор (омборхона) мудири ва бошқа моддий жавобгар шахслар иштирокида товар-моддий захираларнинг ҳақиқатда мавжудлигини уларни мажбурий санаш, тарозида тортиш ёки қайта ўлчаш йўли билан текширадилар. Рўйхатларга қийматликлар қолдиги ҳақидаги маълумотларни моддий жавобгар шахслар томонидан берилган ёки ҳақиқатда мавжудлигини текширмасдан туриб ҳисоб маълумотлари бўйича қайд этиш қатъяни тақиқланади.

39. Инвентаризация вақтида келиб тушадиган товар-моддий захиралар моддий жавобгар шахслар томонидан инвентаризация комиссияси аъзолари иштирокида қабул қилинади ва инвентаризациядан сўнг реестр ёки товар ҳисботи бўйича кирим қилинади. Ушбу товар-моддий захиралар «Инвента-

ризация вақтида келиб тушган товар-моддий захиралар» номи билан алоҳида рўйхатга киритилади. Рўйхатда улар қачон, кимдан келиб тушганлиги, кирим хужжатининг санаси ва рақами, номи, микдори, нархи ва суммаси кўрсатилади. Кирим хужжатида инвентаризация комиссияси раисининг имзоси билан ана шу қийматликлар қайд этилган рўйхат санасига ҳавола қилган ҳолда «инвентаризациядан кейин» белгиси қўйилади.

40. Инвентаризация узоқ вақт ўтказилганда ва фақат ташкилот раҳбари ва бош бухгалтерининг ёзма руҳсати билан инвентаризация жараёнида товар-моддий захиралар моддий жавобгар шахслар томонидан инвентаризация комиссияси аъзолари иштирокида берилиши мумкин.

Ушбу қийматликлар «Инвентаризация вақтида берилган товар-моддий захиралар» деб номланган алоҳида инвентарь рўйхатига киритилади. Мазкур рўйхат инвентаризация вақтида келиб тушган товар-моддий захираларга оид хужжатларга ўхшаш шаклда расмийлаштирилиши керак. Чиқим хужжатларида инвентаризация комиссияси раисининг имзоси билан белги қўйилади.

41. Бошқа ташкилотларга тегишли бўлган ва масъул сақлашда бўлган товар-моддий захиралар ўзининг товар-моддий захиралари билан бир вақтда инвентаризация қилинади. Ушбу қийматликларга алоҳида инвентаризация рўйхати тузилади ва унда ушбу қийматликларни масъул сақлашга қабул қилинганлиги тасдиқланадиган тегишли хужжатларга ҳавола берилади.

42. Йўлда бўлган, юклаб жўнатилган, харидорлар томонидан ҳақи муддатида тўланмаган, бошқа ташкилотлар омборларида бўлган товар-моддий захираларни инвентаризациядан ўтказиш тегишли ҳисобварақларда кўрсатилган суммаларнинг асослилигини синчиклаб текширишни ўз ичига олади.

Ушбу товар-моддий захираларни (йўлдаги, юклаб жўнатилган ва бошқа товарлар) ҳисобга олуви ҳисобварақларда тегишлича расмийлаштирилган қўйидаги хужжатлар билан тасдиқланган суммалар қолиши мумкин:

йўлда бўлган товар-моддий захиралар бўйича — мол етказиб берувчи-ларнинг ҳисобварафи (тўлов талабномалари) ёки уларнинг ўрнини босадиган хужжатлар;

юклаб жўнатилган товар-моддий захиралар бўйича — харидорларга тақдим этилган ҳисобварақ-фактуралар нусхалари ва тўлов талабномалари нусхалари;

тўлаш муддати ўтган товар-моддий захиралар бўйича — банкнинг картотекаларида тўлов талабномалари;

бошқа ташкилотларнинг омборларида жойлашган товар-моддий захиралар бўйича — инвентаризация санасига яқин бўлган санага қайта расмийлаштирилган сақланган тилхатлар;

битта шаҳардаги мол етказиб берувчиларнинг омборларидағи товар-моддий захиралар бўйича — инвентаризацияни ўтказиш санасида қайта расмийлаштирилган сақланган тилхатлар.

Ушбу ҳисобварақлар бошқа корреспонденцияланувчи ҳисобварақлар билан олдиндан солиширилиши керак.

Харидорлар ёки буюртмачиларга реализация қилинган товарлар ва маҳсулотлар (иш, хизмат) учун ҳақ тўлашда узоқ вақт кечикиш юз бергандা,

ушбу кечикишнинг сабаблари аниқланади ва инвентаризация комиссиясининг баённомасида қайд этилади.

Келиб тушган товар-моддий захиралар кирим қилинмаганлиги фактлари аниқлангандан, уларни олган шахсларнинг тушунтиришлари талаб қилиниши керак.

43. Йўлда бўлган, юклаб жўнатилган, харидорлар томонидан муддатида тўламаган ва бошқа ташкилотларнинг омборларида бўлган товар-моддий захираларга алоҳида инвентаризация рўйхатлари (далолатномалари) тузилади.

Йўлда бўлган товар-моддий захираларга доир рўйхатларда ҳар бир жўнатма бўйича қўйидаги маълумотлар келтирилади:

номи (хужжатга мувофик);

миқдори ва қиймати (ҳисоб маълумотларига биноан);

юклаб жўнатиш санаси, шунингдек ушбу қийматликлар тегишли ҳисобварақларда ҳисобга олинишига асос бўлган хужжатларнинг рўйхати ва рақамлари. Бунда белгиланган муддатда келиб тушмаган ҳамда ҳисобда йўлдаги материаллар ва товарлар сифатида қайд этилган юклар бўйича уларни қидириб топиш учун қандай чоралар кўрилганлигини текшириш зарур.

44. Юклаб жўнатилган ва харидорлар ҳақини муддатида тўламаган товар-моддий захираларга доир рўйхатларда ҳар бир алоҳида жўнатма бўйича харидорнинг номи, товар-моддий захираларнинг номи, юклаб жўнатиш санаси, ҳисобварақ-фактура расмийлаштирилган сана, ҳисобварақ-фактуранинг рақами ва ҳисобварақ-фактурага доир сумма келтирилади.

45. Бошқа ташкилотларнинг омборларида сақланаётган товар-моддий захиралар рўйхатларга ушбу қийматликларни масъул сақлашга топширилганлигини тасдиқлайдиган ҳужжатлар асосида киритилади. Ушбу қийматликларга доир рўйхатларда уларнинг номи, миқдори, нави, ҳақиқатдаги қиймати (ҳисоб ҳужжатлари бўйича), юкни сақлашга қабул қилиш санаси, сақлаш жойи, ҳужжатларнинг рақамлари ва санаси кўрсатилади.

Ушбу қийматликлар масъул сақлашида бўлган ташкилотлардан инвентаризация рўйхатларининг нусхалари олинганда, комиссия қийматликларнинг ҳақиқатдаги мавжудлигини инвентаризация рўйхатлари нусхаларининг маълумотлар билан ташкилотнинг ўзидаги ҳужжатларда кўрсатилган маълумотларни таққослаш орқали аниқлайди.

46. Бошқа ташкилотларда қайта ишлашда бўлган товар-моддий захираларга доир рўйхатларда қайта ишловчи ташкилотнинг номи, қийматликлар номи, миқдори, ҳисоб маълумотлари бўйича ҳақиқатдаги қиймати, қийматликларни қайта ишлашга бериш санаси, ҳужжатларнинг рақамлари ва санаси кўрсатилади.

47. Фойдаланишда бўлган инвентарь ва хўжалик жихозлари улар жойлашган жойи ва масъул сақлашда бўлган шахслар бўйича инвентаризация қилинади.

Инвентаризация ҳар бир буюмни кўздан кечириш йўли билан ўтказилади. Инвентаризация рўйхатларига инвентарь ва хўжалик жихозлари бухгалтерия ҳисобида қабул қилинган номенклатурага мувофик номлари бўйича киритилади.

Ходимларга якка тартибда фойдаланиш учун берилган инвентарь ва хўжалик жиҳозлари инвентаризация қилинганда, гурух бўйича инвентаризация рўйхатларини тузишга йўл қўйилади. Инвентаризация рўйхатларида ана шу жиҳозлар учун масъул бўлган ва шахсий карточкалар очилган шахслар кўрсатилиб, улар инвентаризация рўйхатларидағи тилхатни имзолайди.

Рўйхатларда инвентарь ва хўжалик жиҳозларининг бошланғич қиймати кўрсатилади.

Ювиш ва тузатишга юборилган маҳсус кийим (коржома) ва сочиқ-дастурхонлар инвентаризация рўйхатига майший хизмат кўрсатиш корхоналарининг қайднома-юхчатлари ёки квитанциялари асосида ёзилиши керак.

Яроқсиз ҳолга келган ва ҳисобдан чиқарилмаган инвентарь ва хўжалик жиҳозларга ишчи инвентаризация комиссияси томонидан фойдаланиш вақти, яроқсиз бўлиш сабаблари, ушбу буюмлардан хўжалик мақсадларида фойдаланиш имкониятлари кўрсатилиб далолатномалар тузилади.

48. Идиш рўйхатларга турлари, мақсадли вазифаси ва сифат ҳолатига (янги, ишлатилган, тузатишни тақозо этадиган ва бошқа) биноан киритилади.

Текшириш олдидан бўш идиш (тара) турлари бўйича танланиши керак, яъни:

- ёғоч идишлар (яшиклар, бочкалар);
- картон идишлар;
- металл идишлар (флягалар, барабанлар);
- тўқимачилик идишлари (қоплар).

Яроқсиз ҳолга келган идишларга ишчи инвентаризация комиссияси томонидан сабаблари ва идиш учун масъул шахслар кўрсатилиб далолатнома тузилади.

5-§. Тугалланмаган ишлаб чиқариш ва келгуси даврлар харажатларини инвентаризациядан ўтказиш

49. Тугалланмаган ишлаб чиқаришни инвентаризациядан ўтказиш унинг ҳажмлари ва ҳақиқий таннархини Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Махкамаси томонидан 1999 йил 5 февралда 54-сон қарори билан тасдиқланган Маҳсулот (ишлар, хизматлар)ни ишлаб чиқариш ва сотиш харажатларининг таркиби ҳамда молиявий натижаларни шакллантириш тартиби тўғрисидаги низом ва унинг асосида ишлаб чиқилган қонунчилик ҳужжатларига (тармоқ йўриқномалари) мувофиқ белгилаш мақсадида амалга оширилади.

Саноат корхоналарини инвентаризациядан ўтказиш қўйидаги мақсадларда амалга оширилади:

ишлаб чиқаришда бўлган буюмларга доир захиралар (деталлар, узеллар, агрегатлар) ва тайёрланиши ҳамда йиғилиши тугалланмаган буюмларнинг ҳақиқатда мавжудлигини аниқлаш;

ҳисобга олинмаган яроқсиз маҳсулотни аниқлаш;

тугалланмаган ишлаб чиқаришнинг (захиралар) ҳақиқатда тўлиқлиги ва йиғишининг қисмлар билан таъминланганини аниқлаш;

бекор қилинган буюртмалар, шунингдек бажарилиши тўхтатиб қўйилган буюртмалар бўйича тугалланмаган ишлаб чиқариш қолдифини аниқлаш;

ишлаб чиқаришда бўлган захиралар (деталлар, узеллар, агрегатлар) ва тайёрланиши ҳамда йиғилиши тугалланмаган буюмларнинг ишлаб чиқариш таннархини аниқлаш.

50. Инвентаризация бошланишидан олдин омборларга цехлар учун зарур бўлмаган барча материаллар, харид қилинган деталлар ва ярим тайёр маҳсулотлар, шунингдек ишлов берилиши мазкур босқичда тугалланган барча деталлар, узеллар ва агрегатлар топширилиши лозим.

Цехларда бўлган тугалланмаган ишлаб чиқариш захиралари ва ярим тайёр маҳсулотлар уларнинг миқдорини тўғри ва қулай усуlda санаши таъминлайдиган тартибга келтирилиши керак.

51. Тугалланмаган ишлаб чиқариш захиралари (деталлар, узеллар, агрегатлар) қолдифини текшириш ҳақиқатда санаш, тарозида тортиш, ўлчаш ўйли билан амалга оширилади.

Рўйхатлар ҳар бир цех (участка, бўлим) бўйича захиралар номи, уларнинг тайёрлик босқичи ёки даражаси, миқдори ёхуд ҳажми кўрсатилган холда тўлдирилади. Курилиш-монтаж ишлари бўйича инвентаризация рўйхатлари эса иш ҳажми бўйича тузилади.

Иш жойларида бўлган, ишлов берилмаган хом ашё, материаллар ва харид қилинадиган ярим тайёр маҳсулотлар тугалланмаган ишлаб чиқариш рўйхатига киритилмайди, балки алоҳида инвентаризация қилинади ва алоҳида рўйхатларда қайд этилади.

Яроқсизга чиқарилган деталлар тугалланмаган ишлаб чиқариш таркиби га киритилмайди.

52. Бир хилдаги масса бўлмаган ёки аралашма бўлган (тегишли саноат тармоқларида) тугалланмаган ишлаб чиқариш бўйича инвентаризация рўйхатларида, шунингдек солиштириш қайдномаларида иккита миқдорий кўрсаткич келтирилади (масалан, ушбу масса ёки аралашма миқдори ва унинг таркиби га кирадиган хом ашё ёхуд материаллар (алоҳида номлар бўйича) миқдори). Хом ашё ёки материаллар миқдори қонунчилик ҳужжатларида (тармоқ йўриқномаларида) белгиланган тартибда техник хисоб-китоблар билан аниқланади.

53. Тугалланмаган капитал қурилишнинг мавжудлиги ва ҳажми инвентаризация пайтида унинг тўланган қисмини натурада текшириш ўйли билан белгиланади. Инвентаризация далолатномаларида объект номи ва мазкур объект бўйича бажарилган ишлар ҳажми ҳар бир алоҳида иш тури, конструктив унсурлар, ускуналар ва бошқалар бўйича кўрсатилади.

Инвентаризация комиссияси қўйидагиларни текшириши керак:

тугалланмаган капитал қурилиш таркибида монтажга берилган, лекин ҳақиқатда монтажи бошланмаган ускунга йўқлигини;

консервацияланган ва вақтинча қурилиши тўхтатилган объектларнинг ҳолатини.

Мазкур объектлар бўйича уларни консервациялаш учун сабаблар ва асосни аниқлаш зарур.

54. Қабул қилиниши ва фойдаланишга топширилиши тегишли ҳужжатлар билан расмийлаштирилмаган, қурилиши тугалланган, ҳақиқатда тўлиқ ёки қисман фойдаланишга топширилган обьектларга алоҳида далолатномалар тузилади. Тугалланган, лекин фойдаланишга топширилмаган обьектларга ҳам алоҳида далолатномалар тузилади. Далолатномаларда кўрсатилган обьектларни фойдаланишга топширишни расмийлаштиришнинг кечикиши сабабларини ҳам кўрсатиш лозим.

55. Қурилиши тугалланган обьектларга, шунингдек амалга оширилмаган, балансдан ўчирилиши керак бўлган қурилиш бўйича лойиҳалаш-тадқиқот ишларига далолатномалар тузилади ва уларда қурилишни тўхтатиш сабаблари кўрсатилган ҳолда бажарилган ишлар характеристиришни түркисида маълумотлар келтирилади.

Бунинг учун тегишли техник ҳужжатлар, ишлар, босқичларни топшириш далолатномалари, қурилиш обьектларида бажарилган ишларни ҳисобга олиш журналлари ва бошқа ҳужжатлардан фойдаланилиши керак.

56. Бинолар, иншоотлар, машиналар, ускуналар, энергетик қурилмалар ва бошқа обьектларнинг тугалланмаган капитал таъмирлашни инвентаризациядан ўtkазиш натурада ишлар ҳолатини текшириш йўли билан амалга оширилади.

Тугалланмаган капитал таъмирланаётган обьект номи, ишлар номи ва бажариш фоизи, бажарилган ишларнинг сметадаги ва ҳақиқий қийматлари кўрсатиладиган далолатнома тузилади.

57. Инвентаризация комиссияси ҳужжатлар бўйича келгуси давр характеристлари ҳисобварағида акс эттирилиши керак бўлган суммани аниқлайди ва рўйхатга киритади.

Келгуси давр харажатларини ҳисобга олиш Ўзбекистон Республикаси бухгалтерия ҳисобининг миллий стандарти (21-сонли БХМС) «Ҳўжалик юритувчи субъектларнинг молия-хўжалик фаолияти бухгалтерия ҳисоби ҳисобварақлари режаси ва уни қўллаш бўйича йўриқнома»га (рўйхат рақами 1181, 2002 йил 23 октябрь) мувофиқ амалга оширилади.

6-§. Ҳайвонлар ва ёш ҳайвонларни инвентаризациядан ўtkазиш

58. Катта ёшли маҳсулдор ва иш ҳайвонлари инвентаризация рўйхатларида қайд этилади ва уларда ҳайвоннинг раками (бирка, тамғаси), ҳайвоннинг лақаби, туғилган йили, насли, семизлиги, ҳайвоннинг тирик вазни (оғирлиги) (вазни (оғирлиги) кўрсатилмайдиган отлар, туялар, хачирлар, буғулардан бундан мустасно) ҳамда бошланғич қиймати кўрсатилади.

Ҳайвоннинг насли унинг ветеринария паспорти маълумотлари асосида кўрсатилади.

Қорамоллар, иш ҳайвони, чўчқалар (урғочи ва эркак чўчқалар), қўй ва бошқа ҳайвонларнинг алоҳида қимматли нусхалари (наслдор ўзаги) рўйхатларга якка тартибда киритилади. Гурух тартибидаги ҳисобга олинадиган асосий поданинг бошқа ҳайвонлари рўйхатларга ёш ва жинс гурухлари бўйича

киритилиб, ҳар бир гурух бўйича бошлар сони ва тирик вазни (оғирлиги) кўрсатилади.

59. Ёш қорамоллар, ёш наслдор отлар ва иш ҳайвонлари инвентаризация рўйхатларига якка тартибда инвентарь рақамлари, лақаблари, жинси, насли ва бошқалар кўрсатилган ҳолда киритилади.

Боқувдаги ҳайвонлар, ёш чўчқалар, қўй ва эчкилар, парранда ҳамда гуруҳ тартибида ҳисобга олинадиган бошқа тур ҳайвонлар рўйхатларга ҳисоб регистрларида қабул қилинган номенклатурага кўра ҳар бир гурух бўйича бошлар сони ва тирик вазни (оғирлик) кўрсатилган ҳолда киритилади.

Рўйхатлар ҳайвон турлари бўйича цехлар, фермалар, бўлимлар, бригадалар бўйича, ҳисоб гуруҳлари ва моддий жавобгар шахслар кесимида тузилади.

7-§. Пул маблағлари, қийматликлар ва қатъий ҳисобдаги бланкларни инвентаризациядан ўтказиш

60. Касса инвентаризация қилинганда, пул маблағлари ва кассада бўлган бошқа қийматликларнинг ҳақиқатда мавжудлиги текширилади. Қатъий ҳисобот бланклари ҳам текширудан ўтказилади.

Кассада пул маблағларининг ҳақиқатда мавжудлиги ҳисоб-китоб қилинганда, пул белгилари, почта маркалари ва давлат божи маркалари ҳисобга олинади.

Ҳеч қандай хужжат ёки тилхатлар кассадаги нақд пул қолдигига киритилмайди. Кассирнинг кассада мазкур ташкилотга тегишли бўлмаган пул маблағлари ва бошқа қийматликлар борлиги тўғрисидаги баёнотлари эътиборга олинмайди.

61. Нақд пул маблағлари инвентаризация далолатномасида қийматликлар қолдиги инвентаризация кунида натурада ва ҳисоб маълумотлари бўйича кўрсатилади ва инвентаризация натижаси аниқланади.

Қатъий ҳисобдаги бланкларнинг ҳақиқатда мавжудлигини текшириш бланк турлари бўйича у ёки бу бланкларнинг бошланғич ва охирги рақамларини ҳисобга олган ҳолда амалга оширилади. Мазкур текшириш натижалари маҳсус рўйхат билан расмийлаштирилади.

62. Йўлдаги пул маблағларини инвентаризациядан ўтказиш бухгалтерия ҳисоби ҳисобваракларида қайд этилган суммаларни банк, почта бўлими ва бошқаларнинг квитанциялари маълумотлари билан солишириш орқали амалга оширилади.

63. Банкда ҳисоб-китоб ва жорий ҳисобвараклар, аккредитивлар, маҳсус, алоҳида ва бошқа ҳисобвараклардаги пул маблағларини инвентаризациядан ўтказиш ташкилот бухгалтерия хизматининг маълумотлари бўйича тегишли ҳисобваракларда қайд этилган суммалар қолдигини банк кўчирмасидаги маълумотлар билан солишириш орқали амалга оширилади.

8-§. Ҳисоб-китобларни инвентаризациядан ўтказиш

64. Ссудалар бўйича банклар, бюджет, харидорлар, мол етказиб бе-

рұвчилар, ҳисобдор шахслар, ишчи ва хизматчилар, депонентлар ҳамда бошқа дебитор ва кредиторлар билан ҳисоб-китобларни инвентаризациядан ўтказиш тегишли ҳужжатлар бўйича қолдиқларни аниқлаш ва бухгалтерия ҳисоби ҳисобварақларида қайд этилган суммаларнинг асослигини синчиклаб текширишга асосланади. Комиссия ҳисобварақларда дебитор ва кредитор қарздорликларнинг пайдо бўлиш муддатлари, уларнинг ҳақиқийлиги ҳамда даъво этиш муддатларини ўтказиб юборишда айбдор шахсларни аниқлайди.

«Мол етказиб берувчилар ва пудратчиларга тўланадиган ҳисобварақлар» ҳисобварағининг йўлдаги товарлар ва фактура қилинмаган моллар бўйича мол етказиб берувчилар билан ҳисоб-китоблар суммаларига доир қисми алоҳида синчиклаб текширилиши керак. Мазкур маълумотлар ҳужжатлар ва корреспонденцияланувчи ҳисобварақлар билан қиёслаш орқали текширилади. Бунда, фактура қилинмаган етказиб беришлар таркибида мажбуриятларни ҳисобга олувчи ҳисобварақлар ёки олинадиган ҳисобварақлар акс эттирилган суммалар ёки ҳақиқатда тўланган ва олинган, лекин йўлда деб ҳисобланувчи материаллар ва товарлар суммалари акс эттирилмаганлиги аниқлаштирилади.

Мол етказиб берувчиларнинг ҳисобварақларида фактура қилинмаган моллар бўйича қолган суммаларга ушбу ҳисобварақ бухгалтерия хизмати томонидан текширилгач, мол етказиб берувчилардан ҳисобварақ-фактуралар талаб қилиниши керак. Мол етказиб берувчилар харидорларга ҳисобварақ-фактуралар тақдим этишлари ёки уларни тақдим этмаслик сабабларини маълум қилишлари керак. Агар мол етказиб берувчидан қарз бўлмаса, у буни харидорга маълум қилиши керак.

65. Ишчи ва хизматчиларга қарзлар бўйича ўз вақтида талаб қилиб олинмаган, депонентлар ҳисобварағига ўтказилиши керак бўлган иш ҳақи суммалари, шунингдек ишчи ва хизматчиларга ортиқча тўловлар суммалари ва юзага келиш сабаблари аниқланиши керак.

66. Ҳисобдор шахсларга берилган суммалар инвентаризация қилинганда, мақсадли фойдаланилишини ҳисобга олган ҳолда ҳисобдор шахсларга берилган бўнаклар бўйича ҳисботлар, шунингдек ҳар бир ҳисобдор шахс бўйича берилган бўнаклар суммалари, уларни бериш саналари ва мақсадли фойдаланилиши текширилади.

67. Ишчи инвентаризация комиссияси ҳужжатли текшириш йўли билан қуйидагиларни ҳам аниқлаши керак:

банклар ва ташкилот билан ҳисоб-китобларнинг мувофиқлиги;

баланс бўйича қайд этилган камомад ва ўғирликларга доир қарз суммалари тўғрилиги ва асослилиги ҳамда ана шу қарзни ундириш учун қабул қилинган чоралар;

баланс бўйича қайд этилган дебиторлик, кредиторлик ва депонентлик қарзлари суммаларининг тўғрилиги ва асосланганлиги, шунингдек дебиторлик қарзини мажбурий тартибда ундиришга даъволар тақдим этилганини;

муддати ўтган дебиторлик қарзи мавжудлиги сабаблари.

4-боб. Инвентаризация бўйича солишириш қайдномаларини тузиш

68. Солишириш қайдномалари инвентаризацияда ҳисоб маълумотларидан тафовутлар аниқланган қийматликлар бўйича тузилади.

Солишириш қайдномаларида инвентаризация натижалари, яъни бухгалтерия ҳисоби маълумотлари бўйича кўрсаткичлар ва инвентаризация рўйхатлари (далолатномалари) маълумотлари ўртасидаги тафовутлар акс эттирилади.

Товар-моддий захираларнинг ортиқча ва камомад қиймати солишириш қайдномаларида уларнинг бухгалтерия ҳисобидаги баҳосига мувофиқ келтирилади.

Инвентаризация натижаларини расмийлаштириш учун инвентаризация рўйхатлари (далолатномалари) ва солишириш қайдномаларининг кўрсаткичлари бирлаштирилган ягона регистрлар қўлланилиши мумкин.

Ташкилотга тегишли бўлмаган, лекин бухгалтерия ҳисобида қайд этилган (масъул саклашда бўлган, ижарага олинган, қайта ишлаш учун олинган) қийматликларга алоҳида солишириш қайдномалари тузилади.

Солишириш қайдномалари техника воситалари, ахборот тизими ва ахборот технологияларидан фойдаланган ҳолда ёки қофоз шаклда тузилиши мумкин.

5-боб. Инвентаризациядаги фарқларни тартибга солиш ва инвентаризация натижаларини расмийлаштириш

69. Инвентаризация ва бошқа текширишларда аниқланган ҳақиқатда мавжуд қийматликлар ва уларнинг бухгалтерия ҳисоби маълумотларидан фарқлари қўйидагича тартибга солинади:

ортиқча чиққан асосий воситалар, моддий қийматликлар, пул маблағлари ва бошқа мол-мулк кирим қилиниши хамда тегишлича ташкилотнинг молиявий натижаларига ёки бюджет ташкилотини молиялаштиришни (фондларни) кўпайтиришга қайд этилиши, кейинчалик ортиқча чиқиши сабаблари ва айбдор шахслар аниқланиши керак;

ўрнатилган меъёрлар доирасида қийматликларнинг йўқолиши ташкилотлар раҳбарларининг фармойишига кўра ишлаб чиқариш ва давр харатларига ёки бюджет ташкилотларини молиялаштиришни (фондларни) камайтиришга ҳисобдан чиқарилади. Йўқолиш меъёрлари ҳақиқатда камомад аниқланган ҳоллардагина қўлланиши мумкин.

Бунда, ўрнатилган меъёрлар доирасида қийматликларнинг йўқолиши қайта навларга ажратишдаги ортиқчалар билан ҳисобга олгач белгиланишига эътибор берилади. Агар қайта навларга ажратиш бўйича ҳисобга олингандан кейин ҳам қийматликлар камомади мавжуд бўлса, табиий йўқолиш меъёрлари камомад аниқланган қийматликлар номи бўйичагина қўлланиши мумкин.

Қийматликларни йўқолиши бўйича тасдиқланган меъёрлар бўлмаган тақдирда, мазкур йўқолиш камомад сифатида қаралади.

Камомад ва бузилишларнинг аниқ айбдорлари аниқланмаган ҳолларда, қийматликларнинг йўқолиш меъёрларидан ортиқча камомади ва қийматликлар бузилишидан йўқолишлар Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси томонидан 1999 йил 5 февралда 54-сон қарори билан тасдиқланган Маҳсулот (ишлар, хизматлар)ни ишлаб чиқариш ва сотиш харажатларининг таркиби ҳамда молиявий натижаларни шакллантириш тартиби тўғрисидаги низомга мувофиқ ташкилотлар томонидан ишлаб чиқариш ва давр харажатларига ҳисобдан чиқарилиши ёки бюджет ташкилотида молиялаштиришни (фондларни) камайтиришга акс эттирилиши мумкин.

Бунда, қийматликларни йўқолиш меъёрларидан ортиқча камомадини ва қийматликларни бузилишидан йўқолишларни ҳисобдан чиқаришни расмийлаштириш учун тақдим этиладиган ҳужжатларда шундай камомад ва йўқолишларнинг олдини олиш бўйича қабул қилинган чоралар кўрсатилиши керак.

Қийматликлар бузилиши ҳолати тўғрисидаги хуносалар техник назорат бўлими ёки сифат бўйича тегишли инспекциялардан олиниши мумкин.

70. Инвентаризация натижалари инвентаризация тугаган ойдаги ҳисоб ва ҳисоботда, йиллик инвентаризация натижалари эса йиллик молиявий ҳисоботда акс эттирилиши керак.

71. Ҳисобот йилида ўтказилган инвентаризация натижалари маълумотлари мазкур БХМСнинг 5-иловасида келтирилган инвентаризацияда аниқланган натижалар қайдномасида умумлаштирилади.

72. Инвентаризация вақтида аниқланган қийматликлар билан бухгалтерия ҳисоби маълумотлари ўртасидаги тафовутларни тартибга солиш тўғрисидаги таклифлар кўриб чиқиш учун ташкилот раҳбарига тақдим этилади.

Ўзбекистон Республикаси
иқтисодиёт ва молия вазирининг 2024 йил
14 июнданги 141-сон буйруғига
2-ИЛОВА

Ўз кучини йўқотган деб топилаётган идоравий норматив-хуқуқий ҳужжатлар РЎЙХАТИ

1. Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги томонидан 1999 йил 19 октябрда ЭГ/17-19-2075-сон билан тасдиқланган Ўзбекистон Республикаси бухгалтерия ҳисобининг миллий стандарти (19-сонли БХМС) «Инвентаризацияни ташкил этиш ва ўтказиш» (рўйхат рақами 833, 1999 йил 2 ноябрь).

2. Ўзбекистон Республикаси молия вазирининг 2018 йил 5 январдаги 2-сон «Ўзбекистон Республикаси бухгалтерия ҳисобининг миллий стандарти (19-сон БХМС) «Инвентаризацияни ташкил этиш ва ўтказиш»га ўзгаришилар ва қўшимча киритиш тўғрисида»ги буйруғи (рўйхат рақами 833-1, 2018 йил 25 январь) (Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 25.01.2018 й., 10/18/833-1/0620-сон).

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ИСТИҚБОЛЛИ ЛОЙИҲАЛАР МИЛЛИЙ
АГЕНТЛИГИ ДИРЕКТОРИНИНГ
БҮЙРУФИ

287

Суғурталовчилар томонидан харажатлар таркиби ва молиявий натижаларни шакллантиришнинг ўзига хос хусусиятлари тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида*

*Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 2024 йил
13 августдан рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 3549*

Ўзбекистон Республикаси «Суғурта фаолияти тўғрисида»ги Қонунига мувофиқ **буюраман**:

1. Суғурталовчилар томонидан харажатлар таркиби ва молиявий натижаларни шакллантиришнинг ўзига хос хусусиятлари тўғрисидаги низом 1-иловага мувофиқ тасдиқлансан.
2. Айрим идоравий норматив-хуқуқий ҳужжатлар 2-иловага мувофиқ ўз кучини йўқотган деб топилсан.
3. Мазкур буйруқ Ўзбекистон Республикаси Иктисодиёт ва молия вазирлиги, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Солик қўмитаси, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Тадбиркорлик субъектларининг хуқуqlари ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш бўйича вакил ҳамда Ўзбекистон Республикаси Савдо-саноат палатаси билан келишилган.
4. Мазкур буйруқ расмий эълон қилинган кундан кучга киради.

Директор**Д. ЛИ**

Тошкент ш.,
2024 йил 4 июль,
7-сон

*Келишилди:**Иктисодиёт ва молия вазири***Д. КУЧКАРОВ***2024 йил 3 июль**Солик қўмитаси раиси***Ш. КУДБИЕВ***2024 йил 10 июнь*

* Ушбу буйруқ «Қонунчилик маълумотлари миллий базаси»да 2024 йил 14 августда эълон қилинган.

*Тадбиркорлик субъектларининг
ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларини
ҳимоя қилиш бўйича вакил*

Д. КАСИМОВ

2024 йил 3 июль

*Савдо-саноат
палатаси раиси*

Д. ВАХАБОВ

2024 йил 25 июнь

Ўзбекистон Республикаси
истиқболли лойихалар миллый агентлиги
директорининг 2024 йил 4 июлдаги
7-сон бўйруғига
1-ИЛОВА

**Суфурталовчилар томонидан харажатлар таркиби ва
молиявий натижаларни шакллантиришнинг ўзига
хос хусусиятлари тўғрисида
НИЗОМ**

Мазкур Низом суфурта хизматларини кўрсатиш таннархига киритиладиган харажатлар таркиби ҳамда суфурта фаолиятининг ўзига хос хусусиятларини инобатга олган ҳолда Суфурталовчи ёки қайта Суфурталовчи (бундан буён матнда Суфурталовчи деб киритилади) фаолиятининг молиявий натижаларини шакллантириш тартибини белгилайди.

1-боб. Умумий қоидалар

1. Суфурталовчилар суфурта хизматлари таннархини шакллантириш ва молиявий натижаларни аниқлашда суфурта соҳасининг ўзига хос хусусиятларини инобатга олган ҳолда Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1999 йил 5 февралдаги 54-сон қарори билан тасдиқланган Маҳсулот (ишлар, хизматлар)ни ишлаб чиқариш ва сотиш харажатларининг таркиби ҳамда молиявий натижаларни шакллантириш тартиби тўғрисидаги низомга амал қиласди.

2. Мазкур Низом мулкчилик шаклидан қатъи назар барча Суфурталовчиларга нисбатан қўлланилади.

**2-боб. Суфурта фаолияти бўйича молиявий натижаларни
шакллантириш ва харажатлар таркибининг ўзига хос
хусусиятлари**

3. Суфурталовчиларнинг харажатлари таркиби Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1999 йил 5 февралдаги 54-сон қарори билан тас-

диқланган Маҳсулот (ишлар, хизматлар)ни ишлаб чиқариш ва сотиш харжатларининг таркиби ҳамда молиявий натижаларни шакллантириш тартиби тўғрисидаги низомга мувофиқ аниқланади, бунда суғурта хизматлари таннархи таркибиغا қўйидаги кўшумча (махсус) харажатлар киради:

суғурта (биргаликдаги суғурта) ва қайта суғурта (суғурталовчига тегишли улуши) шартномалари бўйича суғурта товоnlари (суғурта тўлови) миқдори;

суғурта ҳодисаларини бартараф этиш ва улар бўйича тўловларни амалга ошириш билан боғлиқ харажатлар;

қайта суғурта операциялари бўйича тантъемалар, қайта суғурта қилиш комиссияси ҳамда суғурта агенти учун воситачилик ҳақи.

4. Харажатлар моддалари рўйхати ва уларнинг таснифланиши бошқарув ҳисобини юритиш мақсадида суғурталовчининг ҳисбот йилидаги Ҳисоб сиёсатида акс эттирилиши лозим.

5. Суғурталовчиларнинг даромадлари таркиби Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1999 йил 5 февралдаги 54-сон қарори билан тасдиқланган Маҳсулот (ишлар, хизматлар)ни ишлаб чиқариш ва сотиш харажатларининг таркиби ҳамда молиявий натижаларни шакллантириш тартиби тўғрисидаги низомга мувофиқ аниқланади, бунда суғурта хизматларини амалга оширишдан олинган соф тушум:

тўғридан-тўғри ва биргаликдаги суғурта бўйича мукофотларнинг умумий миқдоридан (суғурталовчининг биргаликдаги суғурта шартномасида белгиланган улуши миқдорида) қайта суғуртага берилган шартномалар бўйича суғурта мукофотлари (бадаллари)ни чегирган ҳолда;

қайта суғуртага қабул қилинган шартномалар бўйича суғурта мукофотларини қўшиш;

ишлаб топилмаган мукофотлар захирасидаги (бундан буён матнда ИМЗ деб юритилади) қайта суғурталовчиларнинг улуши миқдорида тузатиш киритилган ҳолдаги ИМЗ ўзгаришининг натижасини қўшиш/айриш;

хабар қилинган, лекин бартараф этилмаган заарлар захирасидаги (бундан буён матнда ХЗЗ деб юритилади) қайта суғурталовчиларнинг улуши миқдорида тузатиш киритилган ҳолдаги ХЗЗ ўзгаришининг натижасини қўшиш/айриш;

содир бўлган, лекин хабар қилинмаган заарлар захирасидаги (бундан буён матнда СХЗЗ деб юритилади) қайта суғурталовчиларнинг улуши миқдорида тузатиш киритилган ҳолдаги СХЗЗ ўзгаришининг натижасини қўшиш/айриш;

хаёт суғуртаси бўйича захиралардаги (бундан буён матнда ҲЗ деб юритилади) қайта суғурталовчиларнинг улуши миқдорида тузатиш киритилган ҳолдаги ҲЗ ўзгаришининг натижасини қўшиш/айриш;

бошқа техник захиралардаги қайта суғурталовчиларнинг улуши миқдорида тузатиш киритилган ҳолдаги, тегишли захиралар ўзгаришининг натижасини қўшиш/айриш;

воситачилик хизматларини қўрсатганлик учун ҳисобланган воситачилик ҳақи ва бошқа мукофотларни қўшиш;

қайта суфурта бўйича заарлар улушининг қопланиши бўйича даромадларни қўшиш;

қайта суфуртага берилган шартномалар бўйича ҳисобланган қайта суфурта қилиш комиссиясини қўшиш;

суфурта сюрвейери ва аджастер (аджастерлик ташкилоти) хизматларини кўрсатганлик учун мукофотларни қўшиш;

суфурта хизматларини кўрсатишдан бевосита олинган бошқа даромадларни қўшиш/айриш йўли билан аниқланади.

6. Суфурталовчиларнинг молиявий фаолиятидан олинадиган даромадлар таркибига инвестиция фаолиятидан, шу жумладан суфурта захиралари маблағларини инвестиция қилишдан олинадиган даромадлар ҳам киради.

Ўзбекистон Республикаси
истиқболли лойихалар миллий агентлиги
директорининг 2024 йил 4 июлдаги
7-сон бўйругига
2-ИЛОВА

**Ўз кучини йўқотган деб топилаётган идоравий
норматив-хукуқий ҳужжатлар
РЎЙХАТИ**

1. Ўзбекистон Республикаси молия вазирининг 2005 йил 20 июлдаги 65-сон «Суфурта ташкилотлари томонидан харажатлар таркиби ва молиявий натижаларни шакллантиришнинг ўзига хос хусусиятлари тўғрисида низомни тасдиқлаш ҳақида»ги бўйруғи (рўйхати рақами 1517, 2005 йил 18 октябрь) (Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2005 й., 41-42-сон, 326-модда).

2. Ўзбекистон Республикаси молия вазирининг 2007 йил 31 майдаги 64-сон «Суфурта ташкилотлари томонидан харажатлар таркиби ва молиявий натижаларни шакллантиришнинг ўзига хос хусусиятлари тўғрисидаги низомга ўзгартиришлар киритиш ҳақида»ги бўйруғи (рўйхати рақами 1517-1, 2007 йил 21 июнь) (Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2007 й., 25-26-сон, 273-модда).

3. Ўзбекистон Республикаси Молия вазирининг 2017 йил 19 июлдаги 109-сон «Суфурта ташкилотлари томонидан харажатлар таркиби ва молиявий натижаларни шакллантиришнинг ўзига хос хусусиятлари тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида»ги бўйрукқа ўзгартиришлар ва қўшимча киритиш тўғрисида»ги бўйруғи (рўйхати рақами 1517-2, 2017 йил 9 август) (Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 32-сон, 824-модда).

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRINING
BUYRUG'I

288 O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vaziri tomonidan qabul qilingan ayrim idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida*

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2024-yil 13-avgustda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3550

O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 30-maydag'i O'RQ-928-son "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi Qonuniga hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 26-oktabrdagi PQ-411-son "Aholini sifatli dori vositalari va tibbiy buyumlar bilan ta'minlash yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq **buyuraman**:

1. O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vaziri tomonidan qabul qilingan ayrim idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarga ilovaga muvofiq o'zgartirishlar kiritilsin.
2. Mazkur buyruq rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Vazir

A. XUDAYAROV

Toshkent sh.,
2024-yil 2-avgust,
29-son

* Ushbu buyruq «Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi»da 2024-yil 16-avgustda e'lon qilingan.

O'zbekiston Respublikasi
sog'liqni saqlash vazirining 2024-yil 2-avgustdagি
29-son buyrug'iiga
ILOVA

**O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vaziri tomonidan
qabul qilingan ayrim idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarga
kiritilayotgan o'zgartirishlar**

1. O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirining 2018-yil 30-oktabrdagi 51-son buyrug'i (ro'yxat raqami 3082, 2018-yil 31-oktabr) (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 01.11.2018-y., 10/18/3082/2141-son) bilan tasdiqlangan Dorixona sharoitida "angro" mahsulotini qadoqlash, o'rash, markirovka va realizatsiya qilish tartibi to'g'risidagi nizomning 8-bandidagi "O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tasdiqlagan, retseptsiz sotiladigan dori vositalari ro'yxatiga muvofiq" degan so'zlar "retseptsiz" degan so'z bilan almashtirilsin.

2. O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirining 2023-yil 28-apreldagi 10-son buyrug'i (ro'yxat raqami 3430, 2023-yil 4-may) (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 05.05.2023-y., 10/23/3430/0253-son) bilan tasdiqlangan Dori vositalarini retsept bilan va retseptsiz beriladigan dori vositalari toifasiga kiritish tartibi to'g'risidagi nizomning 7-bandi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"7. Retseptsiz beriladigan dori vositalari to'g'risidagi axborot dori vositalarining tibbiyotda qo'llanilishiga doir yo'riqnomalarda, shuningdek Tibbiyot amaliyotida qo'llanilishiga ruxsat etilgan dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika davlat reyestrida ko'rsatiladi. Retseptsiz beriladigan dori vositalari to'g'risidagi axborot ommaviy axborot vositalarida va ixtisoslashtirilgan bosma nashrlarda ham berilishi mumkin.".

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ENERGETIKA VAZIRINING
BUYRUG'I

289 O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligining ayrim idoraviy normativ-huquqiy hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida

*O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2024-yil
14-avgustda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3551*

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 31-maydag'i 319-son "Elektr energiyasi va tabiiy gazdan foydalanish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi qaroriga muvofiq **buyuraman**:

1. O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligining ayrim idoraviy normativ-huquqiy hujjatlariga ilovaga muvofiq o'zgartirishlar kiritilsin.

2. Mazkur buyruq rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Vazir

J. MIRZAMAHMUDOV

Toshkent sh.,
2024-yil 11-iyul,
90-son

O'zbekiston Respublikasi
energetika vazirining 2024-yil 11-iyuldaggi
90-son buyrug'iiga
ILOVA

**O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligining ayrim
idoraviy normativ-huquqiy hujjatlariga o'zgartirishlar
kiritish to'g'risida**

1. Elektr energetikada nazorat bo'yicha davlat inspeksiyasi "O'zdavenergonazorat" boshlig'ining 2008-yil 9-sentabrdagi 168-son buyrug'i (ro'yxat raqami 1864, 2008-yil 10-oktabr) (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2008-y., 40-41-son, 419-modda) bilan tasdiqlangan Reaktiv quvvat kompensatsiyasi bo'yicha ishlarni tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomning 28-bandidagi "2018-yil 12-yanvardagi 22-son" degan so'zlar "2024-yil 31-maydagi 319-son" degan so'zlar bilan almashtirilsin.

2. Elektr energetikada nazorat bo'yicha davlat inspeksiyasi boshlig'ining 2017-yil 6-martdagi 2-son buyrug'i (ro'yxat raqami 2871, 2017-yil 31-mart) (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 13-son, 211-modda) bilan tasdiqlangan Elektr energiyasini elektr tarmoqlari bo'ylab uzatish va taqsimlashda texnologik yo'qotishlarning normativlarini hisoblash tartibi to'g'risidagi yo'riqnomaning 17-bandidagi "2018-yil 12-yanvardagi 22-son qarori bilan tasdiqlangan Elektr energiyasidan foydalanish qoidalarining 75-bandiga" degan so'zlar "2024-yil 31-maydagi 319-son qarori bilan tasdiqlangan Elektr energiyasidan foydalanish qoidalarining 93-bandiga" degan so'zlar bilan almashtirilsin.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekiston neft mahsulotlari va gazdan foydalanishni nazorat qilish davlat inspeksiyasi hamda Elektr energetikada nazorat bo'yicha davlat inspeksiyasining 2018-yil 7-fevraldagi 3 va 2-son qaroriga (ro'yxat raqami 3005, 2018-yil 4-may) (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 07.05.2018-y., 10/18/3005/1167-son) bilan tasdiqlangan Energiya resurslarini hisobga olishning avtomatlashtirilgan tizimini joriy etish doirasida elektr energiyasi va tabiiy gazni hisobga olishning zamonaviy asboblarini o'rnatish tartibi to'g'risidagi nizomning 5 va 17-bandlaridagi "2018-yil 12-yanvardagi 22-son" degan so'zlar "2024-yil 31-maydagi 319-son" degan so'zlar bilan almashtirilsin.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI HUZURIDAGI IJTIMOIY HIMOYA MILLIY
AGENTLIGI DIREKTORINING
BUYRUG'I

290 “Yolg'iz keksalar va nogironlarni O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tizimidagi Urush va mehnat faxriylari uchun respublika pansionati, “Saxovat” va “Muruvvat” internat uylariga rasmiylashtirish qoidalarini tasdiqlash haqida”gi buyruqqa o'zgartirishlar va qo'shimcha kiritish to'g'risida*

*O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2024-yil
14-avgustda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 2785-2*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrdagi PF-269-son “Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida” va 2023-yil 1-iyundagi PF-82-son “Aholiga sifatlari ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida”gi farmonlari hamda 2023-yil 27-dekabrdagi PQ-410-son “O'zgalar parvarishiga muhtoj keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslarga ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qaroriga muvofiq **buyuraman**:

1. O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirining 2016-yil 27-apreldagi 50-son “Yolg'iz keksalar va nogironlarni O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tizimidagi Urush va mehnat faxriylari uchun respublika pansionati, “Saxovat” va “Muruvvat” internat uylariga rasmiylashtirish qoidalarini tasdiqlash haqida”gi buyrug'iga (ro'yxat raqami 2785, 2016-yil 12-may) (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2016-y., 19-son, 217-modda) ilovaga muvofiq o'zgartirishlar va qo'shimcha kiritilsin.

2. Mazkur buyruq rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Direktor

M. OLLOYOROV

Toshkent sh.,
2024-yil 10-iyul,
2024/1-son

* Ushbu buyruq «Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi»da 2024-yil 19-avgustda e'lon qilingan.

O'zbekiston Respublikasi
 Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy
 agentligi direktorining 2024-yil 10-iyuldag'i
 2024/1-son buyrug'iga
 ILOVA

**"Yolg'iz keksalar va nogironlarni O'zbekiston Respublikasi
 Sog'liqni saqlash vazirligi tizimidagi Urush va mehnat faxriylari
 uchun respublika pansionati, "Saxovat" va "Muruvvat" internat
 uylariga rasmiylashtirish qoidalarini tasdiqlash haqida"gi
 buyruqqa kiritilayotgan o'zgartirishlar va qo'shimcha**

